ISSN:2181-3558
«SCIENCE AND RESEARCH»

JOURNAL
OF INTEGRATED EDUCATION AND RESEARCH

INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM VA TADQIQOT JURNALI

ЖУРНАЛ ИНТЕГРИРОВАННОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ИССЛЕДОВАНИЙ

THE JOURNAL OF INTEGRATED EDUCATION AND RESEARCH

ISSN 2181-3558

VOLUME 2, ISSUE 3

COLLECTION B

MARCH 2023

Tahririyat a'zolari
Editorial board

Berdialiev A. *f.f.d., prof.*
Nurullaeva Sh.U. *ped.f.d., prof.*
Tursunov K.Sh. *ped.f.d., prof.*
Babadjanova D. *tarix.f.d., prof.*
Ernazarova G.O. *ped.f.d., prof.*
Abduraximova D.A. *ped.f.d., prof.*
Madumarov T.T. *yur.f.d., prof.*
Mirzayeva S.R. *fil.f.d., prof.*
Yuldashev M.M. *fil.f.d., prof.*
Xolliyev A.E. *bio.f.d., prof.*
Mahmudov N.M. *fil.f.d., prof*
Salayeva M.S. *ped.f.d., prof.*
Salaeva M.S. *psi.f.n., dotsent*
Tojiboyeva M.A. *fil.f.d., dotsent*
Sabirova N.E. *fil.f.d., dotsent*
Norboyeva U.T. *bio.f.d., dotsent*
Yarmatov R.B. *ped.f.d., dotsent*
Egamberdiyeva N.A. *tarix.f.d., dotsent*
Achilov N.K. *fil.f.d., dotsent*
Imomova G.M. *fil.f.n., dotsent*
Zakirova H.R. *f.f.n., dotsent*
Tuhtahujaev H.B. *ped.f.f.d., dotsent, TFA Akademik*
Bakiyev Z.A. *ped.f.n., dotsent*
Razzakov H.K. *tex.f.n., f.f.d., dotsent*
Ortikov O.A. *tex.f.f.d., dotsent*
Djuraeva M.Y. *f.f.f.d.*
Nabikhodjaev A.A. *iqt.f.n., dotsent*
Otadjanova M.O. *f.f.d.*
Tajibaeva M.A. *fil.f.d., dotsent*
Hasanov A.M. *fil.f.f.d*
Kholmurodov A.E. *fiz.m.f.d., dotsent*
Aripov O.A. *iqt.f.d., dotsent*
Safarova U.A. *fil.f.d., dotsent*
Dexqonova M.Sh. *f.f.d.*
Hasanov A.M. *fil.f.d.*

Mas'ul kotib: ***M.Yusupov***

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING INNOVATSION KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Hakimova Marjona Iskandarzoda
O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika Instituti
Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqish talabasi

Annotation. The relevance of the article is determined by the need to form innovative abilities in future elementary school teachers, to prepare them for the implementation of innovative activities. It is highlighted that one of the urgent pedagogical problems is the training of innovative competent teachers who are able to carry out their professional activities using the necessary effective educational tools and innovations in education.

Аннотация. Актуальность статьи определяется необходимостью формирования инновационных способностей у будущих учителей начальных классов, подготовки их к осуществлению инновационной деятельности. Подчеркнуто, что одной из актуальных педагогических проблем является подготовка инновационных компетентных педагогов, способных осуществлять свою профессиональную деятельность с использованием необходимых эффективных средств обучения и инноваций в образовании.

Annotatsiya. Maqolaning dolzarbligi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida innovatsion qobilyatlarni shakllantirishi, ularning innovatsion faoliyatini amalga oshirishga tayyorlash zarurati bilan belgilanadi. O‘qituvchining ta’lim jarayonida zarur samarali ta’lim vositalari va ta’limdagi yangiliklardan foydalangan holda kasbiy faoliyatini amalga oshirishga qodir innovatsion kompetentli o‘qituvchilarni tayyorlash dolzarb pedagogik muammolardan biri ekanligi yoritilgan.

Key words: innovation, technology, competence, innovative process, innovative education, technical tools, competence, modern education, lifelong learning, SMART technology.

Ключевые слова: инновация, технология, компетентность, инновационный процесс, инновационное образование, технические средства, компетентность, современное образование, непрерывное обучение, SMART-технология.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, texnologiya, kompetentlik, innovatsion jarayon, innovatsion ta’lim, texnik vositalar, kompetensiya, zamonaviy ta’lim, hayot davomida o‘qish, SMART texnologiyasi.

Jahonda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining innovatsion kompetentliligini shakllantirish imkoniyatini kengaytirish, tizimda axborot-kommunikatsiya texnologiya vositalaridan keng foydalanish hamda innovatsion kompetentlikni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonning kreativ modellarini ishlab chiqish masalalariga oid ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini innovatsion

kompetensiyasini shakllantirishga tayyorlashda izlanuvchanlik, topqirlik va tadqiqotchilik kabi pedagogik xususiyatlarga bo‘lgan rag‘batlantirishning motivatsion ta’sirini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda ta’lim tizimining rivojlanishi o‘qitishda innovatsion texnologiyalarning roli ortib borishi bilan xarakterlanib, u bo‘lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirish, sifatli ta’limga yo‘naltirilgan motivasiyasini faollashtirish, ta’lim muassasalarida innovatsion faoliyatning o‘rni va rolini qayta ko‘rib chiqish, ta’lim islohotlarini amalga oshirish jarayonini mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mos holda prognoz qilish dolzarb muammo sifatida e’tirof etilmoqda.

Bugungi kunda globallashuv jarayoni ijtimoiy – madaniy mohiyatiga ko‘ra raqobatbardosh, izlanuvchan, kompetentli kadrlar tayyorlashni taqozo etmoqda. Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash ta’lim sifatini hamda talabalarning kasbga bo‘lgan qiziqishini orttiradi hamda pedagoglarni o‘z ustida ishlash samaradorligini oshiradi. Shu o‘rinda prezdentimiz Sh. Mirziyoyevning “Yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intelektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatimizni safarbar etamiz”[1] dagan fikrlari ishimizning maqsad va vazifasiga bevosita mos keladi.

Pedagogik adabiyotlarda “Innovatsion ta’lim”, “Innovatsion jarayon” va “Innovatsion faoliyat” terminlari yaqin o‘tmishda kam kuzatilar edi. “Innovatsion ta’lim” tushunchasi 1979-yilda “Rim klubi”da birinchi bor qo‘llanilgan. Bu so‘zning zamirida ta’limda yangiliklarni tashkil qilish, ularni o‘zlashtirish, yangilikdan foydalanish hamda ularni namoyon etish kabi kompleks faoliyat yotadi.

Innovatsion ta’lim – ta’lim oluvchida yangi fikr, g‘oya, me’yor, qoidalarni yaratish, o‘zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg‘or g‘oyalar, me’yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta’lim. Innovatsion ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan texnologiyalar ta’lim innovatsiyalari yoki innovatsion ta’lim texnologiyalari deb nomlanadi.

Ta’lim innovatsiyalari – ta’lim sohasi yoki o‘quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo‘llanilib, oldingidan ancha samarali natijaga erisha oladigan shakl, metod, texnologiyalar.

Ta’lim sohasida innovatsion jarayon – bu ta’lim konsepsiyasidagi, o‘quv dasturidagi, tarbiya va o‘qitish usullaridagi, usul va uslublardagi yangilik va o‘zgarishlardir. Ta’lim sohasida innovatsion jarayonlar so‘zining tub ma’nosida pedagogning o‘rganish, umumlashtirish va ilg‘or pedagogik tajribalarni ommalshtirish va pedagogika fanlari yutuqlarini amaliyotga tadbiq etish muammosi yotadi.

[1] Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizniqat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T.:O‘zbekiston,2017. – 146 b.

"Kompetensiya" va " kompetentlik" o'zaro farqli tushunchalar hisoblanadi: **kompetensiya** – bu mutaxassisning shaxs sifatlaridan qat'iy nazar uning professionalligining umumiy tavsifi. U rasmiy, uning bevosita tashuvchisidan alohida mavjud bo'ladi va egallanishiga muhtoj bo'ladi. **Kompetentlik** esa shaxsiy egallangan kompetensiya, "shaxsning kasbdagi" ifodalanishi.

Innovatsion kompetentlik deganda biz pedagogning shaxsiy va kasbiy mahoratini uning innovatsion faoliyatida namoyon bo'lishining ma'lum bir darajasini tushunamiz. Boshqacha qilib aytganda, innovatsion kompetentlik pedagogning ta'limiy va samarali yangiliklardan foydalangan holda kasbiy faoliyatni amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarligining natijasidir.

Hozirgi kunda o'quv jarayonida SMART texnologiyalaridan foydalanish samarali natija bermoqda. SMART (aqlli, aql-idrokli, texnologik) – qisqartma so'z bo'lib, mohiyati jihatidan yangi ta'lim muhitidir. Uni dastlab 1965-yili Paul J Meyer, so'ngra 1981-yili George T. Doran o'z ilmiy ishlarida qo'llaganlar, SMART butun jahon bilimlarni foydalanish va passiv kontentdan faol kontentga o'tish uchun o'qituvchi, mutaxassis va talabalarning kuchlarini, ya'ni ta'lim faoliyatini birlashtirishdir.

O'quv jarayonida SMART texnologiyani tadbiq etishning o'qituvchilar va talabalar uchun afzalliklari tomonlari quyidagilardan iborat:

- O'quv materialini taqdim etishda innovatsion yondashuv;
- Talabalar bilan tezkor qaytar aloqa;
- Birlashgan real va vertual olamni shakllantirish;
- O'quv jarayonini oson boshqarish;
- Multimediyaning maksimal xilma-xilligi;
- Umumiy axborot ta'lim muhiti;
- Axborot oluvchi manbalar sonining ko'pligi;
- O'quv jarayonini oson boshqarish;
- Talabalarning ehtiyoji va darajasiga qarab layoqatini tez va oddiy holda aniqlash;
- Bir qancha o`quv yurtlari bilan hamkorlik aloqalarini o`rnatish va axborot almashish uchun tarmoq yaratish imkoniyati;
- Ta`lim berishning jadalligi va sifatining oshishi bilan tezkor qaytar aloqa;
- Ijodkorlikning taraqqiyoti va mustaqil amalga oshirish imkoniyatlari;
- Joylashgan hududi va vaqtiga bog`liq bo`lmagan sharoitlarda zarur axborotlarni olish imkoniyati;
- Har qanday vaziyatda tayyorgarlik uchun o`rganishni boshlashga izm berish imkoniyati.

SMART-ta`limni amalga oshirish uchun, birinchi navbatda, har qanday joyda,istalgan vaqtda foydalanishni ta`minlash uchun maksimal mobillik ta`minlaydigan yuqori tezlikdagi Internet, pedagoglarning yetuk darajada texnologik kompetensiyaga ega bo`lishi, o`quv jarayonini avtomatlashtirish va zamonaviy holda texnologiyalashtirish zarur...

Hozirgi davrda ta`lim samaradorligini oshirish, pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga yo`naltirish, mutaxassislarning kasbiy kompotentlik darajasini rivojlantirish, oliy ta`lim muassasalarida o`quv jarayoniga innovatsion ta`lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, ilg`or xorijiy tajribalarni o`zlashtirish va maqsadli yo`naltirish oliy ta`lim tizimidagi dolzarb vazifalar sifatida qarash mumkin.

Foydalangan adabiyotlar

1. Babayeva D.R "Nutq o`stirish nazariyasi va metodikasi" Toshkent 2018
2. М.Қ.Бапаева. Даму психологиясы. – Алматы, 2014.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizniqat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.:O'zbekiston,2017. – 146 b.
4. С.Н.Цейтлин. Язык и ребенок: Лингвистика детской речи. – Москва, 2000.

MASALLARNING BOLALAR HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Jamilova Norjon Abduxoliq qizi
O`zbekiston-Finlandiya Pedagogika Instituti Pedagogika fakulteti Boshlang`ich ta`limy yo`nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola bolalar hayotida masallarning o'rni va ahamiyati haqida.Masal bu insonni aqliy va ruhiy rivojlantiruvchi,yaxshini yomondan ajrata bilishni o'rgatuvchi vositadir.

Abstract. This article is about the role and importance of parables in children's lives. A parable is a tool that develops a person intellectually and spiritually, and teaches him to distinguish between good and bad.

Аннотация. Эта статья о роли и значении притч в жизни детей. Притча – это инструмент, который развивает человека интеллектуально и духовно, учит его отличать хорошее от плохого.

Kalit so'zlar: bolalar adabiyoti,jahon adabiyoti,ertak, janr,masal.

Key words: children's literature, world literature, fairy tale, genre, parable.

Ключевые слова: детская литература, мировая литература, сказка, жанр, притча.

Masal-didaktik adabiyot janri.Masallarda insonga xos xususiyatlar ,jamiyatga xos ijtimoiy hodisalar ,munosabatlar;qushlar va hayvonlar orasidagi munosabatlar va tabiat hodisalari vositasida aks ettiriladi.Ertaklar bolalarni ezgulikka,yaxshilikka o'rgatgani kabi,masallar ham yaxshilikka,yaxshini yomondan ajrata bilishga ,hayvonlar va qushlar timsoli orqali odamlarning xulq- atvorini ,xatti-harakatini ,dunyoda qanday turdagi odamlar borligini ,ularni farqlay olish kerakligini o'rgatadi.Bolalar va o'smirlar uchun yaratilgan masallar tarbiyaviy ahamiyatga juda boy.Bu masallar majmui bolalar adabiyoti sanaladi .Bu masallarning asosiy qismini pand-nasihatga boy,egrilik va to'g'rilikni ajrata oluvchi voqealar tashkil qiladi.

Masallarning o'ziga xos xususiyati-bolalar hayotida soddadil,tetik ,mehribon,jasoratli bo'lib o'sishini ,bir qarashda yaxshi va yomon insonlarni farqlay olish qobilyatini shakllantirish,hayvonot olamiga mehr qo'yish ,uni ehtiyot qilish ,asrash,avaylash,do'st tutunish bolalikdan,oiladan boshlanishini va bir umr insonga hamroh bo'lib qolishini o'rgatish masallarning eng asosiy xususiyatlaridandir.

Masallarning yana bir xususiyati tarbiyaviy maqsadga yo'naltirilganligi.Bunda bolalarning qahramonga bo'lgan munosabati ham kelib chiqadi.U voqealarning qiziqarli ,tezkor,fantaziyaga boy ravishda yechilishini talab qiladi.Masallarning o'z an'anaviy obrazlar va motivlar doirasi mavjud bo'ladi (hayvonlar ,qushlar ,o'simliklar ,muayyan tizimdagi odamlar) Masal janri unsurlari qadimdan ma'lum.Uning namunalari `` Kalila va Dimna,, (Panchatantra 3-asr)tarkibida uchraydi.Masallar Farididdin Attor ,Rumiy,Alisher Navoiy asarlarida tamsil uchun ishlatilgan.Gulxaniy,,Zarbulmasal``asarida masaldan mohirlik bilan foydalangan.Rus adabiyotida D.Bedniy,S.Marshak,S.Mixalqov masalning ajoyib

namunalarini yaratdilar.Zamonaviy o'zbek adabiyotida S.Abduqahhor ,O.Qo'chqorbekov ,Ya.Qurbonov va boshqalar masal janrini rivojlantirdilar.

Asrlar osha xuddi ertak kabi eldan-elga,tildan-tilga o'tib ,dillarni yashnatib yurgan Hamza Hakimzoda Niyoziyning ``Toshbaqa bilan Chayon,, masalining syujeti xalq og'zaki ijodida mashhur.Gulxaniy bu masal mazmunini nasriy yo'l bilan bergan bo'lsa ,Hamza unga qayta sayqal berib ,nazmda bayon etgan.Hamza masalda do'stlikni ulug'laydi ,firibgarlik,tilyog'lamalikni esa qattiq qoralaydi.Toshbaqa orqali rahmdil,chin do'st obrazini yaratadi.Chayon obrazida esa yaxshilikka yomonlik qaytaruvchi til yog'lama ,o'z so'zida turmaydigan kishilar fosh etiladi. Shoir bolalarni tanlab ,bilib do'st bo'lishga ,yomon niyatli kishilar bilan hamroh bo'lmaslikka chaqiradi,kimda-kim yaxshillikka yomonlik bilan javob qaytarsa ,uning boshiga kulfat tushishi turgan gapligini uqtiradi.

XX asrda yashab ijod etgan o'zbek masalchilari Abdulla Avloniy,Hamza Hakimzoda Niyoziy ,Yamin Qurbon ,Sami Abduqahhor ,Muxtor Xudoyqulov masallarida ham tarbiyaviy jihatlar juda ko'p.,,Echki va podachi`` , ,,Baqa va buqa`` , ,,Qafasdagi qush va ko'rshapalak `` , ,,Ko'rshapalaklar ,qushlar va yirtqichlar`` , ,,Tovuq bilan tulki`` , ,,Sichqonlar kengashi``, kabi masallar ham bolalar hayotida muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida tilga olingan masallar yosh kitobxonni nimagadir o'rgatadi ,nimagadir da'vat etadi.Bu masallarning ko'pchiligida Ona Vatanga muhabbat ,uning ozodligi va baxti uchun jon fido qilish ,do'st tanlashda adashmaslik ,yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytarish kabi g'oyalar yotadi.

Maktab darsliklarida keltirilgan Ezop,Hamza Hakimzoda Niyoziy ,Abdulla Avloniy ,Gulxaniy kabi bir qator jahon va o'zbek adabiyoti yozuvchilari masallarini o'quvchilar sevib mutolaa qiladilar.Ushbu yozuvchilarning masallari bolalarga har tomonlama ta'lim berishga qodir bo'lgan noyob asarlar desak yanglishmagan bo'lamiz .Jahon masalchilarining ham ,o'zbek masalchilarining ham yaratgan masallari beqiyosdir.Chunki jahon va o'zbek adabiyoti bolalarning fikrlashini rivojlantiradi,ularni har tomonlama rivojlanishlariga turtki va omil bo'ladi.Masalan Ezop yoki bo'lmasa Abdulla Avloniyning qaysi masalini olmang hammasida ham ,eng avvalo ,mehnatkashlik ,do'stlik ,yaxshilik va ezgulik g'oyasi yotadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Mamasoli Jumaboyev "Bolalar adabiyoti va folklor" Toshkent 2006
2. Suyumov A "Kichkintoylar adabiyoti" Toshkent 1962
3. Jahongirov F "O`zbek bolalar folklori" Toshkent 1975
4. Safarov O "O`zbek bolalar poetik folklori" Toshkent 1985

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA SAHNALASHTIRISH O'YIN FAOLIYATINING ASOSIY MAQSADI

Abdullayeva Feruza Uchqun qizi
TDPU Maktabgacha talim yo'nalishi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha kattayoshdagi bolalarda sahnalashtirish faoliyatining maqsadi va katta guruh tarbiyalanuvchilarida ijodiy qobilyatlarini rivojlantirish vazifalari xususidagi fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar: sahnalashtirish faoliyati, ijodiy qobiliyat, faollik, erkinlik, kommunikativ malaka.

Аннотация. В данной статье представлены представления о цели постановочной деятельности у дошкольников и задачах развития творческих способностей у учащихся большой группы.

Ключевые слова: постановочная деятельность, творческая способность, активность, свобода, коммуникативная компетентность.

Abstract. This article presents ideas about the purpose of staging activities in preschool children and the tasks of developing creative abilities in large group students.

Key words: staging activity, creative ability, activity, freedom, communicative competence.

"Teatr san'atiga tarbiyaning ilg'or vositasi sifatida qarash insonni kashf etishga yo'l ochadi. Insonni kashf etish esa shaxsni kashf etishdir. Aynan badiiy ijodiy faoliyatda bola o'zini to'laroq namoyon eta oladi"

L.M.Batkin.

Kirish. Har bir insonning bolaligi rolli o'yinlar asosida o'tadi, sahnalashtirish faoliyati bolada kattalarning hayotiy qonun-qoidalarni anglashni o'rgatadi. Har bir bola o'zi bilganicha o'ynaydi, lekin bu o'yinlar asosan kattalar, sevimli qahramonlardan o'rganib yoki ularga taqlid qilgan holda amalga oshiriladi. Bolalar o'yinlariga improvizatsiya jarayonlar juda tez kichadi. Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichi katta maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish bo'yicha yangi vazifalarni qo'ymoqda, ular bugungi kunda maktabgacha ta'limning davlat ta'lim standartlarida aniq belgilab qo'yilgan. Katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolaning kommunikativ malakalarini shakllantirish muammosiga katta ahamiyat beriladi, uni hal qilishda bolaning rivojlanishidagi markaziy bo'g'in sifatida nutqning kommunikativ funksiyalarini shakllantirish yetakchi rol o'ynaydi.

Asosiy qism. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida katta guruh bolalari sahna tomoshalarini
yaxshi ko'radi. Bu yoshdagi bolalar sahnada rol ham ijro eta boshlaydi. Bu yosh guruhdagi bolalar uchun sahna asarlarini tanlashda mazmunli, ibratli, chiroyli, voqealari ham kichik, o'rta guruhlardagiga qaraganda birmuncha kengroq va ko'p obrazli asarlar tanlanadi. Katta guruhlardagi bolalarnining ko'pchiligi

mustaqil fikrini bayon etaoladigan bo‘lishadi. Ularning ayrimlarida rejissyorlik qobiliyatlari namoyon bo‘ladi. Katta guruh tarbiyalanuvchilarida ijodiy fikrlash, ledirlik qobiliyatlari shakllana boshlaydi. Katta guruh tarbiyalanuvchilariga bir necha adabiy asardan tashkil topgan improvizatsiya o‘yinlari, mustaqil ko‘rinishlar qo‘yish imkoniyati yaratiladi.

Asosiy vazifalari:

➢ Bolalarda teatrlashtirilgan o‘yin faoliyatiga kuchli qiziqish uyg‘otish davom ettiriladi.

➢ Bolalarda badiiy ijro etish ko‘nikmalarini shakllantirishda qo‘shiq, raqs improvizatsiyalaridan foydalangan holda mukammallashtirish.

➢ Atrofdagi munosabatlarga nisbatan bolalarning tushunchalarini kengaytirish.

Guruhda, zalda, maktabgacha ta’lim muassasasi binosiga moslashish ko‘nikmalarini mukammallashtirish.

➢ Bolalarda qo‘g‘irchoq teatrlarining turlarini ajrata olish va aytib bera olish ko‘nikmalarini mustahkamlash.

➢ Bolalarning lug‘at boyligini shakllantirishda davom etish. Nutqning intonatsion ifodaliligini mukammallashtirish. Monologik va diologik nutq shakllarini rivojlantirish.

➢ Qo‘g‘irchoqlar bilan to‘g‘ri muloqotga kirishish, ya’ni to‘g‘ri yo‘naltirish qoidalarini mustahkamlash.

➢ Bolalarni yakka tartibda yoki guruh bilan birga turli hikoya va ertaklar to‘qish va shu asosida improvizatsiyalashgan qo‘g‘irchoq tomoshalarini tashkil etishga ilhomlantirish.

➢ Bolalarda ong, fikr, tasavvur, diqqatni rivojlantirish.

➢ Tomosha qo‘g‘irchoqlari bilan o‘ynash istagini tarbiyalash. Mustaqil faoliyatda qo‘shiq, raqs, o‘yin improvizatsiyalaridan foydalanish qobiliyatlarini rivojlantirish.

➢ Bolalarning maktabgacha ta’lim tashkiloti bayramlarida, ko‘ngil ochar tadbirlarida mashg‘ulotlar va mustaqil faoliyat jarayonida olgan o‘z bilim va ko‘nikmalaridan foydalangan holda faol ishtirok etish ko‘nikmalarini qo‘llab quvvatlash.

Xulosa. Katta maktabgacha yoshni sotsializatsiya va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishning muhim bosqichi sifatida belgilaydigan mahalliy olimlar, muvaffaqiyatli faoliyatning kaliti, bolaning kelajakdagi hayotining samaradorligi va farovonligi uchun manba bu kommunikativ kompetentsiyadir deb fikr bildiradilar. Kommunikativ kompetentsiya, shaxsning eng muhim xususiyatlaridan biri sifatida, shaxsning og'zaki muloqot qilish qobiliyati va tinglash qobiliyatida namoyon bo'ladi. Til hodisalariga alohida sezgirlik, nutq tajribasini tushunishga qiziqish va muloqot tufayli muloqot qobiliyatlarini o'zlashtirish uchun juda qulay bo'lgan davr ham aynan katta maktabgacha yosh

davridir. Shaxsning kommunikativligini ta'minlaydigan majburiy ko'nikmalar sifatida maktabgacha ta’lim tashkiloti katta yosh guruhlari bolalari suhbatdoshni tinglash va eshitish, o'z pozitsiyasini asoslash qobiliyatini shakllantirish vazifalari qo'yiladi. Maktabgcha ta’lim tashkilotlarida teatrlashtirilgan o'yinlar bola ijodiy faoliyati, aql-zakovat, fikrlash, gapirish qobiliyatini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Sotimboy Tursunboyev Teatr tarixi o‘quv qo‘llanma, “Bilim”, –T.: 2005.
2. Namangan davlat universiteti Ijtimoiy-madaniy faoliyat yo‘nalishi talabalari uchun “Teatr tarixi” fanidan ma’ruzalar matni Namangan. 2014.
3. B.S.Abdullayeva, Sh.M.O‘tamurodova bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o’rgatish. O’quv qo’llanma. Navoiy – 2022.

OTMDA SIFATGA QARATILGAN KADRLAR TAYYORLASH MEXANIZMLARI

N.O.Musaev
ORIENTAL UNIVERSITET
"Ta'lim menejmenti" yo'nalishi magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada, OTMda sifatga qaratilgan kadrlar tayyorlashning hozirgi holatidagi kamchiliklari qayd etiladi. Ularni bartaraf etishga mo'ljallangan va biz taklif etayotgan yangi mexanizm sifatida o'quv jarayonidagi bosqichlar aro quyidan yuqori tamon majburiy qisqarib borishni ta'minlovchi halol konkurs raqobat mexanizmini o'rnatish nazarda tutiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich nuqta, OTM, ratsional tizim, dolzarb muammo, raqobatli bozor sharoiti, yangi muhit, islohot bosqichi, amaliyot.

Ключевые слова: отправная точка, ВУЗ, рациональная система, актуальная проблема, конкурентная рыночная конъюнктура, новая среда, этап реформ, практика.

Key words: starting point, university, rational system, current problem, competitive market conditions, new environment, stage of reforms, practice.

Yangi O'zbekistonning kelajagi bugundan boshlanadi. Buxorolik bobokalon buyuk mutasavvif shayx hazrat Xoja Muhammad Orif ar-Revgariy (vaf.1259m.y) janoblari aytganlaridek, har bir ishga kirishishdan avval, uning ilmini yaxshi bilmoq kerak, so'ngra bilgan ilmga amal qilmoq kerak va bu amalni ixlos va mahabbat bilan bajarmoq kerak. Har qanday taraqqiyot uchun bu fikr boshlang'ich nuqta va asos hamdir. Ilmiy asosdan boshqaga tayangan har qanday harakat besamar tugashi muqarrar. Shuning uchun vatanimiz kelajagini ilmiy asosga yo'naltirgan rahbariyatimiz ichki siyosatini har qancha olqishlasak, oz. Demak, taraqqiyotimiz poydevori bo'lgan tarbiya va ta'limga darz yetmasligi uchun, avvalo, tarbiyani yot g'oyalardan poklagach, ta'limni asl fundamental bilmlar va eng ratsional tizim asosiga qurmoq lozim bo'ladi.

"...vrach emas, glavvrach bo'laman!...", "...ho'kiz emas, bu – diplom, ho'kiz poytaxtda o'qiyapti..." kabi "hazil, ha...zil"larda ifodalangan hamda kirim[2] ni deb, krizisga yo'liqqan o'tish davri ta'lim tizimi kelajagimiz uchun mutlaqo yaroqsiz, uni endilikda tamomila yangi asosga qurmoq lozim. Bugungi kun ta'lim menejamenti oldidagi **dolzarb muammo** mana shunda.

Korruptsiyani vujudga keltiruvchi monopoliyalardan xoli bo'lgan, halol raqobatli bozor sharoitida o'zining munosib o'rnini va bahosini topuvchi zarur ko'nikma va yetarli mahorat sifatlariga ega bo'lgan mutaxasislarni tayyorlash bugungi kun ta'lim menejementining **asosiy vazifasi**dir. Ushbu vazifani bajarish uchun, avvalo, mavjud holat va vaziyatda oxirgi 10 yillikda Respublikamiz yetakchi OTM hisobotlarini sidqdildan o'rganish, faktlarni boricha, ro'y rost tahlildan o'tkazish lozim bo'ladi.

[2] superkontraktlar

Taxminlarga ko‘ra, talabalikka qabul qilingan bakalavrlarning aksar qismi (97/98) foyizi 4 yildan so‘ng bitirib, bakalavr diplomini hayotga yo‘llanma sifatida qabul qilib olishgan. Bitira olmaganlarining sababi fanlarni o‘zlashtira olmagani emas, balki boshqa turli sabablarga taalluqlidir. Ya'ni o‘qishga kirganlarning barchasi deyarli bitirib chiqqan, desa bo‘ladi. Bu nima degani?! Bu shu deganiki, maktabdagi har qanday “2chi” ni super kontrakt orqali talabalar safiga qo‘shsang, undan muayyan muddat o‘tgach, diplomli mutaxasisga ega bo‘lasan. Bunday sharoitda astoydil (az tahti dil), ya'ni dilining tub-tubidan o‘qimoqchi bo‘lib kelgan o‘smir ham o‘qimaslikka o‘tadi. Ya'ni muhit[3] o‘z hukmini o‘tkazadi. Demak, yangi muhit yaratilishi lozim. Bu muhit qanday bo‘ladi? Javobni menejementdan kutamiz. Endilikdagi zarur muhit mavjud tizim asosida bosqichma bosqich, tadrijiy ravishda planli reja asosida tuzilgan (reforma) islohotlar orqali amalga oshadi. Masalan, REFORMA – ISLOHOTLAR quyidagicha bo‘lishi mumkin:

Islohotning 1chi bosqichi. **Variant** “**A**”. Bu OTM reytingini va bakalavr kadrlarning malakaviy sifatini oshiruvchi mexanizmlardan birini joriy etishdir. U guruhdagi talabalar kvotasining semestrlar aro qisqarib borishini nazarda tutadi. Ya'ni, “Qancha talaba kirsa, shuncha talabaning hammasi 4 yildan so‘ng bitiradi”, deyilgan fikrdan voz kechiladi. Uning o‘rniga 4 yildan so‘ng 100 talabadan qanchasi bitira oladi degan tushuncha to‘g‘risida fikr yuritish o‘rinli bo‘ladi. Masalan, 100 talaba 20 tadan 5 guruh bo‘lsa, va har bir guruhdagi 20 talabadan 4 yillik o‘qish davomidagi 8 semestrning har bir imtihonida 1 talabadan, jami 8 talaba tushirib qoldirilsa, har bir guruhdan 12 talabagina mutaxasis bo‘lib chiqishi mumkin bo‘ladi. 5 guruhga 4 yil oldin qabul qilingan 100 ta talabadan endi faqat 60 tasigina bitirib diplomga ega bo‘ladi. Bitiruvchilarning soni 60 tadan kam bo‘lishi mumkin, lekin 60 tadan ortmasligi lozim. Barcha imtihonlardan o‘ta olmaganlar keyingi yil imtihonida qayta imtihon – konkursdan o‘tishlari mumkin bo‘ladi.

Muayyan bosqichda tahsil olib, keyingi bosqichga o‘ta olmagan talabaga keyingi (yilgi yoki keyingi oydagi uyushtirilajak) imtihonlarda qatnashish huquqini beruvchi sertifikat beriladi. Bunday sertifikatli talabalar keyingi yil yoki, to‘g‘rirog‘i, keyingi davrada imtihon topshiruvchi guruhdagilarga qo‘shimcha raqobatchilarni tashkil qiladiki, raqobatchilar soni tobora ortib, borgan sari ushbu OTMda keyingi bosqichga o‘tish qiyinlashib boradi.

OTM reytingini va bakalavr kadrlarning malakaviy sifatini oshiruvchi mexanizmlardan biri Guruhdagi talabalar kvotasining semestrlar aro qisqarib borishi raqamlarda quyidagicha ifodalanishi mumkin:

8 semestrga qabul kvotasi 13ta, bitirib diplom olishi mumkin 12ta
7 semestrga qabul kvotasi 14ta, keyingi semestrga o‘tishi mumkin 13ta
6 semestrga qabul kvotasi 15ta, keyingi semestrga o‘tishi mumkin 14ta
5 semestrga qabul kvotasi 16ta, keyingi semestrga o‘tishi mumkin 15ta
4 semestrga qabul kvotasi 17ta, keyingi semestrga o‘tishi mumkin 16ta

[3] Falastindagi “O‘lik dengiz”ga tushgan har bir jonvor muhit ta'sirida tuzga aylanar ekan.

3 semestrga qabul kvotasi 18ta, keyingi semestrga o‘tishi mumkin 17ta
2 semestrga qabul kvotasi 19ta, keyingi semestrga o‘tishi mumkin 18ta
1 semestrga qabul kvotasi 20ta, keyingi semestrga o‘tishi mumkin 19ta

Bu usulda o‘qitishni bitta guruhda tashkil qilib ko‘rish bir semestrdayoq o‘z natijasini beradi, deb umid qilamiz.

Muayyan fan Dasturidagi har bir qism, ya'ni darslikda “Blok” yoki “Dars” deb ataluvchi har bir bo‘lak bo‘yicha olib borilajak oxirgi mashg‘ulotda o‘rganilgan shu qism bo‘yicha sinov yoki imtihoncha o‘tkaziladi. Bir semestr 18 hafta bo‘lgach, juft haftalardagi oxirgi mashg‘ulot keyingi mavzuga o‘tish uchun “ruxsat[4] ” imtihonchasidir. “ruxsat” Mavzuning barcha mashqlarini bajargan talabagagina beriladi.

Keyingi semestrga o‘tish imtihonlariga barcha (9) mavzuning har birini to‘la o‘zlashtirgani haqida fan o‘qituvchisi tomonidan “ruxsat” belgisi qo‘yilgan kartali talabagina qo‘yilishi mumkin. Imtihonlar har bir mavzu bo‘yicha kamida 3 tadan (jami 27 ta) yozma savolga talaba ekspromt og‘zaki javob aytishi lozim. Javoblardan birontasining noto‘g‘ri bo‘lishi keyingi mavzuga ruxsat bermaganidek, keyingi semestr uchun ham monelik qiladi.

Variant “B”. 8 semestrning har bir bosqichiga mo‘ljallangan har bir fanning muayyan Dasturi bo‘lib, uning bloklari bo‘yicha tuzilib OTM portaliga joylashtirilgan “onlayn video” ma'ruza darslarini talabgor istagan mahalda, xohlagan joyda, istagancha, tushungun qadar tinglashi, ko‘rishi mumkin bo‘ladi. Ma'ruzalar so‘ngiga ilova qilingan har bir mashqni bajarish talaba uchun majburiydir. Ularni kim qancha vaqtda bajarsa, o‘zi biladi. Har haftaning muayyan kunida doimiy uyushtirilib turuvchi imtihonlarda talaba fanning shu qismini bilgani va keyingi dars yoki bloki uchun “ruxsat” oladi. Shu tariqa talaba shu fanni 1 yoki 2 yildayoq bitirishi yoxud 10 yilda ham bitira olmasligi mumkin bo‘ladi.

Islohotning 2chi bosqichi. Islohotning 2chi bosqichida endi OTMni yoki uning istalgan bosqichini bitiruvchilar sonini cheklovchi kvotalar bo‘lmaydi. OTMning barcha bosqichlari eshiklari talabalar va barcha talabgorlar uchun ochiq bo‘ladi. Muayyan fanning OTMda qabul qilingan Dasturi bo‘yicha o‘z uyida vaqt topib, “onlayn” darslarni tinglab, tayyorlanib o‘zlashtirgan, o‘z bilimiga ishonch hosil qilgan talabgor ham endi OTMlarda DTM kabi har bir fan bo‘yicha tashkil etilgan va doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi imtihon komissiyalariga ariza berib, o‘zidan qaysi fanning qaysi bandi bo‘yicha imtihon olishlarini so‘raydi va o‘tsa, o‘sha fanning o‘sha bandini bilishi haqida munosib (sertifikat) guvohnomasini oladi. Mazkur fan bo‘yicha yetarli miqdordagi guvnomalarni yiqqan talabaga shu “fanning muayyan bosqichini biladi” degan guvohnoma beriladi. OTM rejasiga ko‘ra zarur deb hisoblangan fanlar majmuasi bo‘yicha guvohnomalarni qo‘lga kiritib ulgurgan talabgorga “diplom” beriladi. Bu diplomning bahosi ishlab

[4] Bilmagan talabaga “bildi” deb keyingi bosqich imtihonlarida qatnashish uchun talabaga “ruxsat” bergan ustoz - muallim bilan alohida hisob kitob qilinadi.

chiqarishda amalda bilinadi. OTM reytingi va kadrlarining qadrini oxir oqibatda amaliyot aniqlaydi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, o‘qish bu o‘q ishdir. O‘qish dargohi saylgoh emas. O‘qish mashaqqatlar maydonidir. O‘qish sinovlar maydonidir. O‘qishni bitirib chiqish faqat uning mashaqqatlarini yenga olganlar, yiqilmaganlarning nasibi bo‘lmog‘i kerak.

ONA TILI DARSLARIDA "KELISHIKLAR" MAVZUSINI O'QITISHDA GRAFIK ORGANAYZERLARDAN FOYDALANISH

Xujabekoba Zarnigor Asomutdinovna
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya. Bugungi kunda dars jarayonida ilg'or pedagofik texnologiyalardan foydalanib, samarali natijalarga erishish maqsad qilingan. Darsning texnik vositalar, metodlar va ko'rgazmalar bilan tashkil etilishi o'quvchida mavzu yuzasidan mustahkam bilimga ega bo'lish, mustaqil fikrini bayon eta olish ko'nikmalarini shakllantiradi. Maqolada kelishiklar va ularni o'quvchilarga tushuntirishda foydalanish mumkin bo'lgan ilg'or metodlar va grafik organayzerlar tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: kelishiklar, turlanish, ta'lim texnologiyasi, metod, grafik organayzer.

Abstract. Today the teaching process is aimed at achieving effective results using advanced pedagogical technologies. The organization of the lesson with technical means, methods and exhibitions develops in the student a solid knowledge of the topic, the ability to express independent opinions. The article suggests advanced techniques and graphic organizers that can be used to explain the agreements and them to the readers.

Keywords: agreements, variations, variables, learning technology, method, graphic organizer

Hozirgi kunda maktab o'quvchilariga ona tili fanidan ta'lim berishda zamonaviy, ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish dolzarb maslala hisoblanadi. Eski an'anaviy metodlardan biroz chekinib, yangi interfaol usullar yordamida o'qitish o'quvchilarning mavzuni chuqurroq o'rganishiga yordam beradi. Chunki, ta'limda zamonaviy, turli yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanilgan darslar ta'lim jarayonining sifatliligini ta'minlaydi, o'quvchilarning mavzuni oson o'zlashtirishiga, kreativ fikrlashga undaydi. Shuningdek, fan o'qituvchisining bir vaqtning o'zida bir nechta o'quvchilarni baholashga ulgurishida muhim ahamiyat kasb etadi va o'quvchilarning fanga qiziqishini tobora ortiradi. Zero, bugungi taraqqiyot har bir o'qituvchidan o'ziga xos ijodkorlikni, malaka va tajribani taqozo etmoqda. Bu, o'z navbatida, o'qituvchilar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. XXI asr muallimi yuksak taraqqiy etib borayotgan fan-texnika yutuqlariga har doim hozirjavob bo'lishi, ulardan o'z darslarida samarali foydalana olish kerak. Pedagogik texnologiyalardan foydalanilgan darslar o'quvchilarda o'z fikrlarini tanqidiy va tahliliy bayon eta olish imkonini beradi.

Yuqorida qayd etilgan fikrlarni ona tili darslarida kelishik kategoriyasini o'qitishda grafik organayzerlardan foydalanish samaradorligini quyidagi tadqiqotimizda yoritishga harakat qildik.

Kelishik – ot yoki otlashgan so'zning boshqa so'zlar bilan aloqasini ko'rsatuvchi grammatik shakl. Otlarning kelishik qo'shimchalarini olib o'zgarishi turlanish deyiladi. Shu boisdan kelishik qo'shimchalari turlovchi qo'shimchalardir.

Kelishikli so‘zning gapda biror gap bo‘lagi vazifasida kelishi qaysi kelishik shaklida qo‘llanishi bilan bog’liq. Kelishiklar miqdori turli tilda turlicha. O‘zbek tilida 6 ta kelishik bo‘lib, ular bosh (shaklsiz), qaratqich (-ning), tushum (-ni), jo‘nalish (-ga,-ka,-qa), o‘rin-payt (-da), chiqish (-dan) kelishiklaridan iborat. Shuningdek, 2017 yil nashr qilingan 7-sinf ona tili darsligida “Ot, olmosh va otlashgan so‘zlarga qo‘shilib, ularni boshqa so‘zlarga bog‘lash uchun xizmat qiluvchi grammatik shakllar tizimi kelishik shakllari sanaladi. Kelishik shakllari doimo tobe so‘zga qo‘shiladi. O‘zbek tilida oltita kelishik mavjud bo‘lib, ularning har qaysisining o‘z nomi va shakli bor.” [3.54] qoidasi berilgan. Shu qoidalar asosida darslarda kelishiklarni o‘quvchilarga quyidagicha taqdim etsak, mavzuning yanada tushunarliroq bo‘lishini ta’minlaydi.

Kelishik shakllari

Kelishiklar	So‘roqlari	Qo‘shimchalari
Bosh kelishik	Kim? Nima?	
Qaratqich kelishigi	Kimning? Nimaning?	-ning
Tushum kelishigi	Kimni? Nimani?	-ni
Jo‘nalish kelishigi	Kimga? Nimaga?	-ga, -ka, -qa
O‘rin-payt kelishigi	Kimda? Nimada?	-da
Chiqish kelishigi	Kimdan? Nimadan?	-dan

Biz quyida ushbu mavzuni o‘qitishda qo‘l keladigan grafik organayzerlarning bir nechtasini ko‘rib o‘tamiz.

Organayzer inglizcha “tashkil etuvchi, grafik tashkil etuvchi” ma’nosini bildiradi. Grafik tashkil etuvchi – fikriy jarayonlarni ko‘rgazmali taqdim etish vositasi. Grafik tashkil etuvchilarga “Isert” , “Klaster”, “Konseptual jadval”, “Toifalash jadval”, “BBB”, “T-jadvali”, “Venn diagrammasi”, “SWOT-tahlil jadvali”, sxema va diagrammalar: “Nima uchun?”, “Qanday?”, “Baliq skeleti” kabilar kiradi.

Insert jadvali. “Insert” so‘zi inglizcha joylashtirmoq, belgi qo‘ymoq ma’nosini beradi. Ushbu metoddan kelishiklarni o‘qitishda quyidagicha foydalanish mumkin.

V	+	–	?
O‘zbek tilida kelishiklar soni 6 ta ekanligi	Aksariyat kelishik shakllari belgili va belgisiz qo‘llana olishi	Jo‘nalish kelishigi belgisiz qo‘llanishi	Kelishiklar soni 6 tadan ko‘p yoki kam bo‘lishi mumkinligi

“Konseptual jadval” asosida yoritilishi

Kelishiklar	Qo‘shimchasi	Kelishikdagi so‘z so‘roqlari	Qo‘llanilishi
Bosh kelishik	-	Kim? Nima? Qayer?	
Qaratqich kelishigi	-ning	Kimning? Nimaning? Qayerning?	
Tushum kelishigi	-ni	Kimni? Nimani? Qayerni?	
Jo‘nalish kelishigi	-ga	Kimga? Nimaga? Qayerga?	

O'rin-payt kelishigi	-da	Kimda? Nimada? Qayerda?	
Chiqish kelishigi	-dan	Kimdan? Nimadan? Qayerdan?	

O'quvchilar kelishik shakllari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lgach, "Konseptual jadval"ni yuqorida ko'rsatilgan shaklda qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Natija: o'quvchilarning mavzu yuzasidan mantiqiy fikrlashi, ma'lumotlarni tizimli bayon qilish qobilyatlari rivojlantiriladi.

"Lisoniy qolip" metodi

So'zlar	-ning	-ni	-ga	-da	-dan	Bog'langan so'zlar
Men	+					kitobim
Osmon			+			qaradi
She'r		+				yod oldi
Yo'l					+	o'tdi
Maktabda				+		ishlaydi
Kuz	+					ziynati
Telefon				+		gaplashdi

O'quvchilar birinchi ustunda berilgan so'zlarni o'zi bog'langan so'z (7-ustun) bilan birgalikda talaffuz etadi. Va bu jarayonda qaysi kelishik qo'shimchasidan foydalanish mumkiligini "+" belgisi orqali belgilaydi. Natija: Oquvchilarni mantiqiy fikrlashga undaydi, topqirlik, savodxonlik kabi qobilyatlarini rivojlantiradi.

Demak, ta'lim har doim takomil va yangilanishga mushtoqdir. Shunga muvofiq mumkin qadar ta'limning yangi usullarida izlanish talab etiladi. Chunki o'quvchilarga ham bir xil qolipdagi darslar yoqmaydi, ularni zeriktiradi. Natijada o'quvchi darsni yaxshi o'zlashtira olmaydi. Har bir usuldagi darslar ikki-uch marta o'tilganda o'zini oqlaydi. Me'yoridan oshmasligi, o'quvchilarni zeriktirmaslik uchun usullarning turlicha bo'lishi darsning samaradorligini yanada oshiradi. Kelishiklar mavzusini boshqa interfaol usullar yordamida ham olib borsa bo'ladi, bu haqida keying tadqiqotlarimizda yoritishga harakat qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shofqorov, A.M. O'zbek tili darslarida interfaol usullarning ahamiyati. (2020)*Science and Edukation, 1(Spekial Issue 2).*
2. Nurmonov A. va boshqalar. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya. Toshkent, 2001-yil.
3. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. To'ldirilgan va qayta ishlangan 4-nashri. TOSHKENT «MA'NAVIYAT» 2017. 54 b.

INGLIZZABON TARIXIY-ADABIY ASARLARDA BOBUR MIRZO TALQINI

Sahodillayeva Sadoqat A'zimboy qizi
Namangan Davlat Universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Inglizzabon tarixiy-adabiy asarlarda buyuk bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Bobur haqida yaratilgan asarlarda ma`lumotlar keltirib o`tiladi va ularni qisqacha tadqiq etilgan.

Kalit so`zlar: tarixiy-adabiy asar, Bobur Mirzo, inglizzabon adabiyot, muallif fikri, tarixiy haqiqat, badiiy talqin, talqin, tasvir.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng Bobur va Boburiylar tarixi–madaniyatini o'rganish bo'yicha O'zbekistonda ko'plab ishlar amalga oshirildi. Buyuk bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Bobur xaqida ko'plab tarixiy, tarixiy-adabiy va badiiy asarlar yaratildi. Uning xayot yo'li va ijodini o'rganish uchun xukumatimiz tomonidan ko'plab xayrli ishlar amalga oshirildi va Bobur nomidagi Xalqaro jamg'arma (1992 yil) ilmiy ekspeditsiyasi ham tashkil etildi. Ayniqsa, Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarini keng tadqiq qilish ishlari avj oldi. Bu borada S.Azimjonova, H.Sultonov, H.Boltaboev, N.Otajonov, M.Holbekov, Z.Mashrabov, A.Qayumov, A.Ibrohimov, Z.Teshaboeva. Z.Xolmanova, A.Tursunov va boshqa ko'plab olimlarimiz Bobur va uning asarlarini tarixiy va adabiy jihatdan tadqiq etganlar.[5]

Bobur va Boburiylar tarixi va madaniyatini o'rganish nafaqat yurtimiz olimlari va yozuvchilarini, balki xorijiy olimlarni, jumladan G'arbiy Yevropa olimlarini ham o'ziga jalb qilgan va ularda katta qiziqish uyg'otgan. Ma'lumotlarga ko'ra Bobur xaqida Yevropada ilk bor yaratilgan asar, bu frantsuz sayyohi va tabibi Frantsua Bernening "Boburiylar saltanatining so'nggi tarixi" nomli ilmiy-ma'rifiy asaridir. Bu asar 1680 yilda yaratilgan va o'sha davr siyosiy doiralarida yuqori baholangan va noyob manba hisoblangan.[6] Keyinroq G'arbliklar Bobur nomini 1697 yili frantsuz sharqshunos olimi Bartolame Erbalo Molenli orqali eshitdilar. U "Sharq kutubxonasi" qomusida o'zining "Bobur yoki Babar" nomli maqolasida Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur haqida ilk bor fransuz kitobxonlariga ma'lumot bergan edi. Keyinchalik 1705 yili Boburnomaning Farg'ona tasviri golland tilida Vitsen tomonidan bosilib chiqdi[7].

[5] G'aybulloh as-Salom, OtajonN. Jahongashta Boburnoma. – Toshkent: Fan, 1996; Boltaboev H. Xorijda Boburshunoslik. –T.: 2008, Mumtoz so'z qadri. – Toshkent: Adolat, 2004; Sultonov H. Boburiynoma. –Toshkent. SHarq 1997; Ibrohimov A. Boburnoma-buyuk asar. –Toshkent: 2000; Xolbekov M. Uzbeksko-frantsuzskie literaturnыe vzaimosvyazi (v aspekte perevoda, kritki i vospriyatiya). Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. – Tashkent, 1991; Xolmanova Z. «Boburnoma» leksikasi tadqiqi. Filol. fan. dok. ... diss. – Toshkent, 2009; Teshaboeva Z. «Boburnoma»ning inglizcha tarjimalaridagi frazeologik birliklar va ularning milliy-madaniy xususiyatlari. Fal.fan. filol. fan dok. ... diss. – Toshkent, 2017.

[6] Boltaboev H. Xorijda Boburshunoslik. –T.: 2008. - B 73.

[7] Ibrohimov A. Boburnoma-buyuk asar. –Toshkent: 2000. - B 13.

Xorijiy bobur shunoslikka nazar tashlaydigan bo'lsak, G'arbiy Yevropada Bobur va uning ijodini o'rganish asosan XIX asrdan boshlangan. Bu borada frantsuz va ingliz sharqshunoslarining xizmatlari beqiyos bo'ldi. Ingliz sharqshunos olimlari Jon Leyden va Uil'yam Erskinlarning uzoq yillik mexnatlari natijasida 1826 yili "Boburnoma" ingliz tilida nashr etildi. 1828 yilda mazkur inglizcha tarjimadan nemis olimi A.Kayzer asarni nemis tiliga qisqartirib tarjima qiladi va Leyptsigda nashr ettiradi. 1871 yilda esa taniqli frantsuz sharqshunos olimi Pave de Kurteyl tomonidan "Boburnoma" frantsuz tilida nashr ettirildi. Mazkur tarjimalardan so'ng Yevropada Bobur shaxsiga qiziqish ortib bordi va u haqida Yevropaning turli tillarida ko'plab asarlar yaratildi. Bu asarlar asosan Bobur va Boburiylarning Hindistonda o'rnatgan saltanati va u yerda amalga oshirgan ishlariga bag'ishlanadi. Xorijiy adabiyotlarda faqatgina Bobur shaxsi va uning amalga oshirgan ishlari emas, balki butun Boburiylarning xayoti va faoliyati yoritiladi. Bunga sabab Bobur Mirzoning Hndistonda atigi to'rt yilgina yashaganligidadir. Masalan, U.Erskinning "Temuriylar sulolasidan bo'lmish Bobur shoh va Humoyun davridagi Hindiston tarixi", F.Bernening "Boburiylar saltanatining so'nggi tarixi", L.Sharmaning "Mo'g'ullar saltanati" va shu kabi boshqa ko'plab asarlarda Bobur va boburiylarning Hindistonda olib borgan ishlari tasvirlanadi.

Bugungi kunda ham ko'plab inglizzabon olimlar va yozuvchilar Bobur va boburiy sulola vakillariga bag'ishlab ko'plab asarlar yaratmoqdalar va bunday ahamiyatga molik ishlar davom etmoqda. Hususan, shoir, yozuvchi va dramaturg Farzona Mun ham Bobur va boburiy hukmdorlar haqida bir qator asarlar yaratgan jahon adabiyotining yetakchi vakillaridandir.[8]

Farzona Mun kelib chiqishi Pokistonlik bo'lgan AQSh fuqorosi bo'lib, bugungi kunda u turmush o'rtog'i va qizi bilan AQShning Ogayo shtatida yashab ijod qilmoqda. U tarix, siyosat, falsafaga qiziqadi. Farzona Munning ko'plab asarlari AQSh, Kanada va Hindistonda chop qilingan. U Hindiston tarixiga oid bir qancha asarlar bitgan. Farzona Munning ilk asarlarida Hindistondagi oddiy xalqning hayoti, sharqona madaniyati aks ettirilgan. U Bobur va boburiy hukmdorlarga bag'ishlab bir nechta badiiy asarlar yaratgan, ya'ni XVI-XVIII asrlarda yashab o'tgan oltita podshoga bag'ishlab asarlar yozgan.

Farzona Mun o'z asarining so'z boshida: "Ushbu kitobim o'z ichiga Hindistonning boy tarixi, madaniyati va urf-odatlarini qamrab olgan. [9]" deb yozadi.

Farzona Munning asarlari quyidagilardir:

1. Babur, The First Moghul In India (Bobur Hindistondagi birinchi (mo`g`ul) hukmdor)

2. The Mogul Exile (Quvg'indagi (mo`g`ul) hukmdor)

3. Divine Akbar and Holy India (Ilohiy Akbar va muqaddas Hindiston)

4. The Mogul Hedonist (Jahongir)(Mo'g'il shohi-Jahongir)

[8] M.Qoraboyev. Bobur va boburiyzoda shaxzodalar xorijiy adiblar talqinida. Maqola. Namangan 2018.
[9] Moon Farzana. Babur the first moghul in India. Preface. Mehra Offset Press, Delhi. 1997.

5. Glorious Taj and Beloved Immortal (Shah Jahan) (Shonli toj va mangu muhabbat- (Shoh Jahon)

1. The Mogul Saint of Insanity (Oshiq avliyo hukmdor)

Farzona Munning birinchi kitobi "Babur, The First Moghul In India" Hindistondagi birinchi (mo`g`ul) hukmdor" *tarjima o'zimizniki*) deb nomlanib, u Z.M.Boburga bag'ishlangan bo'lib, unda Boburni ota tarafdan Temurning oltinchi avlodi hamda ona tomonidan Chingizxonning beshinchi avlodi ekanligini ta'kidlaydi. Ushbu asarda Boburning Qobuldagi va Hindistondagi hukmronligi, mashxur Kohinur haqida gapiradi. Shuningdek, asarda Bobur bog'lar, saroy, masjid va madrasalar bunyod ettirish bilan birga Agradan Qobulgacha katta yo'l qurish to'g'risida bergan farmoni haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.[10]

Bobur shoir bo'lganligi hamda u moddiy boylik uchun kurashadigan shoh emas, balki bilim boyligi uchun kurashuvchi shoh deb tasvirlaydi. Bobur o'zining shavkatliligi uchun "Yo'lbars" laqabini, hamda besh qirollik hazinasiga teng boyligini bechora va qambag'allarga bo'lib bergandan so'ng o'ziga Qalandarshoh taxallusini olganligini qayd etgan. Uning o'limi ham hayoti kabi mag'rur tarzda yakun topganligini tarixiy haqiqat asosida badiiy talqin ettirgan. Bundan tashqari, Bobur o'z hayotini sevimli farzandi Humoyun tirik qolishi uchun qurbon qilganligini, umrining ohirida Bobur o'g'li Humoyunga "Ukalaringa qarshi borma (g'amho'rlik qil) hatto ular bunga loyiq bo'lmasada" degan fikrni bildirganligini ishonarli tarzda aks ettiradi.[11]

Manbalardan bilamizki, Bobur qirq sakkiz yillik umrining o'ttiz olti yilini hukmronlikda o'tkazdi va yangi Hindistonda uch yuz yildan oshiq hukmronlik qilgan sulolaga asos soldi. Boburiylar tomonidan qoldirilgan asarlar bilan bir qatorda ular barpo qilib ketgan qurilish ishootlari bugungi kunda ham butun dunyoni lol etib kelmoqda.

Muallifning ikkinchi kitobi "The Mogul Exile" ("Quvg'indagi (mo`g`ul) hukmdor" *t.o'z.*) deb nomlanib, u Nasiriddin Muhammad Humoyunshohga bag'ishlangan. Ushbu tarixiy, biografik asar Agrada Humoyunning sotqin ukalari hamda Hindistondagi Afg'on boylari hoinligiga qarshi kurashi sahnasi bilan boshlanadi. Shuningdek, muallif o'z asarida Humoyun taxtini ukalarining sotqinligi va aldovi tufayli qo'ldan ketganligini tasvirlaydi. Bundan tashqari, asarda Humoyunning Hamidabonuga uylanishi, Akbarshohning tug'ilishi haqida ma'lumotlar keltiriladi. Asarda Akbar tug'ilib, so'ng Humoyun va uning yaqinlarining mamlakatdan qochishiga to'g'ri kelganligi, kichkina Akbarni Humoyunning ukasi Komron tomonidan qurol, yani garov sifatida olib qolinishi yoritib beriladi. Yana Humoyun o'z rafiqasi bilan Eronda Shoh Tahmosp saroyida panoh topishi, unga barcha

[10] M.Qoraboyev. Bobur va boburiyzoda shaxzodalar xorijiy adiblar talqinida. Maqola. Namangan 2018.
[11] M.Qoraboyev. Bobur va boburiyzoda shaxzodalar xorijiy adiblar talqinida. Maqola. Namangan 2018.

sharoitlar yaratib berilgani va kibrona munosabatda bo'linganini ajoyib syujetlar orqali talqin etgan.

Yozuvchi F.Munning mahorati shundan iboratki, u o`z ijodiy mahsullari bo`lgan badiiy matnlarni san`atkorona yarata olgan. O`z asarlari orqali inson hissiyotlarini, tuyg`ularini, hayajonlarini, azob va qayg`ularini ifodalash, shu orqali tinglovchi yoki kitobxonni ta`sirlantirishni istaydi. Ana shunday hollarda ba`zan mubolag`a, ba`zan o`xshash- qiyoslash kabi tasviriy vositalardan foydalanadi.

F.Mun o`z asarlarida badiiy matn turlarining deyarli barchasidan mohirlik bilan foydalangan. Bular: hikoya mazmunli matnlar (Le texte narratif – narrativ matn); tasviriy matnlar (Le texte descriptif – deskriptiv matn); izoh mazmunli matnlar (Le texte argumtntatif-argumentli matn); didaktik matnlar (Le texte explicatif- eksplikativ matn); xabar mazmunli matnlar (Le texte informative - informativ matn); buyruq mazmunli matnlar (Le texte injonctif-injonktiv matn); hissiy ifoda mazmunli matnlar (Le texte expressif - ekspressiv matn)dir.[12]

Aytish joizki, adiba asarlarini o'qigan har qanday o'quvchi o'sha davrning turmush tarzini, tinchlik va farovonlik yo'lidagi jangu-jadallarni, kishilar o'rtasidagi turli munosabatlarni, boburiylar saltanati ruhiyatini his qiladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonda barpo etgan buyuk sulolaning tarixi va an'analari, yuksalishi va tanazzuli haqida bugungi kunda ham jahon adabiy maydonida ko'plab yangi badiiy asarlar dunyo yuzini ko'rmoqdaki, mazkur asarlar mualliflarini dunyo kitobxonlariga tanilib, kitoblari sevib mutolaa qilinmoqda. Ana shunday yozuvchilardan biri Diana va Maykl Prestonlar bo'lib, ular ***Aleks Rezerford*** taxallusi bilan ijod qilishmoqda.

Bu adiblar 2009 yildan boshlab Diana va Maykl Preston Aleks Rezeford taxallusi bilan ***"Buyuk Mo'g'ullar Imperiyasi"*** rukni ostida tarixiy romanlarini nashr ettira boshlashdi.

Boshqa asarlarda bo'lganidek, mualliflarni qahramonlarning xarakteri va ichki kechinmalari qiziqtiradi. Badiiy asar yozish orqali mualliflar qahramonlar, voqea-xodisalar, ular yashab o'tgan muhit va sharoitlar kitobxonlarga yanada yaqinroq bo'lishini, uni o'sha joy va vaqt muhitini xis qilishini inobatga olishgan.

Mazkur rukndagi romanlar Boburiylar imperiyasining shonli o'tmishi, jangu-jadallari haqida hikoya qiladi. Ular ikki asrlik voqealarni o'z ichiga oladi hamda Boburiylar sulolasining olti nafar – har biri alohida *shaxs* sifatida e'tirof etilgan imperatorlari tarixini yoritib beradi.[13]

Ularning birinchi asari ***"Raiders from the North"*** *("SHimollik otliqlar")* deb nomlanib, u 2009 yilda nashrdan chiqqan. Mazkur roman buyuk sarkarda, shoh va shoir Boburga bag'ishlangan. Unda Boburning 1525 yili Markaziy osiyodan Hindistonga yurishi, uning Afg'oniston tog'lar, Kashmir dalalari uzra Bengaliya o'rmonlarigacha bo'lgan xududda tashkil qilgan imperiyasi haqida hikoya qilinadi. SHuningdek, jang maydonlaridagi jasorati, ulkan maqsadlarni ko'zlashi,

[12] Matyoqubova D. Badiiy matnning lisoniy tahlili. Ma`ruzalar matni. AnDU. 2008. 7-b.
[13] M.Qoraboyev. Boburiylar sulolasi haqida yangi badiiy asarlar. Maqola. Namangan 2018.

go'zallikka bo'lgan ishtiyoqi dunyoning oltidan biriga teng Imperiyaga asos solinishi haqida ham bayon etiladi. Mualliflarning ta'kidlashicha, Boburiylar sulolasi nomi uzoq Yevropada hukronlik va boylik ramzi sifatida hayrat bilan e'tirof etila boshlandi.

Ikkinchi asar ***"Brothers at War"*** *("Og'alar jangi")* deb nomlanib, u 2010 yilda nashrdan chiqqan. Asar Boburning to'ng'ich o'g'li ikkinchi boburiy shoh Humoyunga bag'ishlangan bo'lib, u Humoyunshohning dastlabki hukmronligi va uning davlatni qo'ldan boy berishi, hamda davlatni qayta egallashga bo'lgan kurashlari haqida, nafaqat tashqi balki o'z inilari bilan bo'lgan janglari tug'risida hikoya qilinadi. Ushbu roman tarjimon Yu.K. Rыbakova tomonidan ruschaga tarjima qilinib, 2015 yil "***Velikiy Mogol"*** nomi bilan nashrdan chiqdi.

Mazkur ***"Buyuk Mo'g'ullar Imperiyasi"*** rukni ostida tarixiy romanlarning navbatdagisi ***"Ruler of the World"*** *("Dunyo hukmdori")* deb nomlanib, u 2011 yilda nashr etilgan. Asar buyuk Boburiylar sulolasining eng yirik vakili adolatli va oqil podshoh Akbar va uning hukmronligiga bag'ishlangan. Asar 2015 yil V.D.Yurgaytite tomonidan ***"Vladыka mira"*** nomi bilan rus tilida nashr etildi.

"The Tainted Throne" *("Darz ketgan taxt")* asari 2012 yilda nashrdan chiqqan bo'lib, Jahongir va uning hukmronk davri yoritilgan, unda ota va o'g'il o'rtasidagi ishonchsizlik va raqobat muxiti va ana shu muxit ta'siri ostida mustahkam va bardoshli xokimiyatni darz ketishi hikoya qilingan.

Keyingi asar ***"The Serpent's Tooth"*** *("Ilonning tishi")* deb nomlanib, u 2013 yilda nashrdan chiqqan. Asarda o'z suyukli rafiqasi Mumtoz Mahal xotirasiga bag'ishlab ajoyib Toj Mahalni bunyod ettirgan SHohjahon va uning hukmronligi hamda boburiylar sulolasining eng gullab yashnagan davri aks ettirilgan.

2015 yil boburiylarga bag'ishlangan navbatdagi ***"Traitors in the Shadows"*** *("Soyadagi g'animlar")* romani chop etildi. Unda SHoxjaxonni taxtdan ketishi va Avrangzebni taxta kelishi, xududi kengaygan biroq kuchsizlangan, shonli va qachonlardir qudratli bo'lgan Buyuk Imperiyani inqirozga yuz tutishi hikoya qilinadi.

Yuqorida qayd etilgan asarlarni yaratishda mualliflar ***"Boburnoma", "Humoyunnoma", "Akbarnoma"*** asarlari, Hindistonga qilgan sayohatlari davomida maxalliy halq vakillari xotiralari, eshitgan va kutubxonalardan olgan ma'lumotlarga tayanganlar.

Shuningdek, Akbar davridan keyingi ma'lumotlarni yaratishda boburiylar hukmronligining so'ngi davrlariga shohid bo'lgan ko'plab yevropalik savdogarlar, tabiblar, siyosatchilar tomonidan yozib qoldirilgan manbalardan foydalanishgan. Har bir kitobning oxirida tarixiy ma'lumotnoma

berilib, unda asarda berilgan ma'lumotlarni qay biri haqiqat va qay biri to'qima ekanligi hamda u nima maqsadda berilganligini izohlab berilgan.[14]

Ta'kidlab o'tish joizki, Bobur shaxsini nafaqat Yevropaga, balki butun dunyoga mashhur bo'lishini ikki omil bilan izohlash mumkin. Birinchisi, Boburning Hindistonni zabt etishi va u yerda o'z hukmronligini o'rnatishi bo'lsa, ikkinchisi, uning ijodkor shaxs bo'lganligi, ya'ni u yaratgan "Boburnoma" asari va she'rlaridir. Ko'plab olimlar ular xoh yurtimiz, xoh xorijiy olimlar bo'lishidan qat'iy nazar, avvalo, "Boburnoma"ga murojaat qilganlar. Boburning hayot yo'li, jangu jadallari va u amalga oshirgan ezgu ishlarini o'rganish uchun hukmdorning o'zi yaratgan asari hamisha dasturulamal bo'lib xizmat qilib kelmoqda.[15]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boltaboev H. Xorijda Bobur shunoslik. –T.: 2008. - B 73.
2. Ibrohimov A. Boburnoma-buyuk asar. –Toshkent: 2000. - B 13.
3. Matyoqubova D. Badiiy matnning lisoniy tahlili. Ma`ruzalar matni. AnDU. 2008. 7-b
4. Moon Farzana. Babur the first moghul in India. Preface. Mehra Offset Press, Delhi. 1997.
5. Tursunov A. Nemiszabon adabiyotlarda sharqning buyuk siymolari talqini. PhD. Diss. Toshkent 2019.
6. Qoraboyev M. Boburiylar sulolasi haqida yangi badiiy asarlar. Maqola. Namangan 2018.
7. Qoraboyev M. Bobur va boburiyzoda shaxzodalar xorijiy adiblar talqinida. Maqola. Namangan 2018.

[14] M.Qoraboyev. Boburiylar sulolasi haqida yangi badiiy asarlar. Maqola. Namangan 2018.
[15] A.Tursunov. Nemiszabon adabiyotlarda sharqning buyuk siymolari talqini. PhD. Diss. Toshkent 2019.

NAVRO'Z BAYRAMINING ETIMOLOGIYASI

Hayitova Aziza
Termiz davlat universiteti
O'zbek filologiyasi fakulteti
Amaliy filologiya yo'nalishi
1- bosqich talabasi
skmalxabibilaev1122@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada navro'z bayramining qachon, qay tarzda kelib chiqqani haqidagi afsonalar keltirilgan. Navro'z bayrami kelishi bilan tabiat hodisalarining o'zgarishi kabi ma'lumotlar berib o'tilgan. Maqola xulosasida Navro'z qadimgi sharq xalqlarning urf- odatlarini, milliy qadriyatlarini aks ettiruvchi bayramdir.

Kalit so'zlar: Navro'z, afsonalar, etimologiya, tarixiy shaxslar, zardushtiylik

Abstract. This article presents legends about when and how the Nowruz holiday originated. With the arrival of Nowruz holiday, information such as changes in natural phenomena has been given. In the conclusion of the article, Navroz is a holiday that reflects the traditions and national values of ancient Eastern peoples.

Key words: Navroz, legends, etymology, historical figures, Zoroastrianism.

Абстрактный. В данной статье представлены легенды о том, когда и как возник праздник Новруз. С наступлением праздника Навруз была дана такая информация, как изменения в природных явлениях. В заключении статьи Навруз - праздник, отражающий традиции и национальные ценности древневосточных народов.

Ключевые слова: Навруз, легенды, этимология, исторические личности, зороастризм.

Kirish. Navro'z bayrami qadimda ko'plab mamlakatlarda keng nishonlanib kelingan. Tarixdan ma'lumki, bu bayram xalqlarning milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini, yasharish, shuningdek, tabiatning uyg'onishi kabi ramziy belgilarni o'zida ifodalab kelgan. Navro'z bayramining lug'aviy ma'nosi O'zbek tilining izohli lug'atida batafsil ma'lumot berib o'tilgan bo'lib, bu bayramning qachon va qayerda paydo bo'lganligini aniqlashda bevosita uning etimologiyasiga nazar solamiz. Holbuki, Navro'z kelishi bilan o'zi bilan birgalikda qut- baraka, to'kinchilik ham olib keladi. Bundan ko'rinadiki, Navro'z ezgulik, to'qchilik ramzi ekanligi anglashiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Ushbu sohaga doir tadqiqotlarni o‘tkazishda “jarayonni bevosita kuzatish”, “hujjatlarni o‘rganish va tahlil qilish”, “qiyoslash” , “etimologik manbalardan foydalanish”, “amaliy tadqiqotlar olib boorish” va “elektron lug‘atlar ustida tadqiq va tahlil” metodlaridan foydalangan holda amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Navro'z ko'plab xalqlarning milliyligini ifodalovchi bayram bo'lgani sababli, insonning ma'naviyativa ma'rifatiga ham

bog'liqdir. Navro'z bayramini etimolgik jihatdan tadqiq qilishda, shuningdek, inson ma'naviyatida o'ziga xos xususiyatga egaligi uchun bir qancha olimlar ilmiy izlanishlar A. Ashirov [2.28], M.Tog'ay [5.67] M.Abdullayev A. Abdullayev [3.48] olib borgan. Navro'z bayramining kelib chiqishida turli xildagi qiziqarli afsonalarni bilib olishimiz mumkin. Ularda xalqlarning qadimgi hayot tarzini, ulardagi o'ziga xos qadriyatlarini bilib olamiz.

Navro'z - bahor bayrami, tabiatning uyg'onishidan darak beruvchi elchi. Bu bayramni barcha insonlar birdek ko'tarinki kayfiyatda, o'yin- kulgi bilan kutib olishadi. Navro'z bayram yaqinlashishi bilan hamma bayramni kutib olish uchun taraddud ko'rishadi. Insonlar navro'z bayrami yaxshi kutib olinsa, yil bo'yi shu kayfiyatda bo'lib, mo'l- ko'lchilik ko'p bo'ladi deya umid qilishadi. Haqiqatdan ham bu tushunchalar juda qadim zamonlardan shakllanib kelgan. Navro'z haqida turli xildagi bir- biridan qiziq afsonalar ham mavjud. Navro'z bayramining paydo bo'lishida qadim tarixga ulardagi qiziqarli afsonalarga yuzlanamiz. Navro'z forschadan "yangi kun" ma'nosini anglatadi. Navro'z so'zi " O'zbek tilining imlo lug'ati" kitobidan ko'rilganda uning o'zagi "nav" so'zidan olingan bo'lib, bu o'zak orqali ko'pgina so'zlar hosil qilish mumkin. Masalan, Navro'z, Navro'zgul, navro'zgildoshlar, navsiz, navro'zlik, navxurush, navxurushlik, navzanbilloh va boshqa. "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da Navro'z so'ziga shunday izoh berilgan. Navro'z. Bu ot tojik tilida "yangi" ma'nosini anglatadigan nav sifatida bilan (TjRS, 252) kun ma'nosini anglatadigan "ro'z" otidan (TjRS, 330) tuzilgan bo'lib, yangi yil boshlanadigan 21- mart kuni ma'nosini anglatadi. (O'TIL.1. 492). O'zbek tilining izohli lug'ati 1981- yildagi nashrida Navro'z haqida shunday izoh berilgan. Navro'z 1. Shamsiya yil hisobida yangi yilning birinchi kuni (navro'z oyining 21- martiga to'g'ri keladi) 2. Bahor chog'i, bahor. Navro'z yomg'iri. Navro'z bayrami yangi stildagi yangi yil va bahor munosabati bilan o'tkaziladigan bayram. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'atining 2001- yildagi nashrida Navro'z 1. Quyoshning Hut yulduzlar turkumidan Hamal yulduzlar turkumiga o'tish davrining boshlanishi. Bu davr 20- martdan 21- martgacha o'tar kechasiga to'g'ri keladi. Navro'z boshlanmoq. 2. Umumxalq bayrami Navro'z telemarofonini tashkil qilmoq. 3. Bahor chog'i. Bahor. Navro'zda to'y qilmoq. O'TILning 2006- yilda nashr etilgan sonida Navro'z so'ziga shunday izoh berilgan.

NAVRO'Z I - [f. – yangi kun] 1 Shamsiya yil hisobida yangi yilning birinchi kuni (mart oyining 21-kuniga to'g'ri keladi). 2 Bahor chog'i, bahor. Navro'z yomg'iri Navro'z bayrami - Eski sana hisobidagi yangi yil va bahorning boshlanishi munosabati bilan o'tkaziladigan bayram. Navro'zi ajam O'zbek mumtoz kuylaridan birining nomi. Navro'z (erkaklar ismi).

NAVRO'Z II - Kechpishar o'rik navi. Bu bayram qachon va qayerda paydo bo'lgan savol berilishi tabiiy holdir. Bu haqida aniq faktlar bilan asoslanmagani uchun turlj afsonalar, qarashlarga tayanamiz. "Saodat" jurnalida chop etilgan "Onaqutining saxovati" maqolasida Navro'z haqida shunday deyilgan. Dunyoga ilk alifboni bergan allomalar yurti dunyoviy fanlarga asos solgan Xorazm yurti qadimda unig nomi Xvayrazam deyilgan. Xorazmning Niso shahrida Navro'z

bayrami paydo bo'lgan deyilgan. Uning afsonasi quyidagicha Niso shahridaning poytaxti bo'lgan Parfiyonada Jumboq qal'a, Burgut qal'a Niso qo'rg'oni bo'lib, o'sha yerda saqlanib qolgan "olov uy" bo'lgan va uzoq yillardan beri saqlanib qolgan. Burgut qal'aning markazida moviy gumbaz bo'lgan uning ichida Onaqutining qo'lida zumrad tosh bo'lgan. Bahorgi teng kunlikda-shamsiy hisob bilan hamal oyining birinchi kuni, hozirgi taqvimimiz bo‘yicha 22-martda maqbara gumbazidagi tuynukdan quyosh nuri Onaquti qo‘lidagi Zumrad toshiga tushib, sumalak pishirish uchun tayyor turgan qozonning o‘txonasiga o‘t yoqqan", deyilgan. Shu kun Navro'z bayrami paydo bo'lgan qarash ham mavjud.Boshqa afsonalarda esa Odam Ato va Momo Havo bilan uchrashgan kun Navro'z bayrami nishonlangan deyilgan. Abu Rayhon Beruniyning „Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar“ kitobida Quyosh yili hisobida yilning birinchi oyi deb sanalgan Farvardin oyi to‘g‘risida so‘zlab: "Bu oyning birinchi kuni Navro‘zdir, — deydi. — Navro‘z yilning birinchi kuni bo‘lib, uning forscha nomi ham shu ma’noni anglatarkan. Navro‘z eronliklar „zij“lari bo‘yicha o‘tmish zamonlarda, ular yillarini kabisali qilgan vaqtlarida Quyoshning Saraton burjiga kirish paytiga to‘g‘ri kelar edi. So‘ngra u orqaga surilgach, bahorga keladigan bo‘ldi[16]. O'shandan boshlab, gullar ochilib, hayvonlar qishgi uyqudan uyg'onadi. Tabiatning barcha sir - sinoatlari uyg'onib, atrof jonlanadi. Firdavsiyning "Shohnama" asarida yangi yil bayrami Jamshid shoh bilan bog'liq bo'lib, Jamshid shoh davrida xalqiga yaxshilik qilish maqsadida yurtida obodonchjlik ishlarini olib boradi. Kasb o'rgatadi. Yurtini yashnatadi. Temirni eritib, qurol yasatadi. Ip igirtirib, kiyim to'qitadi. Imoratlar qurdiradi. Tabiblik sirlarini ochadi, kema yasaydi, bog‘ bunyod qiladi. Nihoyat, „ishlari gurkirab berganda meva“ bir kuni taxt yasatib, unda osmonga ko‘tariladi. Ushbu afsonaga ko‘ra xuddi shu kuni Navro‘z nishonlangan.

Tog'ay Murodning "Oydinda yurgan odamlar" asarida qahramonlar tilida Navro'z bayramining qaysi kunda kelishi barokatli ekanligi haqida ma'lumotlar berib o'tiladi. Asarda Navro'z qaysi kun kelsa, yil yaxshi bo'ladi? degan savol qo'yilgan. Javob tarzida quyidagilar berilgan: Yakshanba kun kelsa, ko'p binoyi bo'ladi. O'lim- yetimlar oz bo'ladi. Fisq- fasod, yomonlik kam bo'ladi. Aybi, bug'doy tanqis bo'ladi. Navro'z seshanba kun kelsa, ochlik bo'lmaydi, oshlik bo'ladi. Ertachi ekinlar yaxshi bo'ladi, noz- ne'matlarlar- da yaxshi bo'ladi. Aybi, taqchilroq bo'ladi. Yomoni, qon ko'p to'kiladi. El- yurt orasidan rahm- shafqat ko'tariladi. O'g'il otadan qaytadi, qiz onadan qaytadi,ayol eridan qaytadi. Podshohlar taxtdan qula- qula bo'ladi. Yomonlik ko'payadi. Qor kam yog'adi. Yil oxirida sel ko'p keladi. Navro'z chorshanba kun kelsa, yil qimmatchillik bo'ladi. Qorin- tomoq uchun qon to'kiladi. Fisq- fasod, g'alamislik ko'p bo'ladi. Payshanbada kelsa, dardmanlik ko'p bo'ladi. Shu yili oy bilan kun tutiladi. Jumada kelsa, yomg'ir mo'l- ko'l bo'ladi. Aybi, qahraton sovuq bo'ladi. Shanba kun kelsa, o'g'ri- muttahamlar yili bo'ladi, mushtumzo'rlar yili bo'ladi.

[16] CC BY-SA 3.0

Navro'z bayrami qadimgi zamonlardan zardushtiyliklar davrigacha bo'lgan asrlarda nishonlanib keladi. Hozirda Navro'z bayrami Eron, Markaziy Osiyo va Kavkaz hududlarida 21- martda nishonlanib kelinadi. Qozog'istonda 22- martda nishonlanadi. Navroʻz Shimoliy yarimsharda bahorning boshlanishi sifatida, kecha-kunduz tenglashgan kunda (martning 20, 21 va yoki 22-da) boshlanadi. Baʼzi xalqlar bahor faslining kelishini tabiatning uygʻonishi bilan bogʻlaydilar, shu munosabat bilan bayramlar oʻtkazishadi, uni yangi yilning boshlanishidek bayram qiladilar. Qadim zamonlardan boshlab Ozarbayjon, Oʻzbekiston, Eron, Afgʻonıston, Tojikiston va yana koʻplab sharqiy oʻlkalarda bahorning — yangi yilning kelishini bayramlar bilan qarshi olishadi. Martning 21-sanasi Eron va Afgʻonistonda rasmiy taqvimning dastlabki birinchi kuni hisoblanadi. 2009-yil 30-sentyabda Navroʻz UNESCO tarafidan nomoddiy madaniy meros roʻyxatiga kiritilgan, 2010-yil 23-fevralda esa BMT Bosh Assambleyasining 64-sessiyasida 21-mart „Xalqaro Navroʻz Kuni“ deb eʼlon qilindi. Hali ham bu bayram xalqlar oʻrtasida keng koʻlamda davom etib kelmoqda. Bayram kuni sumalak, ko'k somsa, ko'k patir, halim, ko'k oshi kabi turli xildagi milliy taomlar dasturxonga tortiladi. Milliy takmlar mazaliligi bilan bir qatorda shifobaxshliyligi bilan ajralib turadi. Navro'z bayramida kuy- qo'shiqlar, milliy o'yinlar, masalan, kurash, arqon tortish, chillak, beshtosh va boshqa o'yinlar ham o'ynaladi. Ayol- u erkaklar ham milliy libos kiyishadi. Yosh- u qarining yuzi kulgiga, xursandchilikka boy bo'ladi. Gina- quduratlarga barham qo'yiladi. Urushganlar yarashadi. Tabiatda yasharish, kun va tun tenglashgan bo'ladi. Kunlar isiydi, nafaqat, insonlarning qalbida ham mehr- muruvvat kabi hislar uyg'onadi. Navro'z bayrami yaxshiliklarga, ezgulikka boy bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

XULOSA. Navro'z bayramini nishonlanuvchi mamlakatlar bu bayramni ko'tarinki kayfiyatda kutib olishadi. Tabiat hodialari ro'y beradi. Ko'chatlar, gullar ekiladi. Insonlar milliy liboslarda bo'lib, milliy taomlar, milliy o'yinlar bilan Navro'zni kutib olishadi. Navro'z bayrami yoshlik, beg'uborlik, go'zallik ramzi bo'lib, yosh-u qari birdek ko'tarinki kayfiyatda kutib oladi. Ilmiy tadqiqotlar natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, Navro'z bayramining etimoligiyasi har bir davlatning o'ziga xos afsonasi, yaralish tarixi bor. Aniq ma'lum bir hududda kelib chiqqanligi haqida ma'lunotlar berilmagan. Bu jumboq tarixning sir- sinoati bo'lib qolgan. Lekin shuni aytish mumkinki, Navro'z bayramining paydo bo'lishida har bir millatning o'z qarashlari, afsonalari bor. Bundan ko'rinadiki, Navro'z bayrami azal- azaldan shakllanib, insonlar qalbidan joy olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi “Navroʻz milliy va umuminsoniy qadriyatlar bayrami” – T.: 1992.
2. Ashirov A. Oʼzbek xalqining qadimiy eʼtiqod va marosimlari. T.: 2007 yil.
3. Abdullayev M. Abdullayev A. Maʼnaviyat va madaniyat tarixi. Farg'ona, 1998 yil.
4. Karimov I.A "Yuksak- maʼnaviyat yengilmas kuch " T. 2000 y.
5. Tog'ay Murodning " Oydinda yurgan odamlar" .T.2022 y.

6. Ashirov A. Atadjanov SH. Etnologiya. T.: 2007 yil.
7. Etnomadaniyat fanidan ma'ruzalar matni. 1-qism. Farg'ona, 2001 yil.
8. Akobirov S. Aliqulov T. Zufayuv S. Ibrohimov S. Ikromova N. Mamayuv N. Ma'rufov Z. Mirtojiyev M. Mixaylov G. Nurmonova Sh. Xo'jaxonov A. Habibullayev N. O'zbek tilining izohli lug'ati. Moskva. 1981- yil.
9. Hojiyev A. Nurmonov A. Zaynobiddinov S. Kokren K. Saidxonov M. Sobirov A. Quronov D. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. Toshkent. 2001- yil.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent. 2006- yil.
11. Madvaliyev.A " O'zbek tilining imlo lug'ati " - Toshkent. Akademnashr.2012-yil.- 528 b.
12. Rahmatullayev. Sh. " O'zbek tilining etimologik lug'ati " - Toshkent 2000- yil.
13. Abdulhakimovna K. M. SOFTWARE AND DATA ENTRY PRINCIPLES OF THE ONLINE DIALECT DATABASE //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 46-53.
14. Kholova M. Peech genres of texsts and passport mete-metrics in the dialect corpus (Baysun district on the example of the sound "J" dialects) //Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems. – 2020. – Т. 12. – №. 6. – С. 1103-1107.
15. Холова М. А. BOYSUN SHEVASI ONLAYN MA'LUMOTLAR BAZASI (QIDIRISH VA SARALASH IMKONIYATLARI ASOSIDA) //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2021. – Т. 4. – №. 1-1.
16. Холова М. А. O'ZBEK SHEVALARINING STANDART TILGA MUNOSABATI VA TIL TIZIMIDAGI O'RNI (BOYSUN TUMANI "J" LOVCHI SHEVALAR MISOLIDA) // Международный журнал искусство слова. – 2020. – Т. 3. – №. 5.

Internet saytlari

17. www ziyonet. uz
18. www bilim.uz
19. www. edu.uz
20. www. ma'naviyat. uz
21. www. tdpu. uz

ИНГЛИЗ ТИЛИ МУРАККАБ ГАП ТИЗИМИДА ИЛОВА КОНСТРУКЦИЯЛАР

Хушвақтова Гулдона
СамДЧТИ магистранти

Аннотация. Мақолада илова конструкцияларнинг инглиз тили бадиий матнларида ифодалайдиган синтактик ва семантик хусусиятлари кўриб чиқилади. Илова ҳодисасига инглиз тили мураккаб гап тизимида тилнинг универсал бирлиги сифатида қаралиши билан бирга, унинг бошқа кўпгина тилларга хослиги таъкидланади. Илова конструкциянинг асосий компонентлари сифатида мантиқий урғу, интонация ва тиниш белгилари таърифланади, унинг боғланиш ва эргашишдан фарқли жиҳатлари ажратиб кўрсатилиб, структур ва семантик хусусиятларига ҳамда оҳанг ва тиниш белгилари орқали ифодаланишига таъриф берилади.

Таянч сўз ва иборалар: асосий ифода, илова конструкция, мураккаб гап тизими, иловали компонент; иловали элемент; мантиқий урғу, синтактик алоқа, стилистик функция.

Ҳозирги босқичда инглиз тили тизим сифатида маълум функционал гап моделларига эга бўлиб, уларнинг ўзига хослиги тилнинг экспликатив ва импликатив тенденциясини акс эттирувчи диалогда ҳам, монологда ҳам намоён бўлади. Ушбу ҳолат тилда илова деб аталадиган янги синтактик ҳодисани ўрганиш заруратини туғдиради.

Замонавий тилшуносликда "илова" атамаси билан ифодаланадиган грамматик ва стилистик усул кенг қўлланилади. Бу тил тизимида матннинг юқори маълумотга тўйинганлик жараёнида нутқ воситаларини тежаш тенденцияси билан боғлиқ ҳодиса ҳисобланади.

Иловали тузилма шундай синтактик конструкция бўлиб, унда семантик ҳажм ва бутун гап учун аҳамияти жиҳатидан тенг бўлмаган икки қисм жойлашади: бошланғич қисм – бу асосий хабар, кейингиси эса биринчисининг мазмунидан келиб чиққан – қўшимча хабардир [1; 182 – 183-б.]. Илова конструкциянинг асосий ва қўшимча хабарларга тўғри келадиган бу икки қисми ўртасидаги семантик муносабат одатда – *илова*, олдин билдирилган фикрга янги маълумотларни махсус грамматик шакллар орқали қўшилиши эса – *илова ҳодисаси* дейилади.

Илова ва илова конструкцияларни тушуниш анъанавийдир. Илова конструкциядаги асосий ва қўшимча хабарлар бир-бири билан нафақат "маълумот" – "янги" сифатида ўзаро боғлиқ, балки "асосий хабар" ва "қўшимча хабар" тушунчалари сўзловчининг ушбу хабарларга нисбатан қимматли маълумотини ўз ичига олади. Демак, илова лисоний ҳодиса сифатида сўзловчининг шахсияти билан боғлиқ бўлиб, у хабарлар ўртасидаги муносабатни тасвирлайди.

Илова конструкция оғаки нутқда кенг тарқалган. Улар одатда онгида асосий фикр билан бир вақтда эмас, балки асоий фикрга қўшимча хабар, изоҳ

сифатида у ифодалангандан кейингина пайдо бўлади. Иловали боғланиш орқали улар асоосий ифодага қўшилиши керак. Илова ҳодисаси бадиий нутққа - бадиий адабиёт тилига, публицистик ва илмий-оммабоп мақолалар ва газета мақолаларига тобора кўпроқ кириб бормоқда. Шу муносабат билан илова конструкцияларни ўрганиш муаммоси жуда долзарб ҳисобланади.

Инглиз тилида ҳам илова ҳодисаси кенг қўлланилади. У синтактик боғланишнинг алоҳида тури бўлиб, у боғланишдан ҳам, эргашишдан ҳам фарқ қилади. Н.С. Валгина иловали боғланишда гап элементлари синтактик жиҳатдан тенг бирлик вазифасини бажариб, эргашган ҳолда тобе бўлак сифатида намоён бўлишини таъкидлайди [2; 67]. Бироқ, ҳар иккала ҳолатда ҳам, В.В. Виноградов таъкидлаганидек, битта сатҳдаги ҳодисалар мавжуд [3; 154-б.]. Илова ҳодисаси иккиламчи боғланиш бўлиб, боғланиш ва эргашиш устига қўйилган кўринади. Илова ҳодисасининг ўзига хослиги шундан иборатки, иловали элементлар онгда дарҳол пайдо бўлмайди, балки асосий фикр ифодалангандан кейин пайдо бўлади [3; 155-б.].

Илова конструкциянинг ўзига хос хусусияти - у билан асосий гап ўртасидаги синтактик ва интонацион бўшлиқдир. Шунинг учун у мантиқан ажралиб туради.

Инглиз тили мантларида илова конструкциялар, маълум лексик ва грамматик ифода воситаларининг йўқлигига қарамай (махсус қўшма ва боғловчи бирикмалар: *and, moreover, and therefore* бундан мустасно) турли хил структуравий ва грамматик турлар билан бирлашади. Нутқда функционал қўлланилиш бирлиги сифатида улар асосий ифодадан кейин пайдо бўлган фикрни етказиш учун мўлжалланган.

Илова конструкциядаги қўшимча фикрнинг вазифаси боғловчи конструкцияларнинг асосий маъноларини белгилайди: улар қўшимча хабар маъносига эга бўлади, 1) ривожлантирувчи, 2) изоҳловчи ва 3) асосий ифодани аниқлаштирувчи характерга эга. Ушбу сифатларнинг барчаси илова конструкцияларни синтаксиснинг асосий ҳодисаси деб ҳисоблашга кўмаклашади.

Иловани қўллашдан асосий мақсад нутққа янги семантик ва экспрессив стилистик тус бериш, ифоданинг алоҳида бўлакларига улкан маъновий ва ҳиссий юк узатишдир. Ёзувда оҳангнинг чўзиқлиги турли тиниш белгилари билан ифодаланади.

Вергул одатда боғловчили илова ҳодисасида қўлланади: *Before you are people who have power in the city,* ***and no small*** *(Mitchell M. Gone with the Wind). Баъзан тире қўлланилади: We are doing a great thing and have already done a lot, but there are shortcomings -* ***and serious*** *(Mitchell M. Gone with the Wind).*

Боғловчили илова ҳодисасида кўп нуқта ҳам қўлланилиши мумкин, агар асосий ифодага тугалланмаганликни ва қўшимча равишда узун паузани етказиш керак бўлса: *It's scary to admit it, but I want this person to know that it*

is like a song to me ... ***And it must be the last one*** *(Mansfield K. The Doll's House and Other Stories).*

Қолган барча ҳолатларда нуқта қўйилади: *Cities that start with train stations...* ***Every city has an age and a voice. There are clothes. And a special smell. And a face. And not immediately understandable pride*** *(Mitchell M. Gone with the Wind); Such silence in the village happens before dawn.* ***Or else in the steppe*** *(Mitchell M. Gone with the Wind).*

Боғловчисиз илова ҳодисасида одатда нуқта қўйилади. Ёзма нутқда, ҳақиқатда, у фақат боғланишнинг расмий кўрсаткичи бўлиб хизмат қилади, у узоқ давом этадиган паузани ифодалайди: *It is necessary to act, it is necessary to act ... Cry later.* ***At night. Someday*** *(Mansfield K. The Doll's House and Other Stories).*

Вергул, шубҳасиз, иловани сифат жиҳатидан ўзгартиради, қўшимча, эҳтимол, жумла таркибида ажралишга имкон беради: *Cry later,* ***at night, someday.***

Бироқ, баъзи ҳолларда, боғловчисиз илова ҳодисасида вергул ҳам, чизиқча ҳам қўлланилиши мумкин. Масалан: *It was even scary,* ***sometimes*** *(Mansfield K. The Doll's House and Other Stories.); I swore not to say a word -* ***out of curiosity*** *(Mitchell M. Gone with the Wind); Here the mazurka began, and we parted -* ***goodbye*** *(Mitchell M. Gone with the Wind.); I kissed for the last time, shook hands, and we parted -* ***forever*** *(Mansfield K. The Doll's House and Other Stories.).*

Хулоса қилиб айтганда илова ҳодисаси инглиз тили мураккаб гап тизимида ҳам кенг қўлланилиб, гапнинг статик аспектини ифодаловчи ҳодиса ҳисобланади. Бу ўзига хос грамматик маънога (қўшимча хабарнинг маъноси) ва ўзига хос грамматик шаклига (махсус қўшма гаплар, қўшма гаплар ва бошқа расмий воситалар) эга бўлган грамматик категориядир. Илова конструкциялар улкан бадиий ва ифода имкониятларига эга: улар маънонинг нозик семантик ва экспрессив тусларини етказишга қодир. Синтактик конструкцияларнинг бўлинишига олиб келадиган илова конструкция хабарнинг муҳим тафсилотларини таъкидлашга ёрдам беради. Синтактик конструкцияларнинг бир тури бўлган илова конструкциялар матннинг умумий ритмини ўзгартиришга қодир.

Адабиётлар

1. Арнольд И. В. Стилистика современного английского языка. М., 1990. 300 с.
2. Валгина Н.С. Синтаксис современного русского языка. М., 1973.
3. Виноградов В.В. Избранные труды. Исследования по русской грамматике. М., 1975.
4. Mansfield K. The Doll's House and Other Stories. Penguin books, 1992. 64 p.
5. Mitchell M. Gone with the Wind. Oxford university press, 1998. 1441 p.

ABDULLA AVLONIYNING ASARLARIDA PEDAGOGIK QARASHLAR

Ganiyeva Gulmira Maksetbayevna
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti stajyor-o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdulla Avloniyning pedagogika sohasiga qo`shgan ulkan hissasi, uning pedagogik qarashlari, maktablar uchun yozilgan darsliklari hamda "Turkiy guliston yoxud axloq" asarining pedagogika taraqqiyotidagi tutgan o'rni haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar. Pedagogika, Shayx Sa'diy, axloq, yaxshi xulq, yomon xulq, ta`lim, tarbiya, axloq kategoriyalar.

Аннотация. В данной статье описывается большой вклад Абдуллы Авлони в область педагогики, его педагогические взгляды, учебники, написанные для школ, и роль «Турецкого Гулистана или Этики» в развитии педагогики.

Ключевые слова. Педагогика, Шейх Саади, этика, хорошее поведение, плохое поведение, воспитание, обучение, категории этики.

Annotation. This article describes the great contribution of Abdulla Avloni to the field of pedagogy, his pedagogical views, textbooks written for schools, and the role of "Turkish Gulistan or Ethics" in the development of pedagogy.

Keywords. Pedagogy, Shaykh Saadi, ethics, good behavior, bad behavior, education, training, ethics categories of ethics.

Abdulla Avloniyning "Tarbiya bizlar uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir" degan so`zlari har bir maktab binosida yozib qo`yilishi shart.

Shavkat Mirziyoyev

Abdulla Avloniy – shoir,yozuvchi,dramaturg, pedagog, journalist va xalq arbobi, umumiy qilib aytganda milliy uyg`onish adabiyotining yirik vakillaridan biridir. Avloniyning hayot yo`li va ijodini o`rgangan har qanday insonning tafakkurida Abdulla Avloniy shaxsiyati millat taraqqiyoti yo`lida fidoiylarcha xizmat qilgan ulkan muttafakir sifatida gavdalanadi.Abdulla Avloniyning didaktik qarashlari, g`oyalarini o`rganishdan oldin uning hayoti haqida ma`lumotlar keltirmoqchimiz.

Abdulla Avloniy 1878 yilning 12 iyulida Toshkentning Mergancha mahallasida to'quvchi dunyoga keldi. Otasi Miravlon aka mayda hunarmand-to`quvchilik bilan shug`ullangan. [1. 4b]

Avloniy yoshligidan ishlab, pul topishni boshlagan. Uni "Imaratgi usta" deb nomlashgan. Bu haqda u o'z tarjimai holida shunday yozadi: 12 yoshimda O'qchi mahallasidagi madrasada tahsil olganman, 13 yoshimda pul topib, oilamga yordam berganman, qishda esa o'qiganman.

15 yoshidan Abdulla Avloniyning she'rlari yozma manbalarda chopila boshlagan. 1904 yil Avloniy jadidlar boshqaruvchilaridan biri bo'lgan va jadidchilik maktabini ochgan, 1909 yil "Jamiyati hayriya" tashkilotini yaratadi. 1905-1917 yillar o'z nashrlari bilan bosma manbalarda faol qatnashadi, "o'zgarish urug'lari"ni eka boshlaydi.

Avloniyning pedagogik faoliyati, ta`lim-tarbiyani borasidagi fikrlari jadidchilikningg yo`nalishi va xususiyatlarini belgilashga yordam bersa, she`riyati XX asr o`zbek milliy she`rining maydonga kelishi va tarixiy takomilini tayin etishga qimmatli materiallar beradi.

XX asr boshlarida Turkiston madaniy hayotida yuz bergan eng muhim o'zgarishlardan biri maktab o'quv ishlarida o'zgarish bo'ldi. Avloniy bu davrda jadidchilik harakatiga qo'shilib, Toshkentdagi jadidlarning faol ishtirokchilaridan biri bo'lib tanildi. Avloniy 1904 yilda Mirobodda, so'ngroq Degrezliqda (1903–14) xuddi shunday yangi usulda, yangicha maktab ochib, dars berdi va darsliklar yozdi.

1907 yil Avloniy "Shuhrat" gazetasini ochadi. O'qishdan so'ng pedagogika bilan shug'ullanadi, yangi o'quv tizimiga asos soladi va Sharq hamda G'arb tillarini o'qitish taklifini beradi.

Abdulla Avloniyning maktab uchun yaratgan to'rt qismdan iborat "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" hamda "Birinchi muallim", "Turkiy guliston syoxud axloq", "Ikkinchi muallim", "Maktab gulistoni" kabi darsliklari ham pedagogika sohasida, ta`lim tarbiya sohasida amalga oshirilgan ulkan xizmat bo`lib hisoblanadi. Bu asarlardagi mukammal fikrlarning g'oyaviy to'liqligi, ta'lim-tarbiya tizimiga va tushunchalariga doir fikrlarning ilmiy-nazariy asoslanganligi yuqoridagi fikrlari-miz dalilidir. Bundan tashqari, Abdulla Avloniy ijodiy merosi bilan ilk darsliklar-ning mukammal yaratuvchisi sifatida ham gavdalanganligi,asarlaridagi ta'lim va tarbiyaga doir tushunchalarning, g'oyaviy-badiiy mushohadalarning tadqiq qilin-

ganligi, qolaversa, mavzuning dolzarbligi ma'rifatparvar adib, serqirra ijodkor Abdulla Avloniyning ijodida bugungi kunning eng muhim masalasi-ta'lim va tarbiyaga doir fikrlarning dalili hikoyalar, she'riy lavhalar misolida yoxud majoziy xarakterga ega hikoyatlar asosida ochib berilishi asnosida ko'zga tashlanadi.

Mashhur ma`rifatchi "Birinchi muallim" kitobi pandlar, hikoyalar va ibratlar-dan tashkil topgan bo`lib kitob shunday jumlalar bilan boshlanadi :

" Muhtaram muallim afandilarimizdan rijo qilurmanki, bizning "Birinchi muallim"imizdan ham olub, tajriba qilub, o`qutub ko`rsalar. Chunki hr gulning bit isi, har meaning bir ta`m va mazasi vordur. Bu "bo`y" va ta'm esa tajriba sohiblarina kash va ma`lum o`lur…" [2. 6b]

Maktab o`quvni ko`rsotur,
Maktab yozuvni ko`rsotur,
Maktab uyqudin uyg`otur,
G`ayrat qilub o`qing, o`glon!

"Ikkinchi muallim" kitobida keltirilgan ushbu satrlardan ham shuni bilish mumkinki Avloniy bolalarni maktabda tahsil olishi naqadar zarur ekanligi, maktabda o`qish orqali nafaqat o`qish va yozishni o`rganish mumkinlini balki, uyqudagi kishi uyg`onishi misolida maktab insonni tafakkuri, dunyoqarashini o`zgarishiga, hayotga yangicha nigoh bilan qarashiga ishora qiladi.

Abdulla Avloniyning ta`limiy axloqiy asarlari, ayniqsa "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida o`zining didaktik qarashlari o`z aksini topgan bo`lib, bu qarashlar hozirgi kunda ham o`zining dolzarbligini yo`qotmagan.

Mazkur asarni Abdulla Avloniy fors klassik shoiri shayx Muslihiddin Sa'diy (1184–1310)ning "Guliston" asaridan ta'sirlanib, unga taqlid qilib yozganligi haqida ma`rifatchining o`zi shunday deydi: "Ban bu asari nochizonami bir necha muallim birodarlarimning iltijolari ila yozmoq va nashr qilmoqg'a g'ayrat va jasorat qilmish edim. Alhamdu lilloh val minna ikkinchi tab'ihada muvaffaq o'ldum, chunki Turkiston maktablarida o'z shevamizda (o'zbek tilida demoqchi) yozilmish mukammal "Axloq kitobining shunday asarga tashna va muhtoj ekanlig'i o'zum muallimlar jumlasidan o'ldig'imdan manga ham ochiq ma'lum o'ldi. Shuning uchun ko'p vaqtlar tajriba so'ngidan adibi muhtaram shayx Sa'diy usulida yozmoqni, garchi og'ir ish bol'sa ham, o'zimga muqaddas bir vazifa ado qilaroq bu kamchilikni oradan ko'tarmakni munosib ko'rdim". Buyuk pedagogning bu so`zlaridan shuni anglash mumkinki, "Turkiy Guliston yoxud axloq" Sa'diyning "Guliston" asari usulida o'zbek tilida yozilgan odob-axloq haqidagi noyob durdona kitoblardan biridir.

Abdulla Avloniyning mazkur asari 1913-yilda Toshkentda Ilin bosmaxonasida litografik (toshbosma) usulida nashr etildi. Asar o`sha davda bunday darslikka bo'lgan ehtiyojlarni hisobga olgan holda 1917-yilda kelib ikkinchi marta qayta chop qilindi. Har ikki nashr ham hajm jihatidan bir-biridan farq qilmaydi. "Turkiy Guliston yoxud axloq"ning uchinchi nashrini 1967-yili "O'qituvchi" nashriyotida chop qilindi. Bunda asarda uchragan diniy iboralar, Hadisdan olingan hikmatlar davr talabiga ko'ra tushirib qoldirildi. Asarni "O'qituvchi" nashriyoti 1992 yil asli nusxa yozuvida (arab yozuvi asosidagi o'zbek yozuvida) va rus alifbosi asosidagi o'zbek yozuviga o'girilgan matni bilan birga, hamda, qiyin so'zlar lug'ati ilova qilingan holda bosmadan chiqardi. "Men bu asari nochizonamni birinchi maktablarimizning yuqori sinflarida ta`lim bermak ila barobar ulug` adabiyot muhiblari, axloq havaskorlarining anzori oliylarina taqdim qildim"[2. 33b]

Har tomonlama yetuk, barkamol insonni tarbiyalash, yomonlikdan qaytarib, yaxshilikka chorlash bevosita tarbiya bilan bog'liqdir. Asarning tarbiya haqidagi bobida shoir Pedagogikani bola tarbiyasi haqidagi fan ekanligini ta`kidlab o`tib, bolaning saodati uchun uni yaxshi tabiya qilmoq kerak ekanligini, tanasini pok tutmoqlikni, hali yoshlikdan boshlab yaxshi xulqlarni o`rgatish lozimligini hamda yomon xulqlardan uzoqda saqlash kerakligi haqida aytib o`tgan bo`lib, bu fikrlar hozirgi kunda ham o`z ahamiyatini yo`qotmagan, ya`ni yosh –avlod tarbiyasidagi asosiy g`oyalardan biridir.

"Turkiy guliston yoxud axloq" asarini "Yaxshi xulqlar" (31 fazilat) va "Yomon xulqlar" (20 illat) kabi qismlarga bo'ladi. Yaxshi xulqlar sirasiga quyidagilarni kelirib o`tadi: fatonat, diyonat, islomiyat, nazofat, g`ayrat, riyozat, qanoat, shijoat, ilm, sabr, hilm, intizom, miqyosi nafs, iffat, hayo, idrok va zako, hifzi lison, iqtisod, viqor, xavf va rajo, itoat, haqshunoslik, xayrixohlik, munsilik, sadoat, muhabbat, va avf. Yaxshi xukqlarning bayonini keltira turib quyidagi bayt keltiriladi:

Yaxshi birla yursa, har kim maqsudi hosil bo`lur,
Yursa nodonlar ila bir kun borub qotil bo`lur.
Kattalar qilgan nasihatni kichiklar olmasa,
Oqibat xulqi buzuq bir beadab johil bo`lur.[3.6 b]

Insonlarni saodatdan mahrum qiluvchi, Haq oldida hamda xalq nazarida ham mazmum qiluvchi xulqlarni yomon xulqlarga esa quyidagilarni sanab o`tadi: g`azab, shahvat,jaholat, safohat, hamoqat, atolat, hasosat, raxovat, anoniyat, adovat, namimat, g`iybat, haqorat, jibonat,hasad, nifoq, tama', zulmdir. Aynan Yuqorida keltirilgan yaxshi xulqlar ila farzandlarimizni xulqlantirmog`imiz hamda sanab o`tilgan yomon xulqlardan saqlamog`imiz zarurdir. Avloniy har bir yaxshi hamda yomon xulqlarga ta`rif berar ekan uning ahamiyati, bizning saodatga erishishimizda uning ta`siri haqida to`laqonli bayon etilgan. Misol tariqasida Ilmga ta`rif berar ekan, ilm inson uchun g`oyat oliy va muqaddas bir fazilat ekanli, ilmsiz insonni mevasiz daraxtga o`xshatadi. Ilm insonni jaholat botqoqidan qutqaruvchidir. Mutafakkirning pedagogik qarashlarida aql va ilmning yuksak darajada ulug'lanishi insonni ulug'lash bilan chambarchas bog'lanadi.

"Turkiy guliston yoxud axloq" asarini mutolaa qilar ekansiz asardagi keltirilgan pedagogik qarashlar hozirgi kunda ham o`z ahamiyatini yo`qotmaganligi, hozirgi ta`lim tarniya sohasida hamon dolzab ekanligini anglab yetasiz. Bu kitob zamonaviy pedagoglar yetishtirish, yangi darsliklar yaratish va majmualar yaratish uchun asosiy qo'llanma vazifasini o'tadi. Abdulla Avloniy pedagogika fanining asoschisidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jadidlar. Abdulla Avloniy[Matn]:risola./Olim Oltinbek.-Toshkent:Yoshlar nashriyot uyi, 2022.-156 b.
2. Abdulla Avloniy Tanlangan asarlar 2-jild. Toshkent "Ma`naviyat" 2009. ; 300 b.
3. "Turkiy Guliston Yoxud Axloq" 2-tab'i, sana 1336 h./1917 m. Toshkent, Tip. Lit. «Par. Sots. revolyuts» 1917g.
4. Qosimov B. Abdulla Avloniy.-Toshkent, 1979.
5. Dolimov, U. Abdulla Avloniy-milliy uyg'onish davri o'zbek pedagogikasining asoschisi.

Internet resurslar

1. https://uz.wikipedia
2. https://cyberleninka.ru/article

АМИР ТЕМУР САЛТАНАТИДА МЕҲМОННАВОЗЛИК АНЪАНАЛАРИ ЭЛЧИ КЛАВИХО ТАВСИФИДА

Назаров Расулбек
"ADVOCATE TEAM" Адвокатлик фирмаси Адвокат ёрдамчиси

Резюме. Ушбу мақолада Соҳибқирон Амир Темур салтанатидаги меҳмоннавозлик анъаналари Испания (Кастилия) элчиси Руи Гонсалес де Клавихо "Кундалик"лари асосида ёритилган.

Резюме. В статье освещается вопросы традиции и обряды гостеприимство государства Амира Тимура, в Самарканде оказание почести государем гостям во время визита на основе " Дневника" посла Испании (Кастилия) Руи Гонсалеса де Клавихо.

Summary. The article studies the issues of the tradition of hospitality of Amir Temur, honored by the sovereign to guests led by the Spanish ambassador during a visit to Samarkand, based on the diary of Rui Gonzales de Glavijo.

"Буюк соҳибқирон Амир Темур бобомиз биз - авлодларга қолдирган васиятида ғоят муҳим бир фикрга урғу бериб, " Эл дардига дармон бўлмоқ-эзгу вазифангиздир", деб таъкидлаши албатта бежиз эмас" Шавкат Мирзиёев

Калит сўзлар: Соҳибқирон, Амир Темур, салтанат Клавихо, меҳмоннавозлик, удумлар, анъаналар, маросимлар, элчилар, совғалар, таомлар, "тўққиз товоқ".

Ключевые слова: Саҳибкиран, Амир Тимур, государства, Клавихо, гостеприимства, обычае, традиции, обряды ,посли , подарки, пишы, "девят блюд".

Key words: Sokhibkiran, Amir Timour, reign, Clavijo, hospitality, conventions, traditons, ceremonys, ambassadors, presents, foods, "Nine meals"

Жаҳондаги барча халқ ва миллатларда меҳмоннавозлик удумлари ва анъаналари мавжуд бўлиб, улар узоқ асрлар давомида шаклланган ва сайқалланган қадриятлардан саналади. Бу қадрият ва анъаналар кўпгина халқларда бир-бирига жуда ўхшаш ва ўзига хос эканлиги ҳам эътироф этилади. Жумдадан дунёда салоҳиятли саналган ўзбек халқи ҳам ўзининг узоқ асрлик меҳмоннавозлик урф-одат ва анаъналарига эгадир. Халқимизда меҳмоннавозлик анъаналприни қадрият даражасида кўрсатилган дейиш мумкин . Меҳмондорчиликка бориш ва меҳмонларни кутиб олишнинг ўзига хос маълум "темир қонунлари" мавжудки, буларга тарихий манбаларда ва аждодларимиз меросида алоҳида теран баён этилган.

Ислом динида ҳар бир мўмин-мусулмон меҳмонини иззат-икром қилмоғи лозимлиги белгиланган. Қуръони каримда ҳам меҳмоннавозликка катта аҳамият берилиб, "Меҳмонларни ҳурмат қилинглар" деб буюрилган. Муқаддас ҳадисларда «Ким Аллоҳга ва охират кунига иймон келтирган бўлса, меҳмонини иззат-икром қилсин» дейилган. Расулуллоҳ (с.а.в) томонларидан таъкидланганки «Меҳмон учун бир кеча зиёфат ҳар бир

мусулмон зиммасида вожибдир» Шунингдек ҳадисда "Меҳмонни эъзозламаган қавм ёвуз қавм" деб уқтирилган. "Халқимизда " Меҳмон атойи худо", Меҳмон келар эшикдан, ризқи келар тешикдан каби нақллар ҳам мавжуд.

Ўзбек халқида ҳам меҳмоннавозлик урф-одатлари аждодлардан авлодларга ўтиб келаётган анъаналардан саналиб, бола туғилганидан бошлаб, оила, муҳити, мактабнинг бошланғич ва юқори синфларида ва кейинчалик эса бутун ҳаёт давомида унга меҳмоннавозлик фазилатлари сингдириб борилади. Қадимда ўзбекларда ички ва ташқи ҳовлилар мавжуд бўлиб, меҳмонлар ташқи ҳовлида дарвоза ёнида жойлашган махсус меҳмонхонада кутиб олинган. Бунда, 6-7 ёшли ўғил болалар келган меҳмонларни кутиб олишга жалб қилинганки, бу ўзига хос мактаб вазифасини ҳам ўтаган. Болада ёшлик давридан бошлаб меҳмонларни кутиб олиш, улар билан илиқ муносабатда бўлиш, яхши хизмат қилиш ва унда муомала маданиятини шакллантириш кабилар муҳим тарбиявий кўникмага эга бўлган.

Азалдан Туронзамин халқи жуда меҳмондўст бўлиб, меҳмонлар очиқ чеҳра билан кутиб олинган, йўловчини танимаса ҳам унинг ҳожатини чиқариш учун бор имкониятлар ишга солинган. Агар қишлоққа бирон йўловчи келиб тушса, қўшни бир-бирлари билан баҳслашиб, уни меҳмон қилиш учун ўзаро беллашишлари ҳақидаги маълумотлар учрайдики, бу ҳам бўлса бу ерда яшовчи маҳаллий аҳолининг нақадар сахийлиги, қўли очиқлиги ва меҳмондўстлигидан далолат беради.

Жаҳоннинг энг ҳосилдор, гуллаб яшнаган ва неъматларга бой минтақаларидан бири бўлган, Туронзаминнинг мева-чевалар бошқа мамлакатларникидан ҳам зиёда ҳамда ширин бўлган. Аҳоли кўпинча отларнинг гўштини кўпроқ истеъмол қилишган. Меҳмонлар юртимизда етиштирилган нозу неъматлар билан сийланиб, уларга иззат-икром кўрсатилган.

Буюк Амир Темур салтанати даврини ўрганишга бағишланган кўплаб манбаларда ва асарларда унинг ҳаёт йўли, болалик ва ўсмирлик даври, оиласи, фарзандлари, набиралари, ҳукмронлик қилган салтанат, унда бунёдкорлик ва ободончилик ишлари, илм-фан аҳлига ҳомийлиги, маданият ва санъатни ривожлантиришга эътибори, давлат бошқаруви тизими, сиёсий ва ҳарбий соҳалардаги ютуқлари ёритилган маълумотлар мавжуд.

Лекин Соҳибқирон ҳазратларинг меҳмоннавозлик фазилатлари, салтанатидаги меҳмондўстлик анъаналари тадқиқотчилар назаридан бир оз четда колган. Фикримизча, буюк ҳукмдорнинг бошқа юксак инсоний эзгу фазилатлари билан бир қаторда, меҳмоннавозлиги барчада катта қизиқиш уйғотади. Зеро, бу эзгу қадриятлари ўша даврдаги аждодларимизнинг турмуш тарзи ва урф-одатларини теран ўрганишга ҳам яқиндан ёрдам беради.

Амир Темурнинг меҳмоннавозлик фазилатлари ҳақидаги айрим, лавҳа кўринишидаги маълумотлар унинг ҳузурида меҳмонда бўлган санoқли

шахслар ёки мамлакат ҳудудига ташриф буюрган элчи ва саёҳатчиларнинг кундаликлари ҳамда хотира асарлари кўринишида ёзиб қолдирилган баъзи манбаларда мавжудки, бу маълумотлар тарқоқ, йўл-йўлакай таъкидлаб ўтилган, халос.

Соҳибқирон ҳаёти ва фаолиятини ўрганишга бағишланган муаррихлар Низомиддин Шомий[17], Шарафуддин Али Яздий[18], Ибн Арабшох[19] ҳам муаррихлар ва Руи Гонсалес де Клавихо[20] каби томонидан ёзиб қолдирилган асарлар ва кундаликларда маълумотлар мавжуд. Ана шундай ноёб манбалар сирасига 1404 йил кузида Самарқандда Темурбек саройида бўлган Испания (Кастилия) элчиси Руи Гонсалес де Клавихонинг "Кундалик"лари энг муҳим манбалардан саналади.

Мазкур "Кундалик"да Амир Темурнинг мулозимлари Эрон ва Хуросон мамлакатларидаги ҳарбий юришларидан қайтишларида йўл-йўлакай уй-жойсиз, маблағсиз фуқаролар, етим-есирлар ва камбағалларни ўзлари билан Самарқандга кўчириб олиб келишган ҳамда буюк ҳукмдор кўрсатмаси бўйича улар барча зарурий нарсалар билан таъминланганлиги ёритилган.

Клавихо бошчилигидаги элчилар 1404 йил 21 августда жуда катта, аҳолиси кўп бўлган Термиз шаҳрига етиб келишган, шаҳар девор ва тўсиқлар, иҳота деворлари билан айлантирилмаган бўлсада, лекин боғлар ва каналлар билан ўралган. Бу шаҳарда саёҳатчиларга ҳурмат-иззат кўрсатилган, уларни кийим-кечаклар ва бошқа барча зарурий ашёлар билан таъминланган.

Элчининг "Кундалик"ларида ёзилишича Амир Темурнинг навкарлари элчилар билан учрашгани, уларнинг аҳволидан доимо хабар олиб, меҳмонларга от совға қилишганлиги ҳақидаги маълумотларни келтирилган. "Кундалик",да Соҳибқироннинг ҳотамтойлиги, меҳмондўстлиги, унинг меҳмонларга қилган ҳадялари ҳақидаги маълумотлар ҳам мавжуд.

Клавихо ўз "Кундалик"ларида 28 август пайшанба куни Кех (Кеш) шаҳрида бўлганлиги, унинг катта шаҳар эканлиги, атрофи ҳимоя девори ва чуқур ҳандақлар билан ўралганлиги, текис жойда жойлашганлиги, шаҳарнинг ҳар тарафидан суғориш каналлари ва дарёлар ўтганлиги, обод эканлиги, шаҳар атрофи аҳоли яшаш жойлари ва боғлар билан ўралганлиги хусусида тўхталиб ўтади. Шунингдек, суғориладиган майдонларда буғдой, узум, пахта, қовун ва бошқа турли мевалар ва сабзавотлар етиштирилганлигини қайд этиб, мевалар билан бу ҳудудга келган меҳмонларни сийланганлигини таъкидлаган.

Элчи томонидан Амир Темурнинг меҳмондўстлиги ҳақида ёзиб қолдирилган маълумотлардан яна бирида унинг отаси ва ўғли Жаҳонгир Шаҳрисабзда дафн қилинганлиги маълум қилиниб, шу масканларда отаси ва

фарзанди хотираси учун ҳар куни йигирмата пиширилган қўйни эҳсон сифатида камбағалларга тортиқ қилиниши, меҳмонлар шарафига шу масканда кеча уюштирилиб, жуда кўп гўшт ва мевалар билан сийлаб меҳмон қилишгани ва тунаш учун уларни катта саройга олиб боришганини ёзиб қолдирилган. Худди шунингдек, 30 август, шанба куни, меҳмонлар Амир Темурга тегишли бўлган улкан, чиройли боғ ичида жойлашган катта уйда тушлик қилишиб, дам олишганлиги ҳам таъкидланган.

Ниҳоят, 11 август пайшанба куни Элчи Клавихо ва унинг ҳамроҳлари Самарқанд шаҳрига етиб келишганда, уларни Гулбоғ номли боққа жойлаб, чодир тикишларига рухсат қилинади. Элчи ва ҳамроҳлари қўним топишган боғнинг жуда чиройли ва бежирим эканлигини моҳирона тасвирлаган. Шунингдек, "Кундалик"да меҳмонларга кўп миқдорда гўшт маҳсулоти берилгани ҳамда бошқа зарурий нарсалар билан ҳам таъминланганлиги ҳақида маълумот ёзиб қолдирилган.

Соҳибқирон 1404 йил тўртинчи сентябрь, пайшанба куни чет эллик меҳмонлар жойлашган боққа ўз одамларини жўнатиб, ҳозирча улар билан учраша олмаслигини айтган, зерикиб қолмасликлари учун, улар ҳурматига шу куннинг ўзидаёқ байрам уюштирган. Меҳмонларга кўплаб қўйлар олиб келишиб, сўйиб овқатлар тайёрлашган. Гуручни турли усуллар билан пиширишган, от гўштини қовуришган ва меҳмонларга турли мева-чевалар тортиқ қилинган. Тадбир сўнггида меҳмонларга иккита от, бош кийимлар ва бошқа кийим-кечаклар, совға саломлар берилган.

Темурбек чет эллик меҳмонларни Самарқанд шаҳри ичкарисида эмас, балки шаҳар ташқарисидаги муҳташам боғларда кутиб олганлиги ва уларни шу боғларда меҳмон қилганлиги ҳақидаги маълумотлар мавжуд. Соҳибқирон даврида бундай боғлар жуда кўп бўлиб, улар жуда ҳашаматли қилиб яратилган эди.

Амир Темурнинг меҳмоннавозликлик фазилатлари ҳақида тўлақонли маълумотларни унинг Испания элчилари билан бир неча марта бўлиб ўтган учрашувларида намоён бўлган. Хусусан, Соҳибқирон 8 сентябрь, душанба куни меҳмонларни кўриш истагини билдириб, уларни Боғи Дилкушода қабул қилган. Меҳмонларга ўзлари билан буюк ҳукмдорга тортиқ қилиш учун олиб келган совғаларини хизматкорларга топширишлари кераклиги айтилган. Хизматкорлар совғаларни Темурбекка чиройли кўринишда тақдим қилишга ҳаракат қилишган. Улар меҳмонларни ҳукмдор чорловига олиб келишган, қўноқлар эса ўнг оёғи билан тиззалаб, қўлларини кўксида чалиштириб, ҳурмат бажо келтиришган.

Темурбек эса улардан янада яқинроқ келишларини сўраган. Шундан кейин элчиларнинг Хитой элчиларидан пастроқда ўтирганлигини кўриб, уларни пастроққа, Испания элчиларини эса ўзига яқинроққа, яъни юқорига ўтқазишларини сўраб, уларга алоҳида илтифот кўрсатган. Бундан кейинги барча расмий учрашувлар ва меҳмондорчиликларда шу таомил сақланиб, меҳмонлар шу кўрсатилган тартибда жойлаштирилган.

Соҳибқирон салтанати даври меҳмондорчилигининг ўзига хос томонларидан бири сифатида шуки, меҳмон қанчалик узоқдан келган ва ҳурматли бўлса, уни шунчалик узоқ вақт куттиришдан кейингина қабул қилинган. Масалан, Хитой элчилари 1395 йил Самарқандга келишган бўлсалар, улар фақатгина 1397 йили буюк ҳукмдор билан учрашишган. Шунингдек, меҳмонлар келтирган совғалар ҳам маълум муддат сақланиб, шундан кейингина Соҳибқиронга тақдим этилган.

Lingvopoetik tahlil usuli ilmiy jihatdan asosli bo‘lishiga qaramay, uning bir qator qiyinchiliklari bor. Bu qiyinchiliklar u yoki bu asarga yondoshuv jarayonida ayon bo‘ladi. Chunki bu tahlil usulida har bir she’riy matnda individual tarzda, alohida yondoshish talab qilinadi. Ma’lum bir she’riy matn tahlilida zarur, foydali bo‘lgan tahlil usuli ikkinchi bir she’riy matn tahlilida unchalik foyda bermasligi mumkin. Bundan ko‘rinadiki, she’riy matnning bir butun yaxlit tahlili, lingvopoetik tahlili usuli o‘zining juda ko‘plab ko‘rinishlari, qismlariga ega. Lingvopoetik tahlilning ana shunday ko‘rinishlaridan biri she’riy matnning so‘zma-so‘z tahlil usulidir. Bu usulda she’riy matnning lingvopoetik tahlili so‘z orqali, she’rning so‘zga bog‘liq misra, qofiya, turoq, ohang, pauza kabi elementlariga suyangan holda olib boriladi. Ammo bu tahlil usulini ham qolip usulida foydalanib, barcha she’riy matnlarga birdek qo‘llanish mumkin emas, ya’ni har bir she’riy matn bu tahlil usulida konkret, individual yondoshuvni talab qiladi.

Bu o‘rinda birinchi vazifa tahlil qilinayotgan she’riy matndagi yetakchi so‘zni belgilash, (dominanta)ni topishdan iboratdir. Ana shu dominant belgilar to‘g‘ri va aniq topilsa, lingvopoetik tahlil aniq va ilmiy jihatdan asosli bo‘lib chiqadi. Masalan, shoir Erkin Vohidovning “Shoir umri” deb nomlangan parodiya-she’ridan olingan quyidagi matn parchasiga diqqat qilaylik:

“Mana, men Lermontov yoshiga yetdim,
Bir shoir umrini yashadim chindan”.
Qancha qog‘ozlarning boshiga yetdim,
Va lekin Lermontov chiqmadi mendan.
Do‘stlarim, ortiqcha kamtarlik nega,
Kelajak o‘n yilni ko‘rdim oldindan.
Vaqt kelar, yetarman Pushkin yoshiga,
O’shanda... Pushkin ham chiqmaydi mendan[24].

Yuqorida keltirilgan she’riy matnning dominantasi, asosiy belgisi nima, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Bu matnning yetakchi so‘zlari – ikki shoirning nomi, *antroponim (Lermontov, Pushkin),* yetakchi belgi esa lirik qahramon – shoir “men”ining o‘z-o‘zini fosh etishidir. Ana shu ikki xususiyat bu she’riy matn lingvopoetik tahlilining asosini tashkil etadi.

Yuqorida keltirilgan she’riy matndagi lirik qahramonning so‘zlash ohangida mahobat, mubolag‘a, ko‘tarinki ohang sezilib turadi. Bu ohang Pushkin va Lermontovning mangu umri va “dumbul shoir” – lirik qahramonning ularga nomunosib yoshi – bu she’riy matnni badiiy asar sifatida ko‘tarib turgan asosiy omillardir.

Lirik qahramon – “men” o‘zining notavonligidan or qilish o‘rniga faxrlanib gap sotayotgan bir shoir qiyofasida namoyon bo‘ladi. Bu holatni mazkur she’rning parodiya janrida yozilganligi bilan ham izohlash mumkin. Nima bo‘lganda ham “dumbul shoir”ning gap sotishi, maqtanchoqlik qilishi bu she’rning muhim elementiga aylangan.

Shovvoz shoirning xatti-harakati uning maqtanib gap sotish ohangiga, so‘zlariga o‘tib qolganday tuyuladi. She’rni o‘qigan kitobxon lirik qahramon - “men”ning kibrli, shu bilan birga kulgili qiyofasini xuddi sahnadagidek aniq ko‘rib turadi. She’rdagi har bir so‘z lirik qahramon – dumbul shoir qiyofasining yangi tomonlarini ochishga xizmat qiladi.

She’riy matnning ikkinchi misrasida asosiy e’tibor *shoir umri* birikmasiga qaratiladi. Lekin hozircha bu umrning qanday umr ekanligi kitobxondan sir tutiladi.

She’riy matnning uchinchi misrasidan lirik qahramon – dumbul shoirning “tilidan tutilish” jarayoni boshlanadi. Ana shu misradan boshlab shoir atalmish bu odam o‘zini o‘zi fosh eta boshlaydi. Qancha qog‘ozlarning boshiga yetdim hamroh qofiyadosh misra ta’sirida ongning qaysidir qatlamlarida “qog‘ozlarninggina emas,

[24] Воҳидов Э. Сайланма. Биринчи жилд. Ишқ савдоси.. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа концерни бош таҳририяти, 2000. – Б. 44.

Lermontovning boshiga yetdim" sifatida jarangdor eshitiladi. Chunki Lermontov ayni shu oq qog'oz sahifalari orqali o'zining buyuklik sharafiga erishgan edi. Bu o'rinda lirik qahramon – dumbul shoir "osilsang, baland dorga osil" qabilida ish tutib, o'zini Lermontovga tenglashtirishga intiladi. Bu esa kitobxon ko'z o'ngida buyuk shoir Lermontov ruhiga isnod, uning boshiga yetishga o'xshash narsa sifatida tasavvur hosil qiladi.

Ana shu tasavvur ta'sirida she'riy matnning to'rtinchi misrasi kitobxon tomonidan ilgaridan ma'lum, shubha uyg'otmaydigan gap singari qabul qilinadi. Negaki, ramziy ma'noda bo'lsa-da, Lermontov boshiga yetgan kimsa – dumbul shoirdan Leriontov chiqmasligi o'z-o'zidan ayon bo'ladi. Ana shuning ham misra tarkibidagi *"mendan"* so'zini lirik qahramon – shovvoz shoir biroz pastroq ohangda hafsalasizlik bilan talaffuz qiladi.

O'rgangan ko'ngil o'rtansa qo'ymas, deganlaridek, quruq dabdabaga o'rganib qolgan lirik qahramon – dumbul shoir nafasini biroz rostlab olib, yana chirranishni, maqtanib kerilishni boshlaydi. Endi u kelajakdan o'ziga tasalli qidiradi: *Vaqt kelar, yetarman Pushkin...* O'qishdagi pauza, yozilishda satr oxirlaganidan ko'ringani singari lirik qahramon ham shu yerda bir to'xtab olib, bexosdan *"yetarman Pushkinga!"* deb yuborishiga sal qoladi. Shovvoz shoir bunday deyishga, faxrlanishga jur'at etolmay "yoshiga" so'zini istar-istamay bir amallab aytib qo'yadi; *"o'shanda"* so'zi talaffuzida esa chuqur bir nafas olib, o'zidan ham, olamdan ham hafsalasi pir bo'lgan holda sekingina *Pushkin ham chiqmaydi mendan* deb o'z she'riy nutqini tugatadi.

She'riy matnda keltirilgan *Pushkin yoshi* birikmasi ham kitobxonda xuddi shunday tasavvur uyg'otadi. Chunki *Pushkin yoshi* birikmasida Pushkin yo'q, faqat 38 yosh bor, xolos. She'rning lirik qahramoni – shovvoz shoir Pushkin yoshiga ham albatta yetadi, chunki o'tayotgan yillar, umr undan ruxsat so'ramasdan ham o'taveradi. Ammo shovvoz shoirdan genial Pushkin chiqmasligi aniq.

She'riy matnning bu misrasidagi *Pushkin* so'zi genial shoir Pushkinning shon-sharafidan, buyuklik ramziga aylangan bu qutlug' nom – tarixiy shaxsning butun kuchidan foydalanadi.

Shunda ikkinchi misradagi *shoir umri* quruq 27 yildan, she'r so'ngidagi "avans" umr besamar 38 yildan iborat ekanligi ma'lum bo'lib qoladi. Bu raqamlar Pushkin va Lermontovning boqiy umri oldida tasodifiu va kichik narsalarga aylanadi. Ya'ni lirik qahramon – shovvoz shoirning yoshi puch yosh, umri esa puch umr ekanligi ma'lum bo'ladi.

Shovvoz shoir o'zining ana shunday notavonligini biladi, lekin ana shu haqiqatni ham dabdaba, maqtanchoqlik pardasi bilan yopmoqchi bo'ladi. Lirik qahramon umri davomida amalga oshmagan ishlaridan – *"Lermontov chiqmadi", "Pushkin chiqmaydi"* deb kerilar ekan, bu holat kitobxonda achchiq kulgi qo'zg'aydi. Aslini olganda, haqiqiy shoirlarning umri qandaydir yillar bilan o'lchanmaydi, *Pushkin, Lermontov* kabi daho shoirlarning umri esa boqiylikka dahldordir.

Bu she'riy matnda ikki buyuk shoirning nomi ikki karra takror qo'llangan. Bu takrorlar matnda *Lermontov yoshi – Lermontov, Pushkin yoshi – Pushkin* ziddiyatlarini hosil qilish uchun bo'ysundirilgan. Bu ziddiyatlarning qo'llanishidan maqsad foniy dunyoda kechgan yillar sanog'i genial shoirlar uchun mutlaqo ahamiyatli emas, ularning yoshi, umri mangulikka teng, degan muhim ilmiy xulosani ta'kidlashdir.

Ammo bu genial shoirlarning yorug' dunyoda kechirgan yillari, yoshi shoirlikka da'vogar kimsaga – shovvoz shoirga kerak. U o'zining puch yoshini daho shoirlar umriga taqqoslab, shon-sharafga ega bo'lish niyatida. Lekin bu o'rinda ham kaltak o'sha shovvoz shoirning o'z boshiga sinadi, ya'ni geniylikka, daholikka davogar o'z davosidan kechadi, Lermontov va Pushkin kabi buyuk shoirlarning nomi uni shunday qilishga majbur qiladi.

Demak, bu tahlildan ko'rinadiki, she'riy matnni yuqoridagi singari yaxlit so'zma-so'z tahlil qilish o'sha she'rdagi badiiy mazmunni, ko'zga tashlanmaydigan nozik ma'no qochirimlarini ochib berish uchun boy imkoniyatlar yaratadi.

Shu o'rinda bir savol tug'iladi. Har qanday she'r so'zlardan tashkil topganidek, uning har qanday tahlili ham so'z orqali amalga oshiriladi-ku! She'riy matnning yaxlit, bir butun lingvopoetik tahlili boshqa tahlillardan qanday xususiyati bilan ajralib turadi? To'g'ri, she'riy matnning barcha tahlillari ham so'zga tayanib ish ko'radi, lekin boshqa tahlillar she'r tarkibiga kirgan so'zlarni birma-bir izohlash, uning botiniy mazmunini ochish asosiga qurilmaydi. O'z vaqtida ulug' V.G.Belinskiy to'g'ri ta'kidlaganidek, "lirik asarda, har qanday poeziyada bo'lgani singari, fikr so'z bilan bayon qilinadi, lekin u fikr sezgi orqasiga yashiringan bo'ladi va bizda mushohada uyg'otadi, buni esa ongning ochiq va aniq tiliga ko'chirish qiyin"[25].

Masalan: Hamid Olimjonning "Xayolimda bo'lding uzun kun..." deb nomlanuvchi lirik she'ri shunday misralar bilan tugallanadi:

Kecha jimjit, yolg'iz to'lqinlar
Pishqiradi bilmay tinimni.
Hiylagar oy, sehrgar dilbar,
Solib qo'yding yodimga kimni?...[26].

Bu she'riy matn tarkibidagi so'zlar biror mantiqiy fikr ifodalamasdan, faqat hissiyotga ta'sir etish va kitobxonda assosiativ tuyg'ular uyg'otish uchun xizmat qilmoqda. Bu she'rning poetik mazmuni uning ichida emas, balki undan tashqarida, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, ham she'riy matn tarkibida, ham undan tashqarida o'z ifodasiga ega bo'lmoqda.

Tadqiqotchi olimlar lirik she'rdagi ma'no, poetik mazmunni quyidagicha ikkiga ajratib o'rganadilar: a) konseptual ma'no, b) poetik ma'no[27]. Bu ma'nolar

[25] Белинский В.Г. Танланган асарлар. – Тошкент: Ўзадабийнашр, 1955. – Б. 142.
[26] Ҳамид Олимжон. Мукаммал асарлар тўплами. Ўн томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1979. – Б. 198.
[27] Звегинцев В.А. О значениях и значимостях в поэзии // Замысел, труд, воплощение. – М.: Наука, 1977. – С. 12.

orasidagi munosabat, aloqadorlik turli she'rlarda turlicha xususiyatga ega. Yuqorida biz keltirgan she'riy matnda ifodalanayotgan poetik ma'no uning zamiridagi konseptual ma'nodan ancha ustunlik qiladi. Shuning uchun ham bu she'riy matni so'zma-so'z tahlil qilish yaxshi samara bermaydi, uni yaxlit, lingvopoetik nuqtai nazardan o'rganish orqaligina uning zamiridagi nozik poetik his-tuyg'uni anglash mumkin.

Demak, bundan ko'rinadiki, har bir she'riy matn tahliliga konkret yondoshish lozim bo'ladi. Hamma she'riy matnga birdek mos tushadigan tahlil qilish usuli yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. She'riy matnni so'zma-so'z tahlil qilish konseptual ma'nosi ustun bo'lgan she'rlarga muvofiq keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Воҳидов Э. Сайланма. Биринчи жилд. Ишқ савдоси.. – Тошкент: "Шарқ" нашриёт-матбаа концерни бош таҳририяти, 2000. – Б. 44.
2. Белинский В.Г. Танланган асарлар. – Тошкент: Ўзадабийнашр, 1955. – Б. 142.
3. Ҳамид Олимжон. Мукаммал асарлар тўплами. Ўн томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1979. – Б. 198.
4. Звегинцев В.А. О значениях и значимостях в поэзии // Замысел, труд, воплощение. – М.: Наука, 1977. – С. 12.

РОЛЬ И ЗАДАЧИ ОТЕЧЕСТВЕННЫХ ПЕРЕВОДЧИКОВ В РАЗВИТИИ ПЕРЕВОДЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В НАШЕЙ СТРАНЕ

Жалолова Ситора
Студентка 2 курса магистратуры
Группы М-2102 (фр.рус)
Факультета РГЯ СамГИИЯ

Аннотация. Всем известно, что на сегодняшний день на прилавках нашей страны все больше можно встретить произведения зарубежных авторов, переведенных на узбекский язык. Но все ли эти переводы соответствуют правилам профессионального художественного перевода? Какие ошибки допускают молодые переводчики? И какие меры нужно принять для их устранения? Данная статья посвящается изучению этих и других проблем переводческой деятельности в нашей стране.

Ключевые слова: перевод, переводчик, художественный перевод, непосредственный перевод, теория перевода, критика перевода, словари, переводоведение, художественный перевод, словарный запас

Со времен независимости в узбекской литературе наряду с другими жанрами и направлениями развивается и направление художественного перевода. Особо радует развитие непосредственного перевода с языка оригинала. В нынешнее время наша молодежь преуспевает в переводе избранных трудов узбекских писателей в иностранные языки.

Давайте, во-первых, заглянем в историю теории перевода. До 20 века термин «перевод» применялся только к переводу исторических, философских, литературных и художественных произведений. А устных переводчиков тюрки называли «тилмоч», немцы «dolmetechen», а французы – «interpret». Представления о теории перевода в то время тоже носило общий характер.

Исследования, посвященные теории перевода, впервые начали возникать в 20-30-годах прошлого века. В написанных в то время трудах Амоса, Постгета, Финкеля, Алексеева можно встретить упоминания о теории перевода, как об отдельной науке. Обсуждения и споры в этой области начались после выхода статей знаменитого переводчика Ивана Кашкина и лингвиста Реформацкого, посвященные теории перевода. Реформацкий считал, что несмотря на заслуги переводческой деятельности перед наукой, теория перевода не может считаться отдельной наукой и остается лишь областью лингвистики. После этого начали появляться ряд исследований и статей за и против этого мнения. В 1953 году в Париже была основана Международная федерация переводчиков. С 1955 года начали выпускать литературный журнал Babel, основанный этой федерацией.

С этих пор начали распространяться статьи ученых со всего мира, посвященные проблемам теории и критики перевода. К 70-годам прошлого века сформировалась самостоятельная наука переводоведение.

В Узбекистане свой вклад в науку переводоведение внесли такие ученые, как Жуманиёз Шарипов, Нинель Владимирова, Гайбулла Саломов, Наджмиддин Комилов и Кудрат Мусаев.

За эти 32 года независимости в нашей стране, как и во всех аспектах художественного творчества, применялись инновации и в области теории и практики перевода. По указу Президента страны был основан переводческий журнал «Мировая литература» на узбекском языке. Во главе с известным литературоведом и переводчиком Озодом Шарафиддиновым в этом журнале начали издавать переводы избранных мировых произведений на узбекский язык. Выпуск этого журнала сыграл важную роль в развитии практики перевода с оригинала на родной язык.

Сегодня практика перевода (независимо от вида перевода) основывается на знании. Несомненно, нельзя отрицать, что в ходе творчества и у интуиции есть свое место. Но именно определенные знания позволяют добиться полного и достоверного перевода. Эти знания тесно связаны с такими областями науки, как лингвистика, грамматика, стилистика, семантика, семиотика (наука о пунктуации) и др.

Четверть века до этого не все в нашей стране верили, что можно переводить произведения непосредственно с иностранного языка. Но сегодня в книжных магазинах можно встретить много книг, переведенных с языка оригинала. Их можно разделить на три группы. Первые – это переводы, осуществленные не с языка оригинала, а с языка посредника. Вторые – это такие же переводы с языка посредника, но обличенные ярлыком «непосредственный перевод». Третьи – это настоящие переводы с оригинала. Но, к сожалению, к переводам третьей группы сложно добавить определение «художественный». Потому что в нашей стране на сегодняшний день сложно найти непосредственный перевод произведений достойных такого определения. Но, тем не менее, количество таких «непосредственных» переводов непрерывно растет. Если уж такое явление начало происходить, то высшим учебным заведениям и переводческим школам, также всем ученым и любителям этой области нужно объединить свои усилия, чтобы в будущем начать готовить настоящих профессиональных переводчиков. Только в этом случае можно добиться заметных результатов в этой области.

Есть теоретические и практические задачи в подготовке грамотных переводчиков, способных глубоко проанализировать переводимые ими произведения. Признав важность вклада наших ученых в развитие теории перевода, нужно заметить, что в настоящее время в нашей стране проводится недостаточно исследований в области критики перевода, которые могли бы стать толчком к развитию этой области. По этой причине, в сегодняшний день многие переведенные с иностранного языка произведения не получают

своей должной оценки. Иногда даже не указывается с какого языка переведена эта книга. По этим замечаниям можно судить, что, в основном, в таких произведениях перевод производится не с языка оригинала, а с готового перевода данного произведения на русский язык. Иногда прочитав перевод книги какого-нибудь знаменитого писателя невозможно обнаружить в нем ни его стиль, ни талант. Такие переводы должны быть своевременно проанализированы и должны получить соответствующую оценку. В противном случае возрастут случаи некачественного перевода.

Вот почему так важны научные исследования и новые учебники в области теории и критики перевода. Ведь никому не секрет, что в наше время растет количество изданий переводов, которых не коснулось перо грамотного редактора.

Для подготовки кадров, отвечающих мировым стандартам необходимо не только создать новые учебники по теории и практики перевода, но и пособия по переводу текстов художественного, научного-технического и официально-делового стиля, а также издать побольше двуязычных и многоязычных словарей. Не умаляя значения изданных до сего дня англо-узбекских, немецко-узбекских, франко-узбекских словарей, однако нужно заметить, что они еще недостаточно отвечают требованиям переводчиков. На сегодняшний день необходимы большие синонимические и энциклопедические словари.

Между переводом и сравнительной лингвистикой есть очевидные сходства. Но не изучив грамматические, лексические и стилистические проблемы перевода самостоятельно, невозможно изучить связь этой науки с другими областями лингвистики такими, как прагматика, когнитивная лингвистика, психолингвистика, семиотика и др. Изучение иностранных исследований по переводоведению оказало бы очень плодотворное влияние для будущих переводчиков. Труды таких знаменитых переводчиков как Джона Кетфорда и Юджин Найда до сих пор не утратили своего научного значения. Не правильно начать размышлять об анализе переводимого произведения, не изучив в достаточной мере теорию перевода.

Переводчик должен быть не только знатоком иностранного языка, но и в полной мере обладать знаниями по литературе и культуре этой страны. Потому что, не изучив в глубокой мере культуру, мировоззрение и словарный запас какой-либо страны, невозможно прочувствовать поэтические свойства языка, правильно подобрать художественные приемы в переводе текста и в результате текст может получиться некачественным и неинтересным. Нужно также подчеркнуть важность навыка подбора слов для передачи тексту национального колорита, правильной подачи идеи и цели автора при переводе иностранного произведения.

В художественном произведении важную роль играют изображение чувств человека, действий и обстоятельств, с которыми он сталкивается. Нехватка словарей именно по этим темам и является причиной

неправильного перевода художественного текста. Знать иностранный язык еще не означает знать его художественный язык. Выбор текста оригинала, его понимание, ознакомление с его историей и обстоятельствами написания, а также выбор стиля и стратегии перевода являются основными задачами при переводе текста, и профессиональный переводчик никогда не позволит себе пренебречь ими. Все внимание переводчика сводится к изучению и поискам, а главная его цель – это сблизить культурные феномены двух стран, и сделать их более понятными посредством перевода.

Но для этого недостаточно знать лишь законы, процессы и технологии. Они составляют лишь основу. Это лишь подготовка, прежде чем нырнуть в океан задач, которые ставит перед нами перевод художественного текста. Только при помощи правил и закономерностей невозможно сделать текст красочным, поэтичным и впечатляющим. Для этого, несомненно, требуется талант переводчика.

В последние 20 лет десятки примеров избранной восточной литературы были переведены в узбекский язык. Если в 80-е годы прошлого века основная часть этих произведений были переведены с русского языка на наш родной язык, то в 90-е годы большее значение уделялось непосредственному переводу с оригинала. В эти времена также возросло количество перевода узбекских произведений и трудов на другие восточные языки. Труды таких известных писателей, как Чулпан, Абдулла Кадирий, Ойбек, Гафур Гулям, Пиримкул Кодиров, Одил Якубов, Саид Ахмад, Шукрулло, Уткир Хошимов были переведены на турецкий, китайский, арабский и корейские языки. Несмотря на это, все же, количество переведенных произведений с узбекского на другие восточные языки уступает количеству переведенных произведений с восточных языков на наш родной язык. Мне кажется, причиной этого является нехватка отечественных переводчиков, специализированных в этой области. Если рассмотреть это в примере переводов, осуществленных на узбекском и турецком языках, можно заметить, что до сегодняшнего дня переводы узбекских произведений на турецкий язык, осуществлялись в основном турецкими переводчиками. Тоже самое можно сказать о переводах на другие языки. Так как, при переводе художественного текста главное значение имеет передача и возрождение культурного кода страны, то именно над этим и должны работать начинающие переводчики.

Обобщая вышесказанные мнения и предложения, можно отметить, что, действительно, в годы независимости резко развилась практика перевода с иностранного языка на узбекский и наоборот. Особенно радует развитие непосредственного перевода текстов с языка оригинала. В настоящее время наблюдается нехватка научных исследований, учебников и пособий по теории, основам и направлениям перевода и словарей по художественному переводу произведений. Кроме этого наблюдается пассивность в области критики перевода. Надеюсь, что эта статья станет причиной изучения

проблем в этой области переводческой деятельности и подтолкнет молодое поколение к новым исследованиям и научным открытиям.

Список использованных интернет ресурсов

1. Сайт центра учебного консультирования «Метрополия». Статья «Роль перевода в современном мире». Режим доступа: http://metropolys.ru/artic/17/03/k-0117-04949.html, свободный.
2. Электронный вариант книги В.Н. Комиссарова «Современное переводоведение». Учебное пособие. – М.: ЭТС. — 2001. — 424 с. Цитата со стр.
3. https://www.azurit.kiev.ua/ru/2019/12/17/rol-perevodchika-v-sovremennom-mire/

OYBEKNING "NAVOIY" ROMANIDA TEMURIYLAR DAVRI TALQINI

Normuminov Laziz Yuldash o'g'li
Nizomiy nomidagi TDPU talabasi

Annotatsiya. Oybek temuriyzodalar taqdiri bilan qiziqqan, ular taqdiridan buyuk olamning adolatli xulosani ko'ra olgan adib hisoblanadi."Navoiy" romanini yaratishda shoirning ma'lum bir davrini qalamga oladi, yozuvchi tanlagan aynan shu davr Navoiy siysosini hamda siyratini ko'rsatadigan ulkan davrni o'z ichiga olgan.

Kalit so'zlar: davr qahramonlari, ijtimoiy muhit, madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy faoliyat, falsafiy qarashlari, falsafiy qarashlar.

Annotation. Oybek is a writer who is interested in the fate of the Timurids, and is able to see a fair conclusion of the great world from their fate. In the creation of the novel "Navoi", he writes about a certain period of the poet, and the writer chose this period to create a great period that shows Navoi's politics and poetry. containing

Key words: heroes of the era, social environment, cultural-educational, socio-political activity, philosophical views, philosophical views.

Аннотация. Айбек – писатель, интересующийся судьбой тимуридов, способный увидеть в их судьбе справедливый вывод большого мира.В создании романа «Навои» он пишет об определенном периоде поэт, и писатель выбрал этот период, чтобы создать великий период, который показывает политику и поэзию Навои.

Ключевые слова: герои эпохи, социальная среда, культурно-просветительская, общественно-политическая деятельность, философские воззрения, философские воззрения.

Oybek Navoiy romanini yaratguncha bo'lgan davrda yozgan asarlarida davr qahramonlarini orqali shu makon ijtimoiy muhitini yoritish va unga xalq vakillari tomonidan munosabat berish orqali o'z maqsad va g'oyalarini berib borgan. Aynan Navoiy romanini yaratish uchun yozuvchida kuchli tajriba hamda Navoiy siymosiga chuqur ehtirom mavjud edi. Yozuvchining shoirga bo'lgan hurmatini uni she'rlaridagi Navoiy timsolida ham ko'rish mumkin.

Oybek o'zaro taxt talashishlar orqali o'zlari ham o'sha davrdagi xalqni ham urush olovida qovurgan temuriylar davridagi ijtimoiy muhit mohiyatini aks ettirish, Husayn Boyqaro qurgan saltanatdan Navoiy taratgan yorug'lik nurlarini kitovxonlarga ulashish, uzoq o'tmish manzaralarini jonli xarakterlar orqali ko'rsatib berish kabi vazifalarni o'z zimmasiga olgan mahoratli, keng mushohadali yozuvchi sanaladi.

Oybek temuriyzodalar taqdiri bilan qiziqqan, ular taqdiridan buyuk olamning adolatli xulosani ko'ra olgan adib hisoblanadi. Bu uning Amir Temur haqida bir asar yozish maqsadida ekanligini ko'rsatadi.

Oybek "Navoiy" romanini yaratishda shoirning ma'lum bir davrini qalamga oladi, yozuvchi tanlagan aynan shu davr Navoiy siysosini hamda siyratini ko'rsatadigan ulkan davrni o'z ichiga olgan.

Yozuvchi romanda 1469- yilning ko'klamidan 1501 -yilning yanvarigacha bo'lgan o'ttiz ikki yillik voqealarni tasvirlagan. Bu davrda Husayn Boyqaro podsholigi boshlangan edi. Husayn Boyqaro davrida eng muhim siymolardan biri, o'sha davr ijtimoiy muhitida o'chmas iz qoldirgan shaxs Navoiy obrazini yoritish edi.

Navoiy qizg'in madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy faoliyatda tasvirlanadi. Donishmand va tadbirkor Navoiy marhamatli va talabchan ustoz, madaniyat-ma'rifat va obodonchilik ishlarining rahnamosi, insof diyonat, adolat himoyachisi, mamlakat va xalq osoyishtaligining posboni sifatida namoyon bo'ladi. Oybek Navoiy obrazini yaratishda uni mutafakkir, shoir va davlat arbobi sifatidagi faoliyatini uyg'unlashitirib tasvirlaydi. Navoiy mutafakkir, shoir va olim hamda davlat arbobi sifatida o'z ichki imkoniyatlaridan unumli foydalanganini asarda mukammal ko'rsatib berishga harakat qiladi. U davlat va idora usulida mustahkam tartib o'rnatish va ayrim isloxatlar o'tkazish yo'lida jon kuydiradi. Nizo va adovatlarni bartaraf etishga urinadi. Qalbini ishonch va umid tark etmagan Navoiy tobora tanazzul botqog'iga botib borayotgan Husayn Boyqaro saltanatida kechayotgan voqealar mantig'ini teran anglaydi.

Yozuvchining Navoiy romani Navoiyning maqsadi, uning xalq oldidagi mas'uliyati, teran fikrlari va nozik didi orqali yuzaga kelgan falsafiy qarashlarini davomiyligan ta'kidlaydi.

Buyuk adabiyotshunos Naim Karimov: "Oybek qalamiga mansub roman va qissalar, qaysi davr hayotidan olingan bo'lmasin, adib shu davr hayotini mukammal o'rgangan, ayniqsa,tarixiy davr va tarixiy shaxs hayoti bilan birlamchi manbaalar asosida yaqindan tanishgan yozuvchi"- deb ta'kidlaydi.

Oybek romanida Navoiy biografiyasi va taqdiri orqali yozuvchi ilg'or g'oyalarni shunchaki tasdiqlash yo'lidan bormaydi. Balki xarakterlarning rivojlanishi orqali tasvirlanayotgan davr mohiyati va ruhi, tarixning muhim pallasidagi millat kishisining o'zlikni anglash yo'lidagi intilishlarini ifoda etishga qaratilgan.

Romanda Navoiy obrazini aynan xalqparvar sifatida tasvirish birinchi planga chiqarilgan. Shuningdek, ezgulik va yovuzlik, ma'rifat va jaholat orasidagi kurash yoritilgan. Oybekning ulug'vorlik haqidagi estetik ideali ma'lum darajada mutafakkir olimning guruhlar ustidan oddiy xalqqa tayanib g'alaba qilishi orqali yuzaga chiqadi. Navoiy ulug'vorlik va mardonalikni o'zida mujassamlashtirgan nodir shaxs bo'lgani bilan unda ham g'azablanish, adolatsizlikka qarshi nafrat ifodasi "ajdarnafs", "darranda", "gazanda", "bo'rilar", "itlar", "chirkin maxluqlar", "iflos pashshalar", "johillarning qo'llarini kesmoq zarur" degan ifodalarida uning haqsizlikka qarshi ulkan kurashchi ekanligi ko'rsatishga asos bo'ladi.

Navoiyning adolatning keskir quroli bilan qurollangan shaxs sifatida namoyon bo‘lishida Majididdin va uning tarafdorlari qo‘rquvdan titrab, tillari kalomga kelmay qoladi.

U podshoh huzurida hukmdorning o‘jarligini sindirish uchun shunday shiddat, jasurona ohang bilan so‘zlaydiki, hukmdor ham har qanday e’tirozdan ojiz qoladi.

Oybek o‘zi tilamagan holda shohni “qoplon”ga uning atrofidagi amaldorlarni “it”ga qiyoslashga majbur edi. Agar jiddiy e’tibor berilsa, romanning aksariyat qahramonlari ulug‘ bir taxlika va qo‘rquv saltanatining zalvori ostida harakat qiladilar.

Romanda davrni yoritishdagi bir muncha qo‘rqinch va tahlika sezilib turadi, bu holat yozuvchining o‘zi yashayotgan real hayotdagi qo‘rquv bilvn uyhunlashib ketgan deb o‘ylash mumkin bo‘ladi.

Masalan, Arslonquldan Dildorga xabar keltirgan folbin kampir atrofga alanglab sekingina so‘zlaydi. Hayajonini bosolmagan Dildorni: “Hoy, sekin gapir!... Jinni bo‘ldingmi? Qayerdasan?” - deya ogohlantirar ekan, darichani yopib qo‘yib, shivirlagan holda so‘zlaydi. Hatto vahimaga tushib, zinhor birovga og‘iz ochma, - deya ta’kidlaydi. Dildorning: “Xat bermadimi sizga?” - degan so‘rovga: “Til zindonga sudraydi, xat dorga eltadi, bolam!” - deya bir qadar o‘kinish va jafoni bo‘yniga olgan kishiga xos vazminlik bilan javob beradi. (228 b.)

Yoki bu misolda: Dildorga g‘amg‘o‘rlik qilish ilinjida Sultonmurod To‘g‘onbekning dargohiga bosh urib kelganida Aloiddin Mashhadiy, mavlono Shahobiddin va boshqa amaldorlar davrasida o‘tirgan To‘rg‘onbekday odam ham yurt ulug‘larining pinjiga qanchalik kirib olgan bo‘lishiga qaramasdan, dabdurustdan aniq javob ayta olmaydi.

O‘sha davrning aynan muhitini ko‘rsatib berish yana bir obraz Xo‘ja Afzalni navoiy bilan suhbatida o‘z aniq ifodasini topadi.

Xo‘ja Afzal Navoiy bilan suhbatda: “Hirotdagi mash’um hodisalarni aytishdan til ham cho‘chiydi”, - deydi chuqur xo‘rsinib. (275 b.) Eshik og‘a Boboali Haydarni muomalada “tilga ehtiyot bo‘lish”likka chaqiradi (327 b.)

XV asr voqea-hodisalarini badiiy tasvirida xuddi adib qalbidagi musiqiy ohangni tinglaganlek bo‘lasiz, chunki Oybek tomonidan his etilgan bu holat romanga o‘ziga xos haroart va halovat bag‘ishlaydiki, kitobxon romandagi barcha muhabbatga yo‘g‘rilgan yoshlik kuyini, zamonadan charchagan xasta ko‘ngilning hazin navolarini, turli jang sadolari bilan birga tinglaydi.

Yozuvchi “Navoiy” romanida tarixiy haqiqat va badiiy haqiqatni uyg‘unlashtira olganganligi uchun “Navoiy” romanida faqat hayotiy voqealar tasvirigina berilgan ekan, degan xulosaga kelish o‘rinli bo‘lmaydi.

Oybek iqtidori, himmat va g‘ayrati, ilhom bulog‘ining mahsuli bo‘lgan “Navoiy” axloqiy-siyosiy, ijtimoiy-falsafiy romani adib xayolining ko‘rkam chamanzoridan terilgan go‘zal guldastadir. “Navoiy” romani razolatga qarshi shafqatsizlik bilan javob berishni inkor etuvchi, aql va tafakkur ustunligini ulug‘lovchi zamona zulmi, ta’qib va qiynoqlari, adolatsizliklarini ayblovchi hukmnamogina emas. Hasadgo‘ylar bilan kurashishni o‘ziga noloyiq deb bilgan,

insoniy g‘ururi va qadri uchun nuqson deb hisoblangan, bo‘ysunmas qalbidagi yuksak tuyg‘ularning erkin zamona zanjirband eta olmagan ulug‘ insonning kelajak nasllarga qoldirgan munosib tuhfasidir.

Navoiy obrazida adolat va buyuk insonparvarlik g‘oyalari mujassam. U amalga oshirayotgan har bir ishidan el-yurt manfaati, mamlakat tinchligi va xalq osoyishtaligini ko‘zlaydi. Ulug‘ mutafakkir o‘z dono maslahatlari bilan shohga to‘g‘ri yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatgan bo‘lsa, amaliy faoliyatida insonparvarlik g‘oyalarini amalga oshirgan. Oybek “Navoiy” romanida ulug‘ mutafakkir xarakterining shu jihatlarini mahorat bilan tasvirlay olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yoqubov H. Oybek lirikasida G‘oyaviylik va mahorat. –T.: Fan, 1963
2. Yoqubov H. Adibning mahorati. -Toshkent, Badiiy adabiyot nashriyoti , 1965
3. Karimov N. Oybek. O‘zbekiston Milliy entsiklopediyasi. 6-jild. – T., 2003
4. Karimov N. Oybek. Mashhur o‘zbek adibining hayoti va ijodidan lavhalar. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1985.
5. Sabriddinov A. Oybekning she’riy mahorati. –T.: Fan, 2006.
6. Oybek. Navoiy. Roman. T.: O‘qituvchi, 1985
7. Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – T.: Kamalak, 2016.

OYBEKNING PORTRETDAN FOYDALANISH MAHORATI ("Navoiy" romani asosida)

Normuminov Laziz Yuldash o'g'li
Nizomiy nomidagi TDPU talabasi

Annotatsiya. Bu portret orqali yozuvchi ilm dargohida uchraydigan ilmni qadrlaydigan insonlar bilan birga ilmdan o'z nafsi yo'lida foydalanishni istaydigan ma'nan qashshoq insonlar ham bo'lishini va bu xil odamlardan har vaqt xiyonat va sadoqatsizlikning hidi kelib turishini aytadi.

Kalit so'zlar: syujet zalvorligi,personaj,ilm dargohi,tafakkur va xayol,roman,portret.

Annotation. Through this portrait, the writer says that along with the people who appreciate the knowledge found in the field of science, there are also the poor people who want to use the science for their own selfishness, and the smell of betrayal and disloyalty always comes from such people.

Key words: plot complexity, character, science center, thinking and fantasy, novel, portrait.

Аннотация. Этим портретом писатель говорит о том, что наряду с людьми, ценящими знания, найденные в области науки, есть и бедняки, желающие использовать науку в своих корыстных целях, и всегда пахнет предательством и нелояльностью. исходит от таких людей.

Ключевые слова: сюжетная сложность, персонаж, научный центр, мышление и фантазия, роман, портрет.

Jahon adabiyotida roman- insonni o'zligib ijtimoiy muhiti va olam muammolari bilan faol munosabatda tasvirlovchi, odamlar qismati orqali jamiyat joriy holatini poetik tadqiq etuvchi sertarmoq syujet, zalvorli mazmunga ega bo'lgan mazmunga ega bo'lgan epik turning murakkab janri sifatida talqin qilinadi.

Tarixiy romanlarda portret yaratishni san'at darajasiga ko'tarish tarixiy davrni yaxshi bilish bilan birga boy tasavvurga ega bo'lish hamda roman o'quvchilarini o'sha davr bilan tanishtirish emas, balki davrning ijtimoiy muhiti, davr kishilarining umumiy muammolari orqali insoniyat tarixida mavjud bo'lgan ezgulik va yovuzlik orasidagi kurashni his etishlari uchun portret berish eng muhim vosita sanaladi

O'zbek romanchiligida tarixiy davrni yoritib berishb tarixiy haqiqat va badiiy haqiqatni uyg'unlashtirish keng mushohadali, tasavvuri boy yozuvchilarning qo'lidan kelgan. Aynan shunday yozuvchilardan biri Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekdir. Oybekning "Navoiy" romanidagi ba'zi insonlarning portreti orqali yozuvchi aytmoqchi bo'lgan fikrning tirik timsolini ko'rish, hattoki undan asar jarayonida kutiladigan natijani taxmin qilish mumkin bo'ladi.

Portret (fr.portraita- tasvirlamoq)- 1. Personajning so 'z vositasida tasvirlangan tashqi ko'rinishi (jussasi, kiy'imi, yuz-kozi ifodalari, tana holati va

harakatlari, qiliqlari) o ‘quvchi tasavvurida jonlanarkan, to ‘laqonli inson obrazini yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biri.

Portret asosida aniq shaxsning qiyofasini aba-diylashtirish yotadi. Portretning muhim tomoni tasvirning tasvirlanuvchi (model, asli) ga aynan o‘xshashligidir. Ijodkor Portret orqali tasvirlanuvchi shaxsning ma’naviy dunyosini, ijtimoiy hayotdagi o‘rnini, kasbi, jamiyatdagi mavqeini aks ettiradi va uning shu jihatlari orqali davr xususiyati, siyosiy iqtisodiy ahvol haqida ma’lumot bera oladi. Portret xarakteri asar janriga hamda yozuvchining ijodiy metodi va individual uslubi xususiyatlariga boglik bo‘ladi. Odatda, Portret personaj xa-rakterining yozuvchi eng muhim deb hisoblagan jihatlarini ochib beradi.

Quyida Oybekning “Navoiy” romanidagi ba’zi portretlar keltirildi: Masalan, “Tolibi ilmlarning aksari bugun hovliga chiqishgan. Ular yapaloq g ‘isht yotqizilgan yo‘lkalarda bo‘yralar solib, dars tayyorlashadi. Ularning qay biri “Qofiya”da, qay biri, qay biri “Hoshiya”da, qay biri “Shamsiya”da. Mana bunda biri kitobni tizzasiga qoyib kata sallali boshini uzluksiz chayqab, ko‘zlarini chirt yumgan holda g‘ong’illab “Arabiyot”ni yodlaydi. Nariroqda uch mullabacha bir bo‘yra ustida o‘tirib, mushkul bir masalani bahslashadi. Ulardan biri-sersoqol, rangpar va oriq - o‘z mantiqining kuchini ko‘rsatishga va “haqiqat mezoni”ni o‘zicha ta’rif etishga astoydil tirishar, sheriklarning dalillarini rad etardi. Undan yoshroq, lekin o‘jarlikda undan aslo qolishmaydigan sheriklari qichqirib, yangi-yangi dalillar, mulohazalarning tilsimli qo‘rg‘onini bir zumda so‘z bilan yasab qoyardilar” keltirilgan tasvirda madrasa toliblarining qizg‘in bahslashish jarayoni tasvirlangan bo‘lib, undagi toliblarning portretlari orqali ilm oluvchilarning hayot tarzidan bir lavhani ko‘rgandek bo‘lasiz.Yosh jihatdan eng kattasi- hujra sohibi Aloiddin Mashhadiy bo‘lib, chuvak yuzini dag‘al qora soqol bosgan, payvasta quyuq qoshli, har vaqt yarim yumuq xira ko‘zli, past bo‘yli, chamasi qirq yoshidagi kishi edi. Aloiddin Mashhadiy asabiy, jizzaki, sezgir shaxs: arzimagan narsaga kishidan ko ‘ngli qoladi. U kimdan ranjisa, o‘sha soatda bir hajv ila o‘z “dushman”ini so‘z balchig‘iga shunday bulg‘aydiki, o‘qirkan, undan eng chirkin hid burqib turadi.

Bu portret orqali yozuvchi ilm dargohida uchraydigan ilmni qadrlaydigan insonlar bilan birga ilmdan o‘z nafsi yo‘lida foydalanishni istaydigan ma’nan qashshoq insonlar ham bo‘lishini va bu xil odamlardan har vaqt xiyonat va sadoqatsizlikning hidi kelib turishini aytadi.

Ikkinchi mullabacha hirotlik o‘rta hol oilada mansub Zayniddin, qaddi-qomati nozik, xushmuomala, xushsuhbat, havoyi tabiatli yigirma-yigirma bir yashar yigit edi. U to‘rt- besh yildan buyon tehsil ko ‘rib, ba’zi ilmlarda ancha ilgarilagan. Arab va fors tillarini yaxshi egallagan. Lekin havoiyi tabiati bo lishi va hayotda ziynatli, xursandchilikni sevishi orqasida tahsilga uncha qunt qilmaydi.

Ilm dargohida yana bir xil insonlar tahsil oladiki, bu xildagi talabalar har qanday sharoitda hayot zavqini his qiladilar va o‘z qobiliyatlaridan har qanday vaziyatda foydalanishga harakat qiladilar.

Uchunchi talaba ikki yil burun Shahrisabzdan tehsil uchun kelgan do‘ng peshonali, miqti gavdali, o’tkir, yirik ko‘zli o‘n sakkiz yashar Sultonmurod edi.

Bu yerda hammadan ajralib turgan shaxs- Aloiddin Mashhadiyning mehmoni samarqandlik To‘g‘onbek edi. U yo ‘g ‘on, chorpaxil gavdali, dakkam-dukkam qizg ‘ish mo ‘ylabli; keng, qoramtir yuzining yonoqlari bo ‘rtgan; qisiq ko ‘zlari ayyorcha beqaror; kunlar isib ketgan bo‘lsa ham, uning engida qo ‘pol eski po‘stin, boshida qunduzi qalin bo‘rk…

Ilm dargohining haqiqiy egasi, chin iqtidor sohiblari mavjudki, bu kabi talabalar haqiqiy chin insonlardir, kelajakda ularning nomlari tarixda qoladi.

Kichkina, xarob do‘konchada katta, to;garak barkashlarga uyulgan xilma-xil halvolar orasida o‘tirgan mayin harakatli, kamtar, ko ‘zlari sho‘x, qirq yoshlar chamasidagi shoir turobiy do ‘stlarini suyunib qarshi oldi.

Shuningdek, yozuvchi o‘z romanida oddiy xalq vakillarini savodxonligi, ularning madaniy dunyosi, nozik didli kishilar ekanligi haqvida ham so‘z yuritadilar.

Halvopurush obrazi xuddi shunday xalq vakili obrazidir.

Oybek asar qahramonlarini bir bir- ta’riflab kelar ekan, xuddi kitobxonlarni o‘sha ijtimoiy muhit bilan birga davr kishilari bilan tanishtirish orqali butun xalqning Alisher Navoiyga bo‘lgan muhabbatini aks ettiradi.

Sultonmurod dars uchun mudarris mavlono Fasihiddinning hujrasiga kirib, hayratda qotdi. Yap-yangi ko ‘k shohi to ‘n kiygan ustod yangi taqyaga sallani bejab oramoqda edi. Uning har vaqt muloyim, ochiq yuzi, oq ko‘rkam soqoli, butun savlatdor gavdasi uning shoshilayotganini, quvonchini bildirar edi.

Iqtidorli talaba Sultonmurod orqali Navoiy obrazi chiziladi. Navoiyning yuzining tasviri orqali uning buyuk tafakkuri hamda uning ma’naviy qudrati namoyish etiladi. Bu obraz orqali Navoiyning teran fikri, xalqqa bo‘lgan samimiy ehtiromi yaqqol ko‘rinib turadi.

Shoirning boshida uchli ko ‘k taqiyaga silliq o‘ralgan ko‘rkamgina salla. Egnida odmi shohi to ‘n, ustida qo ‘ng ‘ir movut chakmon. Navoiy o‘ttizdan oshmagan bo ‘lsa ham, Yoshi ulug‘lardek ko‘rinardi. Qomati o‘rtadan baland, ingichka, lekin gavdasi pishiq, barmoqlari uzun va nafis, qora vaqisqa soqolli, xushbichim miyiqlari tekis va silliq, yonoqlari chiqiqroq, kenggina yuzida doimiy tafakkurning asl ma’nosi, ma’naviy qudrat va yengil go ‘zallashtiruvchi bir

horg‘inlik jilvalanadi. Qabariqroq qovoqlari ostidagi qiyg‘och ko‘zlarida go‘yo tafakkur va xayol bilan birga qandaydir iroda kuchi ifodalanadi.

Husayn Boyqaro obrazi orqali o‘sha davr hukmdorining nafaqat davlat boshqarish mas’uliyatini o‘z zimmasiga olishdan tashqari, biroz yengil hayotga, hashamatli turmushga moyilligi sezilib turishiga ishora qiladi.

Husayn Boyqaro belidan yuqorisi kengayib brogan qabariq ko‘krakli, keng yag‘rinli, miqti gavdali edi. Yirik qiyiq, o‘tkir qarovchi ko‘zdan iroda va ingichka hiyla bilan birga qandaydir beqarorlik, yengil va sho‘x tabiatniham ifodalar edi; boshida yirik gavharlar qadalgan qorako‘l qalpoq, egnida yoqasi oltin gullar,

qimmatbaho toshlar rang- barang porlagan qizil abrishim to‘n. Enli kamarida oltin qubbachalar, yirik gavharlar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Oybekning “Navoiy” romanida tasvirlangan har bir portret, har bir obraz o‘z o‘rnida Navoiy xarakter-xususiyatini, uni davr ijtimoiy hayotida tutgan o‘rni haqida mukammal asar sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. XX asr o’zbek adabiyoti tarixi. Universitetlar va pedagogika institutlari bakalavr ixtisosini oluvchilar uchun darslik. –Toshkent: O’qituvchi, 1999. –B. 197.
2. Millatni uyg’otgan adib. – Toshkent: Universitet, 2005.
3. Yoqubov H. Oybek (adabiy tanqidiy ocherk). – Toshkent: O’zadabiynashr, 1950;
4. Yoqubov H. Oybek lirikasida g’oyaviylik va mahorat. –Toshkent: Fan, 1963;
5. Yoqubov H. Adibning mahorati. – Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1965
6. Qo’shjonov M. Oybek mahorati. – Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1965; Bat L,
7. Quronov, D., Z. Mamajonov, M. Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik asoslari.Toshkent. “ Akadem nashr”.2013 -B.227
8. Oybek. Navoiy “Sharq”. Toshkent. 2004.

O'ZBEKISTONDA CHET TILI O'QITISH METODIKASINING ILMIY NAZARIY HOLATI

Norqulov Bekzod Xurramovich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 2 kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining an'anaviy va eksperimental guruhlarida ingliz tilini adabiyotlardan foydalangan holda, xususan, ingliz adabiyotidan foydalangan holda ijodiy metodlar asosida o'qitishga bag'ishlangan.Ushbu mavzuni tanlaganim sababi shundaki, ingliz tilini o'qitishning til ko'nikmalarini lingvistik jihatlar bilan bog'liq holda rivojlantirishga qaratilgan usullariga qiziqaman.

Annotation. This article is dedicated to the study of teaching english on the of base creative methods using literature particularly using English literature in traditional and experimental groups of Uzbek state world languages university.The reason of choosing this theme is that I am interested in methods of teaching English focusing on the development of language skills in connection with linguistic aspects.

Аннотация. Данная статья посвящена обучению английскому языку с использованием литературы, особенно английской литературы, на основе творческих методов в традиционных и экспериментальных группах Узбекского государственного университета мировых языков. Причина, по которой я выбрал эту тему, заключается в том, что меня интересуют способы преподавания английского языка, направленные на развитие языковых навыков в отношении лингвистических аспектов**.**

Kalit so'zlar: Estetik tarbiya, lingvodidaktika, lingvometodika, pedagogika, psixologiya, eksperimental, didaktik,xronometr.

Ключевые слова: Эстетическое воспитание, лингводидактика, лингвометодология, педагогика, психология, эксперимент, дидактика, секундомер.

Key words: Aesthetic education, linguodidactics, linguomethodology, pedagogy, psychology, experimental, didactic, stopwatch.

Maktab yoshlarini har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash, ularga fan asoslaridan chuqur bilim berish, ularda zamonaviy dunyoqarashni shakllantirish va kengaytirish, ularni estetik tarbiyalash hamda xalq xo'jaligining turli sohalarida mehnat qilishga tayyorlash lozim. Bularni amalga oshirishda chet tili ham o'z hissasini qo'shadi.Chet tili o'qitish metodikasi lingvodidaktikaning ajralmas qismidir. Lingvometodika ona tili, rus tili va chet tillari o'qitish metodikasini o'z ichiga oladi.Chet tillarini o'qitish metodikasi fani o'z oldiga quyidagi maqsadlarni qo'yadi:

- Bo'lajak mutaxassislarda chet tili o'qitish metodikasidan keng nazariy zamin yaratish;

- Talabalarda ta'limning tamoyil, metod, vositalarini samarali ijodiy qo'llash, malaka-ko'nikmalarini hosil qilish;

Chet tillari, xususan ingliz tili o'qitish metodikasi kursining mavzusi 3 guruxga bo'linadi:

- Ingliz tili o'qitish metodikasining nazariy asoslari;
- Ingliz tili nutq faoliyatining asosiy turlari a) til materialini o'rgatish, b) nutq faoliyati turlarini o'rgatish;
- Ingliz tili o'qitish jarayonini tashkil qilish.

Sobikq Ittifoqda chet tilini o'qitish metodikasining asoschisi akademik J.B. Shcherba edi. Bu sohada I. V. Raxmanov, A. A. Mirolyubov, V. S. Setlin, V. D. Arakin, Z. M. Svetkova, S. F. Shatilov, N. I. Gez, G. V. Rogova, I.J.Bim va boshqalar mehnat qildilar.Metodikaning fan sifatida shakllanishi hamda rivojlanishida pedagogika, psixologiya, tilshunoslik kabi fanlar bilan aloqasi muhim bo'lmoqda. Chet tili o'qitish metodikasi barcha fanlar kabi shug'ullanish predmeti, ob'ekti, ilmiy-tadqiqot uslubi, metodik tushunchalari va metodologik asosiga ega.

Chet tilini o'qitish metodikasining nazariy asosi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- Hozirgi davr chet tili o'qitish metodikasi maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida metodikaning asosiy qismlarini yoritish va uning asosida o'quvchi, talabalarga ta'lim berish.
- O'quvchi talabalarga chet tili o'rgatishning ilg'or metod va usullarini tanishtirish.
- Hozirgi davr metodikasining tarkibiy qism, vositalarini yoritish.
- O'qituvchilarning ilg'or tajribalarini o'rganish.
- Seminar mashg'ulotlari orqali mutaxassislik uchun zarur malaka va ko'nikmalarni shakllantirish.
- Bo'lajak o'qituvchilarni maxsus ilmiy-metodik adabiyotlar bilan ishlashga o'rgatish orqali o'z kasbi ustida mustaqil shug'ullanishga, ilmiy ishlarga tayyorlash.

Chet tili o'qitish metodikasi umumiy va xususiy metodikalarga bo'linadi:

Umumiy metodikaga A. A. Mirolyubov taxriri ostida chiqqan «Teoreticheskiye osnov obucheniya inostrannim yazikam v sredney shkole", N. I. Gez va boshqalarning «Metodika obucheniya inostrannm yazikam v sredney shkole", J. J. Jalolovning «Chet tili o'qitish metodika"larini kiritish mumkin. Ularda umumiy chet tilini o'qitish masalalari, o'qitish tamoyillari, metodlari, usullari, yo'llari, vositalari yoritilgan.

Xususiy metodika bitta chet tilini o'qitish metodikasi masalasi bilan shug'ullanadi. Bunga G. V. Rogovaning «Methods of teaching English", S. F. Shatilovning «Metodika obucheniya nemetskomu yaziku v sredney shkole", I. L. Bimning «Teoriya i praktika obucheniya nemetskomu yaziku v sredney shkole", L. S. Andriyevskaya-Levensternning «Metodika prepodavaniya fransuzskogo yazika

v sredney shkole" qo'llanmalari misol bo'la oladi. Keyingi yillarda metodikaning tarixiy, eksperimental, qiyosiy va boshqa turlari yaratildi.

Ma'lumki ,tajriba va eksperimentlar o'zaro farqlanadi .Tajriba asosida o'qitish oylar, yillar mobaynida o'tkazilsa, eksperiment biror yangi mavzu, metod, usul, mashq, ilmiy farazni qisqa muddatda sinaydi, tekshiradi.Test inglizcha so'z bo'lib, sinov, sinash, degan ma'nolarni bildiradi. Bu usul AQShda birinchi bor qo'llanilgan. Testlar bilan shug'ullanuvchilarni testologlar deyiladi. Testda hammaga bir xil sharoit yaratiladi, talab qo'yiladi, faollashtiriladi.

Metodikada testning tekshirish, didaktik, psixologik va o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini baholash kabi turlari mavjud.Xronometrlashda o'quv jarayoni yozib boriladi. Yozib olingan o'quv jarayoni tahlil qilinadi, o'rganiladi, amalda foydalaniladi.Ossillografik tahlil qilishlan talaffuz ustida ishlaganda foydalaniladi.Chet tillar o'qitish metodikasining uslubiy tushunchalari bor. Ular metodikaning tamoyil, usul, yo'l vosita, o'qitish tizimi, texnologiyasi, malaka va ko'nikmasidan iborat. Bu metodik tushunchalar bir-birini to'ldiradi. Ular metodikaning eng zarur, kerakli tushunchalaridir. Metodika bu tushunchalar orqali chet tili o'qitishni ishlab chiqadi, ta'lim-tarbiya berishda ulardan foydalanadi. Har bir fan o'z tamoyillarga ega. Shular qatorida metodika fanining ham tamoyillari bor.Tamoyil ta'lim-tarbiya berishda rioya qilinishi lozim bo'lgan qonuniyatdir.Metodni o'rgatish usullarining yig'indisi va butun bir yunalish sifatida tushuniladi. Birinchisi, talaffuzni, leksikani o'rgatish metodlari misol bulsa, ikkinchisiga, chet tilini o'qitishda oldin qo'llanilgan leksika-tarjima metodni misol qilib ko'rsatish mumkin. Metodikada usul, yullar ham mavjud bo'lib, ular (usul, yo'llar) yig'indisi metodni tashkil qiladi. Metodik yo'l, usul o'qitishda qo'llaniladigan kichik metodik ish faoliyatidir.

CHIZMA GEOMETRIYA FANIDAN MUSTAQIL TA'LIM FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDA PEDAGOGIK TAJRIBA- SINOV ISHLARINI O'TKAZISH VA NATIJALAR TAHLILI

O'rinova Shoxista Baxtiyor qizi
Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi o'qituvchisi
baxtiyorovnashohista@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ma'lumki, chizma geometriya fanidan mustaqil ta'lim faoliyati, ya'ni o'quvchilar o'zlarining o'rgangan ma'lumotlarini o'zlashtirishlariga yordam beradigan bir qator pedagogik usullar va tajribalar bilan tashkil etiladi. Bu fan, o'quvchilarga 2D va 3D chizmalar orqali ob'ektlarni tasvirlash, ma'lumotlarni analiz qilish, kelgusi chizmalar va chizma modellarini yaratish va ko'rsatish, matematik yechimlarini topish va ularni amaliyotga tatbiq qilish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishga yordam beradi. Bu esa o'quvchilarning ko'nikmalarini rivojlantirish, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish va ularni hayotiy muammolarga tatbiq qilishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: chizma geometriya, pedagogika, kreativ, interaktiv, kontent, mustaqil ta'lim, elektron resurs va elektron test.

Ilm-fan har qanday davlatning buguni va kelajagini ko'p jihatdan hal qiladigan bebaho boylikdir. Bugungi kunda tadqiqotlar natijalarini ilmiy jihatdan tahlil qilmasdan va o'zlashtirmasdan rivojlanishi mumkin bo'lgan iqtisodiyotning biror bir tarmog'i, jamiyat hayotining biror sohasi yo'q. Dunyoning aksariyat mamlakatlari moliyaviy-iqtisodiy inqirozni kechirayotgan bir paytda O'zbekistonda ishlab chiqarishni ilg'or texnologiyalari asosida modernizatsiya qilish, ilmiy-texnika salohiyatidan samarali foydalanish, iqtisodiyotimizni rivojlantirishda innovatsiya yo'liga o'tish muhim strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Bunday mutaxassislardan chizma geometriya va chizmachilik fanlari, uning turmushdagi ahamiyati, fanning maqsadi va vazifalari, yutuq va muammolari, qonun-qoidalari hamda grafik savodxonlikni mukammal egallagan bo'lishi talab etiladi. Shuning uchun ham pedagogik tadqiqotlarning ilmiy-nazariy asoslari bilan, birgalikda ularning amaliy ahamiyati ham e'tiborga olinishi lozim. Amaliy ahamiyatni ilmiy asoslash ilmiy-nazariy ishlanmalarning nechog'lik amaliyotga foydasi tegishligini tajriba sinov ishlari bilan aniqlanadi.

Tajriba sinov ishining vazifasi tadqiqot ilmiy-nazariy asoslarining amaliy ahamiyatini qay darajadaligini baholshdan iboratdir. Bunda tadqiqotning ilmiy-nazariy asoslarini e'tiborga olib talabalarning bilish faoliyatini faollashtirishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

1. mustaqil ta'limni takomillashtirish orqali talabalarning bilish faoliyatini faollashtirishga ijtimoiy-pedagogik asoslar nimalardan iborat ekanligi;
2. bu usul bugungi kun talabi va jahon ta'limi talablariga mos kelishligini o'rganib chiqish;

3. qo'llanilayotgan usulning maqsadini o'rganilayotgan o'quv predmetining maqsadlari bilan mos keltirish.

Biz oliy ta'lim tizimida chizma geometriyada mustaqil ta'limni takomillashtirishdan foydalanib o'qitish bo'yicha talabalarning ta'lim olish faoliyatini tashkil qilish va samaradorligini aniqlash maqsadida 2022-2023 yillarda Termiz davlat pedagogika institutida tajribalar o'tkazdik.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarini olib borishda TerDPIda 60111200- Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishi guruhlarida olib borildi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari quyidagi ikki bosqichda olib borildi:

Birinchi o'rganuv bosqichida muammoning amaldagi holati o'rganildi. Buning uchun o'quv me'yoriy hujjatlar, ilmiy manbalar va amaliyot tahlil etilib, maqsad va unga erishish uchun yechimini topish lozim bo'lgan vazifalar belgilab olindi.

Ikkinchi bosqichida tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan shakllantiruv tajribaviy ta'lim olib borildi.

Tadqiqot jarayonida chizma geometriya kursining mustaqil ta'limini takomillashtirishdan foydalanib tekshirish ishlari tadqiqotchi tomonidan o'tkazildi.

Talabalarni baholashda reyting tizimidan foydalanib, eng yuqori ("a'lo"), yuqori ("yaxshi"), o'rta ("qoniqarli") darajali mezondan foydalanildi.

Tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish. Tajriba usullarini o'rganish o'ta ahamiyatli bo'lib, u TSIni o'tkazishga sarf bo'ladigan vaqt va harajatni sezilarli darajada kamaytiradi. Bunga esa tajribalarni rejalashtirish va tajriba natijalariga statistik ishlov berish usullari samarali yordam qila oladi.

Tajribani rejalashtirish-bu aniq va optimal variantlari mavjud tajribalarni uyushtirishning algoritmik tizimi bo'lib, o'zgaruvchilarni (ko'rsatkichlarni) ilgaridan (nazariy tadqiqotlar paytida) ishlab chiqilgan sxema bo'yicha qo'yishi ta'minlangan tajriba o'tkazish tartibi.

Rejalashtirish maqsadi - bu eng kam vosita (texnologiya) va vaqt sarflab, tadqiqot yo'nalishi bo'yicha maksimum darajadagi ma'lumot olish va ularning etarli darajadagi aniqligiga erishish.

Ixtiyoriy TSI quyidagi bosqichlar ***ketma-ketligi asosida olib bo***rilsa, tadqiqot maqsadiga etib borish im***koniyati yanada*** kuchayadi.

- tajriba davomida paydo bo'lgan qo'shimcha mulohazalarni oldindan shakllantirilgan ishchi farazni hisobga olgan holda tajriba muammosiga qo'shish;
- tajribani tashkillashtirish;
- tajriba natijalarini tahlil qilish va shu asosda optimal yechim haqidagi xulosani chiqarish.

Tajribani rejalashtirishda muhim bo'lgan TSI va ularning tuzuvchilarini quyidagicha ifodalash maqsadga muvofiq bo'ladi. Demak, TSIni olib borishda, mazkur jarayonni rejalashtirish, ushbu jarayonga tayyorlanish bosqichi, tajriba masalasining qo'yilishi, tajriba variantini tanlash va o'tkazish tartibini aniqlab olish imkonini berar ekan, aks holda tadqiqotchida kerakli "manzil" ga etib

borishda, ya'ni qo'yilgan muammo yechimini topishda ko'p vaqt sarf qilinishi mumkin yoki natija olishning optimal variantiga ega bo'la olmasligi mumkin va hattoki xato natijani qo'lga kiritish holati ham ro'y berishi mumkin.

Pedagogik monitoring esa mazmuniga ko'ra quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ta'lim oluvchida psixo-fiziologik test o'tkazish va ular orqali ta'lim oluvchilarda siljish (dinamikasi) haqidagi fikrlarni shakllantirish;
- ta'lim oluvchilarni didaktik testdan o'tkazish va ular orqali mavjud ma'lumotlardan foydalanish hamda tahlil qilish ko'nikmasini ta'lim oluvchilar ongida shakllantirish;
- ta'lim oluvchilar ongida mavjud ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va kerakli maqsadlar bo'yicha keyingi bosqichga uzatish ko'nikmalarini shakllantirish;
- ta'lim oluvchilarda va ta'lim beruvchida oraliq nazorat natijalarini baholay bilish ko'nikmalarini shakllantirish;
- ta'lim jarayonida dastur-uslubiy ta'minotni joriy qilish natijalarini muntazam ravishda DTS talablaridagi BKM bilan solishtirib borish va oraliq natijalari tahlili bo'yicha ta'limni boshqarishga tavsiyalar berish.

Pedagogik tadqiqotlarda samaradorlikni aniqlash.

Buning uchun tajriba va nazorat guruhlari tashkil etiladi. Tadqiqotchi ishchi farazi asosida tajriba guruhida ta'lim-tarbiya beruvchi va talabalar bilan tadqiqot haqida qisqacha suhbatlar o'tkaziladi va shu kabi ishlar amalga oshirilib TSIlari boshlanadi va u uch bosqichda amalga oshiriladi. Ularning natijalari bo'yicha samaradorlikni aniqlash quyidagi yo'nalishlar bo'yicha olib boriladi:

-aynan bir tushunchani o'rganish bo'yicha;

-aynan bir ko'nikma va malakani shakllantirish bo'yicha;

-bilish faoliyatini faollashtirish bo'yicha va h.k.

Tajriba–sinov ishlari natijalari. Ushbu dissertatsiya ishi yuzasidan 2022-2023 o'quv yilida TerDPI va Termiz davlat texnologiya institutida pedagogik tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Tajriba-sinov ishlari 60111200- Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishi I kurs talabalarida chizma geometriya fani mustaqil ta'lim faoliyatini takomillashtirishda olib borildi, ya'ni yaratilgan ishlab chiqilgan metrik va pozitsion masalalar qaraldi. Ushbu dissertatsiya ishida keltirilgan ishlar ketma-ketlik, uzviylik asosida sinab ko'rildi. Bu jarayonda I kurs tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi talabalariga chizma geometriya darslarida mavzularning o'qitilishi va masalalar ishlashi metrik va pozitsion masalalardan foydalanildi va quyidagi natijalar olindi.

Buning uchun I kurs talabalaridan tashkil topgan ikkita bilim darajasi teng bo'lgan guruhlar olindi, bular – TSvaMG 22-01 va TSvaMG 22-02 guruhlar.

TSvaMG 22-01 guruh talabalari $N_1 = 25$ va TSvaMG 22-02 guruh talabalari $N_2 = 25$ nafarni tashkil etdi. TSvaMG 22-01 guruh talabalarida chizma

geometriyaning mustaqil ta'limi an'anaviy shaklda olib borildi, TSvaMG 22-02 guruhda esa uzviylik asosida o'qitildi va chizma geometriyaning metrik va pozitsion masalalarga oid mavzularini o'qitishda talabalar mustaqil ta'lim faoliyatini takomillashtirishdan foydalanildi hamda ikkala guruhlardan ham yozma ishlar olindi. Ularning natijalari besh baholik ("o'rta", "yaxshi", "a'lo") reyting tizimi asosida baholandi. TSvaMG 22-02 tajriba guruhida "5" baholar soni 10 ta, "4" baholar soni 12 ta, "3" baholar soni 3 ta. TSvaMG 22-01 nazorat guruhida "5" baholar soni 6 ta, "4" baholar soni 12 ta va "3" baholar soni 7 ta (1-rasm).

Har ikkala guruh ham nazorat savollari orqali o'zlashtirish ko'rsatkichi aniqlandi. Ular tahlil qilinganda nazorat guruhi talabalarining o'zlashtirish ko'rsatkichi tajriba guruhi talabalariga nisbatan past ekanligi aniqlandi. Nazorat guruhida samaradorlik 76,72%ni tashkil etgan bo'lsa, tajriba guruhida esa 89%ni tashkil qildi.

Tajriba va nazorat guruhlarining o'zlashtirishini taqqoslash maqsadida guruhlarda o'zlashtirish bahosini o'rtacha qiymati $X = \frac{\sum x_i m_j}{N}$ deb olindi. Bu yerda x_i–o'zlashtirish ko'rsatkichi (baho qiymati) bo'lib, ular 2, 3, 4, 5 qiymatlarni qabul qiladi. m_j–baholarning takrorlanish soni, N – tajribada ishtirok etayotgan talabalar soni.

Olingan natijalarni qayta ishlaymiz. Tajriba va nazorat guruhlarining o'zlashtirish bahosining o'rtacha qiymati.

$$X = \frac{\sum x_i m_j}{N}$$

$$\overline{X_T} = \frac{1}{25}\left[10\cdot 5+12\cdot 4+3\cdot 3\right] = \frac{1}{25}(50+48+9) = \frac{107}{25} = 4{,}2$$

$$\overline{X_N} = \frac{1}{25}\left[6\cdot 5+12\cdot 4+7\cdot 3\right] = \frac{1}{25}(30+48+21) = \frac{99}{25} = 3{,}9$$

Foiz qiymatda esa diagramma ko'rinishida ifodalangan(2-rasm).

Smaradorik koefitsienti $\eta = \frac{X_T^*}{X_N^*}$ $\eta = \frac{4{,}2}{3{,}9} = 1{,}07$

Ko'rsatkichlar quyidagi diagrammada ko'rsatilgan(3-rasm):

Demak, oliy o'quv yurtlarida chizma geometriya darslarida talabalarning mustaqil ta'limini takomillashtirishda metrik va pozitsion masalalardan foydalanib o'qitish yuqori natijalarga olib kelar ekan va chizma geometriya darslarida talabalarga mavzularni tushuntirishda bilish faolligi rivojlanadi, fazoviy tasavvurni rivojlantirish, mantiqiy fikrlash, geometrik o'lchash va yasashning amaliy usullarini o'rganish imkoniyatlarini beradi, darsga bo'lgan qiziqish va dars samaradorligi oshadi.



1-rasm.



2-rasm.



3-rasm

Umumiy xulosalar. Shunday qilib pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari tahlil qilinganda samarali natijalarga erishildi va quyidagi xulosalarga kelindi:

4. tajribalar shuni ko'rsatadiki, talabalarning mustaqil ta'limini takomillashtirishda metrik va pozitsion masalalardan foydalangan holda mavzuni chuqur o'zlashtiradilar;

5. amaliy ishlarga, ya'ni pozitsion va metrik masalalar yechishga, hayotiy misollar keltirishga, talabalar bilish faoliyati faollashtiriladi;

- talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyati shakllanadi;

6. talabalar darsdan ijobiy saboq oladilar, darsga nisbatan qiziqishi oshadi;

7. talabalarda fazoviy tasavvurni rivojlantirish, mantiqiy fikrlash, geometrik o'lchash va yasashning amaliy usullarini o'rganish imkoniyatlarini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sh.K.Murodov va boshqalar. Chizma geometriya. Toshkent, "Moliya-iqtisod", 2006.
2. Toshpulatov Faxriddin Urolovich, Naqqoshlik [Matn] : o'quv qo'llanma. - Buxoro: "BUXORO DETERMINANTI" MCHJning Kamolot nashriyoti, 2022.-144 b.
3. R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirov,A.Pardaev. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar.T.,2010
4. Xalimov M.K. "Chizma geometriya va muhandislik grafikasi". –T.: "Voris". 2013-y.
5. Urolovich T. F. et al. CHIZMA GEOMETRIYA TA'LIMI JARAYONIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 279-283.

6. Uralovich T. F. Conducting classes on fine arts based on information and communication technologies //International Engineering Journal For Research & Development. – 2021. – T. 6. – C. 3-3.
7. Toshpulatov F. USE OF GEOMETRIC PATTERNS AND THEIR TYPES FROM ELIMINATIONS OF DRAWING AND APPLIED ART IN ARCHITECTURAL FACILITIES //Физико-технологического образование. – 2022. – Т. 1. – №. 1.
8. Toshpo'latov F. U. et al. Bolalarni o'yin texnologiyalari asosida kasb-hunarga qiziqishlarini shakllantirishda rivojlantiruvchi o 'yinlar //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 487-491.
9. Toshpulatov F. U., Norqochqorov R. E. O., Maxmudova X. N. Q. Xalq amaliy san'atining chizmachilik fani bilan bog'liqligi //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 138-142.
10. Toshpulatov F. U., Turopova R. B. Games that develop children's interest in the profession based on game technology //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 487-491.
11. Tashimov N. E., Toshpulatov F. U. Activating Students in Building Intersection Line by Quadratic Transformations Method //www. auris-verlag. de.–2018.–2018. – 2018.
12. Toshpulatov F. U., Norkochkarov R. E. O., Mahmudova H. N. Q. THE RELATIONSHIP OF FOLK APPLIED ARTS WITH THE SCIENCE OF DRAWING //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 2.
13. Toshpulatov F. U., Mominov B. K., Mamatkulov I. C. Determination of Sections of General Surfaces of the Second Order on Predetermined Circles //The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research. – 2020. – Т. 2. – №. 11. – С. 21-26.

G'AYRIODATIY BIRIKMALARNING BADIIY MATNDA LINGVOPOETIK AKTUALLASHUVI

Akbarova Munira Shavkatovna
Qo'qon DPI Boshlang'ich ta'lim kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy matnni lingvopoetik tahlil qilish, matndagi sintaktik qurilmalar va ularning qo'llanilishi, so'z ma'nolari, g`ayriodatiy birikmalar, ularning badiiy matn mazmuniga aloqasi hamda ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Badiiy matnlarda keltirilgan ma'nodosh so'zlar, shakldosh so'zlar, zid ma'noli so'zlar, iboralar, maqol va matallar, hikmatli so'zlardan namunalar keltirilgan va ularning vazifasi izohlangan.

Kalit so'zlar: so'z, ma'nodosh so'z, shakldosh so'z, zid ma'noli so'z, g`ayriodatiy birikmalar.

Аннотация. В данной статье показаны лингвопоэтический анализ художественного текста, синтаксические приемы в тексте и их употребление, значения слов, необычные сочетания, их связь с содержанием художественного текста и их значение. Приводятся примеры синонимов, синонимов, антонимов, выражений, пословиц и пословиц, мудрых изречений в художественных текстах и объясняется их функция.

Ключевые слова: слово, похожее слово, формообразующее слово, слово с противоположным значением, необычные сочетания.

Abstract. In this article, the linguopoetic analysis of the artistic text, syntactic devices in the text and their use, word meanings, unusual combinations, their connection to the content of the artistic text and their importance are shown. Examples of synonyms, synonyms, antonyms, expressions, proverbs and proverbs, wise sayings in literary texts are given and their function is explained.

Key words: word, similar word, word with opposite meaning, unusual combinations.

Ma'nodosh so'zlar tilning lug'aviy jihatdan boylik darajasini ko'rsatib beruvchi o'ziga xos vositadir. Tilda ma'nodosh so'zlarning ko'p bo'lishi tilning estetik vazifasini yanada to'liq bajara olishini osonlashtiradi. Bu juda qadim zamonlardan beri anglangan, idrok etilgan va o'rganilgan. O'zbek tili ma'nodosh so'zlarga juda boy. Yozuvchilar tilimizdagi ma'nodosh so'zlar ichidan tasvir maqsadi va ruhiga muvofiq keladigan aniq so'zni topib o'z asarlarida qo'llashga harakat qiladilar, shu tariqa, qahramonlar ruhiyati hamda tasvir ob'yektining eng kichik qirralarigacha real ko'rsatib berishga intiladilar. Badiiy matndagi ma'nodosh so'zlar tahlilida, asosan, ikki jihatga e'tiborni qaratish zarur. Ulardan biri muallifning ikki yoki undan ortiq ma'nodosh so'zdan ifodalanayotgan mazmun uchun eng maqbul birini tanlashi bo'lsa, ikkinchisi ayni bir matn tarkibida ikki yoki undan ortiq ma'nodosh birliklarni badiiy tasvir maqsadiga uyg'un holda qo'llashi masalasidir.

Tilshunoslikda ma'nodoshlikning, asosan, uch turi farqlanadi, ya'ni: 1) leksik ma'nodoshlik; 2) frazeologik ma'nodoshlik; va 3) leksik-frazeologik ma'nodoshlik. [1. 29-b] **Leksik ma'nodoshlik**dan bir necha maqsadlarda foydalaniladi. Til birliklarining takrori natijasida yuzaga keladigan ifoda kambag'alligi va rangsizligidan qochish uchun: *Ikkala o'rtoqning sharaq-sharaq gaplashgan, bir-birlariga sevinch bildirishgan quvnoq va baland **ovoz**lari boshqa hamma **un**larni bosib ketdi.(Cho'lpon)*

Zid ma'noli so'zlar. Tilda zid ma'noli so'zlarning mavjudligi badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, ta'sirchanligini ta'minlashda qulay vositalardan biridir. Sharq adabiyotida juda qadim zamonlardan buyon tildagi bu ifoda imkoniyatidan keng foydalanib kelingan. «Shoir uchun juda zarur bo'lgan san'atlardan biri tazoddir. Bu san'at yana *mutobaqa, tiboq, tatbiq, muttazod, ittizod* va *takofu* deb ham ataladi. Bu san'atda, badi'shunoslarning aytishicha, zid ma'noli so'zlardan foydalaniladi». [4. 64-b] Zid ma'noli so'zlarni yonma-yon qo'llash orqali tushunchalar, belgilar, holatlar, obrazlar zidlantiriladi. Odatda, lisoniy va kontekstual yoki nutqiy zid ma'noli so'zlar farqlanadi. Masalan:

Qattiq yerdan **qatalab** chiqqan boychechak,
Yumshoq yerdan **yumalab** chiqqan boychechak.
Pechka yonar erta-yu kech,
Yozdan farqi bo'lmaydi hech.
Qo'l siltashdi bir-biriga,
Qoldi foyda-ziyon ham

Kontekstual antonimlardan badiiy asarda tasvirning ta'sirchanligini oshirish maqsadida ishlatiladi. Yuqoridagi "**Qattiq** yerdan **qatalab** chiqqan boychechak, **Yumshoq** yerdan **yumalab** chiqqan boychechak" misrasida qattiq-yumshoq zidlikni bevosita ifodalasa, **qatalab** va **yumalab** so'zlari zidlikni matndagina ifodalashga xizmat qilyapti.

Bu nutqiy parchada qatalab va yumalab so'zlari **«qiyin»** va **«oson»** ma'nolari bilan antonimik munosabatga kirishgan.

Ko'p ma'noli so'zlar. Yozuvchining tildan foydalanish mahoratini belgilashda badiiy nutq ifodaliligini qay darajada ta'minlay olganligiga e'tibor qaratiladi. Buni ko'p ma'noli so'zlarni o'z o'rnida, muayyan estetik maqsad bilan qo'llay olishidan ham aniqlasa bo'ladi. Ko'p ma'noli so'zlar nutqning ifoda imkoniyatlarini kengaytirishga ko'maklashuvchi lisoniy vosita hisoblanadi.

Ko'p ma'nolilik asosan so'zlarga xos xususiyat bo'lib bir so'zning birdan ortiq ma'noga ega bo'lishi tushuniladi. Iboralarda ham ko'p ma'nolilikni kuzatish mumkin. Masalan: yuragi qinidan chiqmoq iborasi sevinchni va qattiq qo'rquvni ifodalashga xizmat qiladi. Qizning paranjisini ko'rishi bilanoq yigitning yuragi qinidan chiqayozdi (Oybek). Qo'rqmayman deb bo'lmaydi, o'g'lim. Shunaqa vaqtda odamning yuragi qinidan chiqib ketadi (A.Qahhor). Bosh suqmoq – qisqa fursatga kirmoq, xabar olmoq; aralashmoq, odamlarga qo'shilmoq. Tomdan tarasha tushganday – kutilmaganda, qo'qqisdan; qo'pol tarzda.

«Parallel birliklarning asosiy vazifasi fikrga izoh berish va, eng muhimi, unga tinglovchini to‘la ishontira olishdan iborat. Ular til uslubiy vositalarining boyishi manbalaridan biri bo‘lib, poetik nutqda ko‘p qo‘llanadigan, eng mahsuldor va ta’sirchan sintaktik birlik hisoblanadi».[5. 73-b] Bir xil shakllangan gaplar badiiy nutq ta’sirchanligini boyitish bilan birga ma’noni kuchaytirishga va fikrning batafsil - atroflicha ifodalanishiga, tasvir ob’yekti bilan bog‘liq ma’lumotlar fondining kengayib borishiga xizmat qiladi.

Badiiy matnni lingvopoetik tahlil qilishda ko`plab leksik hamda sintaktik birliklarning ahamiyati turlichadir. Quyida sizlar bilan badiiy matnning lingvopoetik qiymatini, ekspressivligini oshiruvchi sintaktik birliklardan bo`lgan g`ayriodatiy birikmalarni ko`rib chiqamiz.

**G`ayriodatiy birikmalar** – ular muallifning badiiy imkoniyatlarini, ijodiy salohiyatini, ijodkorlik qirralarini nomoyon qila olish imkoniyatlarini keng ochib bera olishlariga imkon yaratuvchi hodisalardan biridir. Har bir muallifning o`zigagina xos bo`lgan so`z tanlay olish qobiliyati mavjudki, har qaysi yozuvchi undan o`zgacha foydalanadi, asar ruhiyatini, qahramonning ichki his-tuyg`ularini, sodir bo`layotgan voqea-hodisaning makon va zamonini o`quvchiga yetkazib bera olishda ana shu xususiyatidan keng foydalanadilar. Buning natijasi o`laroq g`ayriodatiy birikmalar yuzaga keladi. Quyida g`ayriodatiy birikmalarning ayrimlarini ko`rib o`tamiz.

O`zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan bo`lgan Tohir Malikning “Shaytanat” nomli qissasida quyidagicha uchratish mumkin: “Anvar masrur edi. U o`rnidan yengil turdi. Go`yo uni uzoq yillar ezib kelgan *g`am xarsanglari* Xolidiyning baqirig`idan so`ng yelkasidan ag`darilganday bo`ldi.” Bu o`rinda xarsang so`ziga e’tiboringizni qaratmoqchimiz:

Gap so`zidan foydalanib ikki yozuvchi o`z asarlarida turlicha birikmalar tuzishga erishganlar: *iliq-issiq gap*, *tagdor gap*, *burama gap.*

“Agar biron asarim kitobxon og`ziga tushsa, *iliq-issiq gaplar* bo`lsa mendan oldin u sevinib ketardi”. “Kelin *tagdor gap*ni tushunadigan beshariqliklardan edi”. (S.Ahmad “Kiprikda qolgan tong”).

“Bu gapni eshitib Anvar “shu odam ota bo`lgan xalqning padariga la’nat! ” dedi. Yonidagi hamkasblar avvaliga bu *burama gap*ning mag`zini chaqishmadi. Keyin tushunib qolib kulib yuborishdi”.(T.Malik “Shaytanat”)

“Toza odam”, *“fikri toza”* birikmalari matndan ayro holda o`qilganda yozuvchi o`ylagan mazmunga o`quvchi tushunib yetolmaydi, shunday ekan albatta bu birikmalar orqali u nima demoqchi ekanligini bilish maqsadida albatta matnni o`qish lozim.

“Aslini olganda Jahongirov chindan beozor, qo`y og`zidan cho`p olmagan, birovni malomat qilmagan *toza odam* edi”. “O`lmas mulohazali, *fikri toza*, sabr-qanoatli yigit edi. Sira hafa bo`lmaganini aytdi.” (S.Ahmad “Kiprikda qolgan tong”). Demakki, bu yerdagi sifat turkumiga oid bo`lgan *toza* so`zi qahramonni salbiy fazilatlardan, yomon qusurlardan holi bo`lgan inson sifatida ta’riflash uchun ishlatilmoqda.

Quyidagi parchalarda ham g`ayriodatiy birikmalarning ajib bir namunalariga guvoh bo`lasiz: "Otni topsang topding, topmasang o`z o`pkang o`zing bilan bo`lsin." (T.Murod "Ot kishnagan oqshom"). Ushbu gapda *o`z o`pkang o`zing bilan* birikmasi *o`zingdan o`pkala* iborasiga teng kuchli bo`lib, iboraga o`zgartirish kiritish orqali g`ayriodatiy birikma tuzilgan. Mazkur parchada ham shunga o`xshash birikma mavjud: "Sherali daromad qilgani gap topolmay, Shahrinisoning qo`lini ushladi." (A.Qahhor "Anor" hikoyalar to`plami). *Daromad qilgani gap topolmay,* ya'ni daromad qilmoq – foyda topmoq mazmunini ifodalagan holda, qahramon qizga nisbatan o`z tuyg`ularini oshkor etish uchun ojizdek bo`lib, hislarini ifodalashga so`z topolmagan holatini tasvirlash maqsadida muallif shu birikmani badiiy matnga kiritishni ixtiyor etgan. Bu kabi g`ayriodatiy birikmalarni matnda uchratgan sari o`quvchining ham qiziqishi, ham dunyoqarashi, ham fikrlash doirasi o`sib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Asqarova M., Qosimova M., Jamolxonov M. O'zbek tili. –T: O'qituvchi, 1989.
2. Cho'lpon. Asarlar. Uch jildli. 2-jild. –T: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va San'at nashriyoti, 1994.
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili.-T: «Universitet», 2006, 45-b.
4. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. – ToshkenT: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976. – B.64.
5. Shukurov R. Sintaktik parallelizmning uslubiy vazifalari.//O'TA, 2004,№2,73-b.
6. Akbarova, Munira. "FOLKLORE IN PRIMARY EDUCATION-THE LINGUISTIC FEATURES OF TEACHING PROVERBS." *Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации*. 2021.
7. UMAROVA, N. R., & Yigitaliyeva, S. I. A. Q. (2021). Concept as a basic unit of cognitive linguistics. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука*,*(9)*, 701-704.
8. Rustamovna, U. N., & Shohsanam, Y. (2022). The realization of the concept of goodness in English and uzbek proverbs. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, *3*(7), 148-152.
9. Yigitaliyeva, S. (2022). GLORIFICATION OF "GOODNESS" IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI. *Scienceweb academic papers collection*.
10. Yigitaliyeva, S. (2021). Konsept va umummilliy konseptlar hamda ularning tadqiqi. *Scienceweb academic papers collection*.
11. Linguistic analysis the concept of GOODNESS
12. S Yigitaliyeva - Scienceweb academic papers collection, 2021 113-115.
13. Ubaydullaevna, N. S., Mehmonalievich, T. A., Mamirovna, H. K., & Nosirovna, N. D. ON THE PRINCIPLES OF CATEGORIZATION OF WORDS.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA ONA TILI DARSLARINI O'RGATISHNING LINGVISTIK KONSEPTUAL ASOSLARI

Yigitaliyeva Shoxsanam Isog'aliyevna
Qo'qon DPI Boshlang'ich ta'lim kafedasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darslarini samarali tashkil etish xususida fikr yuritadi.O'quvchilarning, eng avvalo, savodxonligini oshirishda to'g'ri o'qish, so'z boyligini oshirish, keng fikrlashga o'rgatish, nutqini, ongini rivojlantirish kabi bir qator xususiyatlarni o'rganishda ona tili va o'qish savodxonligi darsini to'g'ri tashkil eta bilish haqida qarashlar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, konsept, fikr, tushuncha, innovatsiya, ijodkorlik, erkin fikrlilik, interfaol metodlar, nutq madaniyati, dars samaradorligi.

Annotation. This article reflects on the effective organization of native language and reading literacy classes in elementary grades. First of all, to improve students' literacy, they should learn to read correctly, increase vocabulary, and teach them to think broadly. , in the study of a number of features such as the development of speech and consciousness, views on the ability to properly organize the lesson of mother tongue and reading literacy have been put forward.

Key words: person, concept, idea, understanding, innovation, creativity, free thinking, interactive methods, speech culture, lesson efficiency.

Абстрактный. В данной статье размышляется об эффективной организации занятий по родному языку и читательской грамотности в начальных классах.Прежде всего, для повышения грамотности учащихся следует научиться правильно читать, увеличить словарный запас, научить широко мыслить. выдвинут ряд особенностей, таких как развитие речи и сознания, взгляды на умение правильно организовать урок родного языка и грамотность чтения.

Ключевые слова: человек, концепция, идея, понимание, новаторство, творчество, свободомыслие, интерактивные методы, культура речи, эффективность урока.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan kundan boshlab jamiyatni isloh qilish siyosatini kun tartibiga qo'ydi. Barcha sohalardagi kabi ta'lim sohasini isloh qilish siyosati ham izchillik bilan amalga oshirila boshlandi. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha Yangi tahrirdagi Davlat ta'lim standarti ham mustaqillik davridagi tajribalar natijasi sifatida maydonga keldi. U boshlang'ich ta'lim darsliklari va metodik qo'llanmalarining vangi avlodini yaratishda dasturulamal vazifasini o'tamoqda.

Boshlang'ich ta'lim Davlat ta'lim standartining „Kirish" qismida „Boshlang'ich ta'lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish sa-lohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog'lom bo'lishga, moddiy borliq

go'zalliklarini his eta olishga, go'zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarni o'zida singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o'rgatadi", - deb alohida ta'kidlangan. Boshlang'ich ta'lim oldiga qo'yilgan bu kabi talablarni amalga oshirish ta'lim mazmunini aniq belgilab olishni, o'qitishga yangicha yondashuvni taqozo etadi.

Davlat ta'lim standartida ta'kidlanganidek, „Boshlang'ich ta'lim bosqichida davlat va jamiyat tomonidan qo'yiladigan talab"da ta'lim sohalari bo'yicha o'zaro muvofiqlik, mutanosiblik, uyg'unlik to'la ta'minlangan bo'lmog'i kerak. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim standartini belgilash ta'lim jarayonining tarkibini va xuddi shu tarkib komponentlarining mazmunini modernizatsiyalash, boshlang'ich ta'lim jarayonida yangi, zamonaviy pedagogik texnologiyani qo'llash imkonini beradi.

Ma'lumki, ma'no bildiradigan tovushlar yig'indisi so'zdir. Tilning lug'at boyligi, leksikasi fikr ifodalash uchun xizmat qiladigan o'ziga xos qurilish materialidir.

Tilning lug'ati qanchalik boy bo'lsa ham grammatikasiz u o'lik hisoblanadi. Tilning lug'at boyligi o'z-o'zicha aloqa vazifasini bajar-maydi. Aloqa maqsadida xizmat qilish uchun lug'at boyligidagi so'zlar bir-biri bilan grammatik jihatdan o'zaro bog'lanib, gap tuziladi. Mana shu tuzilgan gap orqali fikr ifodalanadi.

Tilning har bir tomonining xususiyati undagi til „birliklarining o'ziga xosligida namoyon bo'ladi. Fonetika uchun bunday til birligi nutq tovushlari, fonemalar; leksikologiya uchun ma'nosi va qo'llanishi nuqtai nazardan so'z; grammatika uchun so'z shakllari, shuningdek, so'z birikmasi va gap; so'z yasalishi uchun morfema, tuzilishi va yasalishi jihatdan so'z hisoblanadi.

So'z, so'z birikmasi va gap grammatik tomondan ko'pgina xususiyatlarga ega. So'zning o'z morfemik qurilishi, o'zining so'z yasalish turi, biror grammatik kategoriyasi (shaxs, son, egalik, kelishik va boshq.), ma'lum sintaktik vazifasi bor. So'z birikmasi ham so'z kabi so'z o'zgarishi (ko'proq ergash so'z o'zgaradi) shakllariga ega. Gap o'z qurilishiga ko'ra so'zdan sifat jihatdan farqlanadi: so'z o'zi alohida kelganda mustaqil ma'no anglatmaydigan morfemalardan tuziladi, gapni tashkil etuvchi qismlar esa gapdan tashqarida ham mustaqil leksik ma'no bildiradi, gap tarkibida esa uning ma'nosi yana oydin-lashadi. Gap va so'z birikmasi „qurilish materiali" sifatida xilma-xil tuzilgan so'zdan foydalanadi. Gap uchun qator sintaktik xususiyatlar, shuningdek, tugallangan ohang ham xarakterlidir.

Fonetika, leksikologiya bilan ham, grammatika bilan ham bog'lanadi. Tovushlar, fonemalar, bo'g'inlar tilda alohida emas, balki ma'lum leksik ma'no bildiradigan so'z tarkibida yashaydi.

Fonetikaning sintaksis bilan bog'lanishi, xususan, har bir gapda ma'lum ohangda bo'lishida ko'rinadi. Grammatik va semantik jihatdan bog'langan so'zlar majmuasi ma'lum ohangga ega bo'lsagina gap hisoblanadi. Bunda gapning mazmuni so'zlovchining gapda ifodalangan ohangiga bog'liq bo'ladi. Shunday qilib, ohang gapda so'z tartibi, yordamchi so'zlardan foydalanish, so'z o'zgartishlar bilan birga gap tuzish usullaridan biri sifatida xizmat qiladi.

Leksikologiya so'z yasalishi bilan jips bog'lanadi: birinchidan, tilning lug'at tarkibi, asosan, tilda mayjud bo'lgan so'zlardan yangi so'zlar yasalishi hisobiga to'ldirilib, boyib boradi; ikkinchidan, yasal-gan so'zlarning leksik ma'nosi yasama negizning moddiy ma'nosiga asoslanadi.

Morfologiya leksikologiya va so'z yasalishi bilan jips bog'langan. Morfologiya, asosan, so'zning grammatik xususiyatlarini o'rganadi. So'zninggrammatik ma'nosi doimo leksik ma'nosi bilan birga namoyon bo'ladi, har bir so'z, bir tomondan, shu so'zga tegishli bo'lgan ma'lum o'ziga xos leksik-grammatik guruhning belgilarini bildiradi, ikkinchi tomondan, u so'zning o'z leksik ma'nosi bo'ladi. So'zdagi mana shu umumiy birlik morfologiyada, leksikadan ajralmagan holda, leksika zaminida o'rganiladi.

So'z uchun muqarrar morfemik tarkibi xarakterli bo'lib, bunga so'zning leksik ma'nosi va qator grammatik belgilari bog'liq bo'ladi. Yangi so'z qaysi usul bilan yasalmasin, u doim grammatik shakllanadi va o'zining leksik ma'nosiga ega bo'ladi. Har bir so'z turkumida so'z yasalishining xarakterli xususiyatlari mayjud. So'zning morfemik tarkibi va yangi so'z yasalish usullari tilshunoslik fanining so'z yasali¬shi bo'limida, grammatika va leksikologiyadan ajratilmagan holda o'rganiladi.

„So'z" mavzusi o'tilayotganda o'quvchilar tomonidan so'zning talaffuzi, leksik ma'nosi, morfologik tarkibi, grammatik belgilari, yasalishi, nutqda ishlatilishi va yozilishini yaxlit tushunishga asosiy diqqat qaratiladi. Bunda o'qituvchi so'zning nom bo'lib xizmat qilishini ham, morfemik tarkibi va leksik ma'nosining bir-biriga ta'sirini ham o'quvchilarning tushunib olishlariga erishishi lozim.

„Gap" mavzusini o'rganish vaqtida esa ishning asosiy yo'nalishi nutqda gapning til birligi sifatidagi vazifasini tushuntirish va o'quvchilarda og'zaki va yozma nutqlarida gapdan oson foydalanish ko'nikmasini shakllantirish hisoblanadi.

Maktabda tilning barcha tomonlarini bir-biri bilan bog'liq holda o'rganish ona tilini o'rgatishning yetakchi metodik tamoyili hisoblanadi. Buni amalga oshirish til o'suvchan, bir-biriga o'zaro ta'sir etadigan tomonlari mavjud bo'lgan murakkab hodisa ekanini tushuntirishda ilmiy asos hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarining turlari va ularga qo‘yiladigan talablar. Ona tili darslarining turlari va qurilishi.

Maktablarda ona tili o'rgatishning mazmuni jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatimizning maktab oldiga qo'ygan vazifasiga moslangan. Bu vazifalar ko'p qirrali bo'lib, ularni bajarish o'quvchilar ongini o'stirishga, ularga g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini berishga yo'naltirilgan. Ona tilini o'rgatish natijasida o'quvchilarda o'z fikrini grammatik to'g'ri, uslubiy aniq, mazmunli, ohangga rioya qilib ifodalay olish va uni imloviy to'g'ri yoza olish ko'nikmalari shakllantiriladi. Bu vazifa o'quv predmeti sifatida o'zbek tilining o'ziga xos xususiyati bo'lib, o'quvchini shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan umumta'lim vazifalari bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

Shunday qilib, Ona tili kursida beriladigan bilimlar mazmunini o'zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi (fonetik

va grafik); so'zlarning o'zgarishi va gapda so'zlarning bog'lanishi haqidagi (grammatik, ya'ni morfologik va sintaktik); so'zning morfemik tarkibi va so'z yasalish usullari haqidagi (so'z-yasalishiga doir); so'zlarning leksik-semantik guruhi haqidagi (leksikologik); o'zbek tilining to'g'ri yozuv tamoyillari va tinish belgilari-ning ishlatilishi haqidagi (orfografik va punktuatsion) bilimlar tashkil etadi. Bu bilimlar, birinchidan, grammatik, fonetik, so'z yasalishiga oid tushunchalarda, ikkinchidan, grafik, orfografik, punktuatsion qoi-dalarda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, o'zbek tili kursi fonetik, grafik, morfologik, sintaktik va boshqa ko'nikma va malakalarni ham o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. UMAROVA, N. R., & Yigitaliyeva, S. I. A. Q. (2021). Concept as a basic unit of cognitive linguistics. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука*,*(9)*, 701-704.
2. Rustamovna, U. N., & Shohsanam, Y. (2022). The realization of the concept of goodness in English and uzbek proverbs. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, *3*(7), 148-152.
3. Yigitaliyeva, S. (2022). GLORIFICATION OF "GOODNESS" IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI. *Scienceweb academic papers collection*.
4. Yigitaliyeva, S. (2021). Konsept va umummilliy konseptlar hamda ularning tadqiqi. *Scienceweb academic papers collection*.
5. Linguistic analysis the concept of GOODNESS
6. S Yigitaliyeva - Scienceweb academic papers collection, 2021 113-115.
7. Ubaydullaevna, N. S., Mehmonalievich, T. A., Mamirovna, H. K., & Nosirovna, N. D. ON THE PRINCIPLES OF CATEGORIZATION OF WORDS.

BADIIY MATNLARDAGI TIL O'YINLARINING LINGVOPRAGMATIK TATQIQI

Ergasheva Muxtaramxon
Qo'qon davlat pedagogika institute magistranti

Annotatsiya. Badiiy dunyoni modellashtirishning tarkibiy qismlaridan biri sifatida til o'yinining tamoyillarini tahlil qilishga qaratilgan. Badiiy matn muallif ijodining eksprimental maydoni sifatida qaratilgan. Badiiy matnlardagi tashbex, obrazli- evristikani o'ziga xosligini tahlil qilishga asoslanadi. Badiiy matnlardagi til o'yini tarifi va tarjima masalalari yoritiladi.

Abstract. Aimed at analyzing the principles of language as one of the components of modeling the literary world. The artistic text is considered as an experimental field of the auther's creativity. It is based on the analysis of the uniqueness of figurative heuristics in literary texts. The meaning of language games(puns) expression and translation issues are covered in literary texts.

Keywords: til o'yinlari, badiiy matn, ijod , tilshunooslik, eksperiment.

Kirish. Ushbu maqolada til o'yinini ingliz tiliga tarjima qilish xususiyatlarini ko'rib chiqish va badiiy matnlarda uchraydigan til o'yinlarini tarjima qilish, tarjimada uni qayta yaratish yo'llarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Til o'yini xorijlik va mahalliy mutahasislar tomonidan har tomonlama o'rganilgan bo'lsada, badiiy asarlardagi til o'yinning xususiyatlari mavzusi hamon tatqiqot uchun o'rin qoldiradi. Muammoning dolzarbligi zamonaviy tilshunoslikning ushbu sohadagi bilimlarini tizimlashtirish uchun badiiy matnlardagi til o'yinini tarjima qilishda tarjima yechimlarini o'rganishga qiziqishi shuningdek ushbu mavzuni tilshunoslikda batafsilroq yortish bilan bog'liq. Mamlakatimiz tilshunoslikning keying yillardagi rivojida badiiy matnlarda til o'yininlarining lingvopragmatik tadqiqi tarjimoshunoslikda o'rganilishi dolzarb bo'lib kelinmoqda. Zero, bugungi kunda "O'zbekiston ilm- fan, intellectual salohiyat sohasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lishi shart"[28]lidan kelib chiqqan holda tilshunoslar hal qilishi lozim bo'lgan vazifalar qatorida, badiiiy matnlarda til o'yinlarining lingvopragmatik tadqiq qilish orqali til o'yinlarining turlari, xuxusiyatlar va tarjima qilish usullarini ochib berish bo'yicha aniq mezonlarini belgilashda dolzarb kasb etadi.

Muhokama va natijalar. Til o'yini tushunchasi olimlar o'rtasida til o'yinini qanday aniqlash va talqin qilish bo'yicha haligacha yagona fikr mavjud emas. Tilshunoslikda til o'yini, atamasi birinchi bo'lib L.Vittgenshteyn tomonidan falsafiy tadqiqotlar Winganshteyn asarida qo'llanilgan bo'lib bu yerda til so'zlovchi ishtirok etadigan an'anaviy qoidalar tizimi sifatida tariflanadi. Shu bilan birga til o'yini ma'nolarining ko'pligini tinglovchining faol rolini nazarda tutadi. Shuningdek, u o'yining kelib chiqishi tilning ishlashi nazariyasini yaratishga ega.

[28] Ўзбекистон РеспубликасиПрезиденти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 22 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси // «Халқ сўзи» газетаси. – Тошкент, 2017 йил 23 декабрь. 258 (6952)-сон.

Olimning fikricha til bilan bog'liq har qanday faoliyat turiga o'yin sifatida D.Delabastita so'z o'yinlarini til o'yinlarining sinonimi deb hisoblaydi. Biroq bazi tadqiqotchilar so'z o'yinini til o'yining pastki sinfi deb xisoblashishadi. R. Lepihal so'z o'yinlarini omonfonlar yoki paronimlar kabi til o'yinlarining kichik sinfi sifatida tasniflaydi. Shuning uchun til o'yinini tor va keng ma'noda ko'rib chiqish mumkin. Tor ma'noda til o'yini D.Delabastita taklif qilganidek so'z o'yining sinonimi sifatida talqin qilinadi. Ayni paytda keng ma'noda so'z o'yinlari, spunerizm va boshqa til birlikllari kabi barcha kichik sinflarini qamrab olgan umumiy atama sifatida tasniflanadi. Greogardze bizning tadqiqotimizda biz oxirgi yondashuvga murojat qilamiz, keng keng manoda til o'yinlari yondashuvlarini qo'llab quvvatlagan xolda D. Chiaro so'z o'yini atamasi tilda o'yin kulgi sifatida ishlatiladigan barcha mumkin bo'lgan usullarni qamrab oladi deb xisoblaydi. U pun o'yin kulgu qo'shiqchilik va kinoya va hazil kabi narsalarni qamrab olishini tushuntiradi. Boshqa tomonda Delabastitada quyidagi tarifni beradi: "so'z o'yinlari turli matn xodisalarini o'zida mujasamlashtirgan tushuncha bo'lib tilnning yoki bir nechta tilning strukturaviy xususiyatlari ikki yoki undan ko'p komunnukativ jihatdan mazmunli qarama qarshiligini ko'rsatish uchun foydalaniladi. Ko'proq yoki kamroq o'xshash shaklarga va ko'p yoki kamroq turli ma'nolarga ega bo'lgan til tushunchalaridir ".[29] D. Delabastitaning tarifini takidlash kerak bo'lgan bazi jihatlar mavjud birinchidan so'z o'yini matnli xodisadir. Shunday qilib, yani ma'lum bir matn vaziyatida qo'llanilishi kerak yoki boshqacha qilib aytganda muayyan konteksni talab qiladi. Ikkinchidan,kulgili effekt yaratish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan til xususiyatlari mavjud D.Delabastita qo'llash mumkin bo'lgan lingvistik xususiyatlar fonologik xususiyatlar bilan bir qatorda leksik, marfologik va sintaktik xususiyatlar ekanligini batafsil tushuntirib berdi. Bundan tashqari etiborga olish kerak bolgan so'zlar o'yinlarining yana bir jihati kamunikativ ahamiyatga ega bu ma'lumot bir mavzudagi so'zlardagi o'yinning yo'nalishi bilan bog'liq. "Til o'yinini agar u qasddan bo'lsa kamunikativ ahamiyatga ega deb atash mumkin. Shunindek, so'zlar ustida til o'yin tuzilmalari qarma- qarshiligini taklif qiladi. Bu turli xil ma'nolari bilan xazil yaratishga bo'lgan bir biriga ikki yoki undan ortiq lingvistik tuzilmalar bo'lishi mumkin. Bu qarama qarshilik til o'yining tor tushunchasini keng tushunchadan ajratib turadigan jihatdir. Odatda ma'ruzachi yoki mualifning so'z birikmalaridan foydalanishini asosiy sababi kulguli effekt yaratishdir. U o'quvchilar yoki tinglovchilarni qiziqtirish uchun mo'jallangan."[30] Shuni aniqladiki, hazil effektini yaratish va o'quvchi yoki tinglovchining etiborini matndagi biron narsaga qaratish bilan bir qatorda so'z o'yini o'quvchi yoki tinglovchini ko'proq etibor berishga undaydi, gapga ishontiruvchi bo'lgan bir biribiga o'xshash ikki yoki undan ortiq tuzilmalar bo'lishi mumkin. Bu qarama qarshilik til o'yining tor tushunchasini keng

[29]Delabastita, Dirk. 1993. There's a Double Tongue: An Investigation into the Translation of Shakespeare's Wordplay, with Special Reference to Hamlet. Amsterdam & Atlanta: Rodopi.
[30]Delabastita, Dirk. 1996. Introduction. The Translator: Studies in Intercultural Communication 2:2 (special issue: Wordplay and Translation). 127-139.

tushunchadan ajratib turadigan jihatdir. Odatda maruzachi yoki mualifning so'z birikmalaridan foydalanishing asosiy sababi kulgu effekt yaratishdir. Kuch qo'shib aldashga yaratib beradi. Bizning ijtimoiy har qandey tabu mavzulariga qarshi qaratilgan shartli refleks va boshqalar. Til o'yinini tan olish va tushunish insonning o'qish odatiga shuningdek matnning janr konventsiyasiga bog'liq. "Til o'yining yana bir muhim jihati bu nomuofiqlik. Til o'yini hazil efektini yaratganligi sababli unga hazil nazariyasi amal qiladi, hazil nomuofiqlikka asoslanga xodisa ekanliginin takidlaydi. Boshqacha qilib aytganda hazil biz bilgan yoki kutgan narsalar bilan haqiqatda sodir bolayotgan narsalar ortasida nomuofiqlik tufayli yuzaga keladi". [31]

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqotning nazariy qismini umumlashtirilgan holda shuni ta'kidlash kerakki, til o'yinini tarjima qilish muammolarini o'rganish hozirgi zamon tilshunosligining dolzarb masalalaridan biridir. Hozirgacha tilshunoslar til o'yinini tariflash uchun bitta atamaga kelishmagan, ammo bu ishda biz D. Delabastita kontseptsiyasiga tayandik, bunda til o'yini turli matn hodisalarini o'zida mujassamlashtirgan tushuncha bo'lib, unda til o'yinining strukturaviy xususiyatlari mavjud. Bir til (yoki bir nechta tillar) ko'proq yoki kamroq o'xshash shakllarga va ko'p yoki kamroq turli ma'nolarga ega bo'lgan ikki yoki undan ortiq lingvistik tuzilmalar o'rtasidagi kommunikativ jihatdan mazmunli qarama- qarshilikni ko'rsatish uchun ishlatilinadi. So'z o'yinlari- bu ikki tilning kommunikativ jihatdan muhim qarama- qarshiligini ko'rsatish uchun tilning tarkibiy xususiyatlari qo'llaniladigan turli xil matn hodisalarni birlashtirish tushunchadir. Bizning fikrimizcha, bu tushuncha til o'yinlarining biron bir o'ziga xos turini va uning funksiyasini ajratib ko'rsatmasdan, til o'yinlarining tuzilishini to'liq tavsiflaydi. Til o'yini mahalliy olimlar tomonidan turli xil talqinda korib chiqiladi. T.A Gridina til o'yini haqida kengroq tushunchani taklif etgan. Til o'yini ostida lingvo- ijodiy faoliyatning o'ziga xos shakli tushuniladi. Shuningdek, til o'yini belgining standart shakli va uni yangi qayta ishlash ortasidagi paradoksni takidlaydigan usullardan foydalanishni maqsad qilgan. Shuningdek til o'yinlarining yagona tasniflash masalasi haligacha hal etilmagan. Xorijiy va mahaliy tarjimonlar va tilshunoslar tomonidan til o'yiniga turli xil ta'riflar berish natijasida uning turli tasnifi ham mavjud. Til o'yinini boshqa tillarga tarjima qilish mumkin, lekin uning ma'nosi asl so'z o'yinlaridan farq qilishi mumkin va u taqdim etilgan kontekst maqsadli til madaniyatiga mos ravishda so'zlanishi mumkin idrok etish mumkin.

References

1. [1] Ўзбекистон РеспубликасиПрезиденти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 22 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси // «Халқ сўзи» газетаси. – Тошкент, 2017 йил 23 декабрь. 258 (6952)-сон.

[31] Chapman A.J, Foot H. C. Humor and Laughter: Theory, Research, and Applications. New Brunswick: Transaction, 1996. 348 p.

2. Delabastita, Dirk. 1993. There's a Double Tongue: An Investigation into the Translation of Shakespeare's Wordplay, with Special Reference to Hamlet. Amsterdam & Atlanta: Rodopi.
3. Delabastita, Dirk. 1996. Introduction. The Translator: Studies in Intercultural Communication 2:2 (special issue: Wordplay and Translation). 127-139.
4. Chapman A.J, Foot H. C. Humor and Laughter: Theory, Research, and Applications. New Brunswick: Transaction, 1996. 348 p

INGLIZ TILI VA O'ZBEK TILIDA BAHO MUNOSABATINING IFODALANISHINING USUL VA VOSITALARI.

Gulzoda Rakhimova Xamdamjon kizi,
Kokand State Pedagogical Institute
Master's degree student of English language and literature

Ziyayev Avazjon Ixtiyorivich
Associate professor:Doctor of Philological Sciences,

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tilllarida so'zlovchining obyektga o'zining subyektiv baho munosabatini bildirishda ijobiy va salbiy bo'yoqdorlikning yuzaga keltiruvchi sath birliklar haqida.

Kalit so'zlar: subyekt ,obyekt, leksik sath birlik, morfologik sath birlik, fonetik sath birlikda baho munosabati. Ijobiy va salbiy, neytral baho munosabati.

Аннотация. В статье рассматриваются определение субъективной оценки взгляды на ее подход и понятие авторской позиции в художественных текстах. В дополнение к этому в следующей статье представлены данные о методах и средствах реализации субъективной оценки на английском и узбекском языках а также приведены их практические примеры.

Ключевая слова: субъективная оценка, стилистика , литературные тексты,смысл, означает, реализация, язык, метод.

Abstract. The article discusses the definition of evaluation, views to its approach and the notion of author's position in literary texts. In addition to this, the following paper presents date related to the methods and means of realizing evaluation in English and Uzbek languages as well as provides practical examples of them.

Key words: subject, object, lexical unit, morphological unit, phonetic unit. Positive and negative, neutral evaluation relationship.

Kirish. Til serqirra mohiyatli murakkab tuzilishga ega lisoniy tuzilmadir. Inson tildan foydalanishda unga o'z tasirini o'tkazishi , uni " o'z izmiga solishga urinishi tabiiy. O'z o'rnida til ham inson hayotini izmiga solishga yordam beruvchi qudratli vositadir. Til va undan foydalanuvchi shaxslar o'rtasidagi bu munosabatlar tilda o'z ifodasini topmay qolmaydi albatta. Tilshunoslik fani serqirra mohiyatli tilning lingvistik xususiyatlarini o'rganish bilan bir qatorda , til va uning foydalanuvchisi o'rtasidagi munosabatlarning tilda aks etishini tahlil qilishi lozim.

Ona tilimiz haqida prizidentimiz Shavkat Mirziyoyev –Har birimiz davlat tiliga bo'lgan etiborni mustaqillikka bo'lgan etibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni, ona vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantrishimiz kerak –deb be'jizga aytishmagan.

Hozirgi kunda kognitiv lingvistikaning umumiy muammolaridanbiri hisoblangan baho munosabatning til sathida o'rganilishi muhim ahamiyatga ega. Baho- har bir insonning o'zigagina tegishli bo'lgan individual munosabat shakli.

Masalan: Mingboshi kuldi: Esingga qoyilman, betavfiq! Shuncha esing boru, namoz o`qimaysan! (Cho`pon) Mingboshining Miryoqubga "eslisan" deyishi individual baho sanalib, ijobiy bahoni yuzaga keltirgan va u subyektning, ya'ni mingboshining Miryoqubga munosabati nuqtayi nazaridan kelib chiqqan baho hisoblanadi.

Ingliz tilida ham ijobiy yoki salbiy munosabatlar turli til vositalari orqali ifodalanadi. Misol uchun : *He came on time to meeting.* Bu gapda salbiy munosabat mavjud bu fraza orqali ko'rsatib berilyabti. Shaxs uchrashuvga vaqtida emas unga bazor zo'rg'a yetib kelganini ifodalanyabti. Shuningdek ingliz tilda salbiy yoki ijobiy munosabatlar ko'proq ijobiy yoki salbiy leksik ma'noga ega sifatlar orqali nutqda voqealantiriladi. Misol uchun *He is a bit talkative man.* Bunda gapning salbiy ma'nosi birgina so'z talkative sifati bilan ochiq ifodalanyabti. Yoki aksincha gapda birgina ijobiy sifat yoki ot ishltish ham gapning butun mazmuniga tasir qilishi mumkin. *He is a team captain.* Gapida subyekt munosabat bildirayotgan shaxsning liderlik, ijobiy xarakterlari ifodalanyabti.

Baholashga asos bo`ladigan predmet,shaxs,voqealik (obyekt) deyilganda, baholovchi shaxs uchun asos bo`lgan narsa tushuniladi va uning ma'lum holatda, makonda, zamonda tutgan o`rni ahamiyatlidir. Obyekt bahosi narsaning qiymati sanaladi. *Masalan: "Dilmurodjon abjir va uddaburon"* gapida Dimurodjon obyekt, uning abjir va uddaburon ekanligi xususiyati – bahosi sanaladi.

O`zbek tilshunosligida tilning turli sathlarida baho ifodalovchi vositalar tadqiqiga bagishlangan A. G`ulomov, A. Hojiyev, R. Qo`ng`urov, R. Rasulov, Y. Tojiyev, R. Hadyatullayev, Z. Ma'rufov, A. Abdullayev , kabilarning asarlari mavjud bo`lsa ham, lekin shu kunga qadar baho aksiologik kategoriya sifatida yaxlit holda monografik tadqiqot obyekti bo`lgan emas. Bu esa mavzuning hozirgi o`zbek tilshunosligi uchun dolzarb ekanligini ko`rsatadi.

Tadqiqot materiallari va metadalogiyasi. Bahoning kategoriya sifatida ahamiyatga ega bo'lishi tilning turli xil funksiyalarida o'z aksini topishi bilan belgilanadi. N.D.Arutyunova, E.M.Volf, M.S.Retunskaya singari Tilshunoslar tilning pragmatik funksiyasi bilan bahoning ajralmas aloqasini tan oladilar, darhaqiqat, mazkur funksiya orqali so'zlovchining predmetga ijobiy yoki salbiy munosabat bildirishi ifoda etiladi. N.E.Kuznesova va E.V.Shevchenkolar ham bahoning pragmatik yo'nalganligini o'z ta`riflarida: "baho – bu sub`ektning u yoki bu ehtiyoj va qiziqishlarini qondirish ko'nikmasiga ega bo'lgan ob`ektning mohiyat darajasini sub`ekt tomonidan aniqlash jarayoni va natijasi" - deb ta`kidlaydilar.

Yuqoridan xulosa qilish mumkinki, baho munosabati va uni nng tilde turi til vositalari bilan ifodalanishi , nutqimizni yanada tasirli va bo'yoqdor qilishga ulkan hissa qo'shishi deyarli barcha tillarda ,xususan o'zbek tilida ham gapning kommunikativ tuzulishida katta ahmiyatga ega.

Zamonaviy tilshunoslikda baho munosabatini tasniflanishda turli til sathlari fonetik,leksik morfologik,sintaktik va semantik , mantiqiy semantik jixatdan

yondashilmoqda va tadqiq etilmoqda. Boshqa so'z bilan aytganda nutqda baho munosabati turli ko'rinishlarda uchrashi mumkin.

- Fonetik usul orqali- *Voy o'lmas-a-a-a-a-am bu nima qilg'iliq, hayvonni shu ko'yga solishga qanday vijdoning chidadi.*
- Leksik usul bilan esa- *yuz ,bet ,bashara ,aft* ma'no nozikliklari orqali.
- Morfologik usul bilan –*Dadamlar keldilar.*
- Sintaktik usul orqali--Bolakay hali yoshlik qilasiz bunday ishlar qilishga.
- Mantiqiy semantik usul- Zap qiz ekanmi? Tavba! –Xa,-tushunmadi Raxim Saidov. (O'.Umarbekov).

O'zbek tilida baho munosabatining yuzaga chiqiqshi mantiqiy kategoriya sifatida uch xil yo'l orqali ifodalanadi-*morfalogik,leksik, kontekstual*.O'zbek tilida morfologik usul bilan voqelikka ijobiy munosabat bildiriladi. Leksik ifodalanishda esa ijobiy munosabat ham, salbiy munosabat ham bildiriladi (chehra-, bashara-leksemalarida bo'lgani kabi).

Kontekstual, situativ ifoda usulida odatda voqelikka salbiy munosabat bildiriladi. Ijobiy yoki salbiy munosabat bildirilmagan hollarga nisbatan betaraf baho semasi haqida gapiriladi. Leksemalarning asosiy qismi baho semasi jihatidan betaraf bo'ladi.

Tadqiqot natijalari. Shuni ham aytish kerakki, o'zbek tilshunosligida ushbu muammo yuzasidan dastlabki qadamlar qo'yildi, lekin ularda baho munosabati haqidagi umumiy fikrlar berilgan bo'lib, uning har bir sathda namoyon bo'lishi keng planda o'rganilmagan.

Baho munosabati XX asrning 70-80- yillarida formal logika tadqiqi asosida yuzaga chiqqan yo'nalish bo'lib, garchi unda ilgari ba`zi tadqiqotlarda turli aspektlarda yoritilgan bo'lsa-da , mukammal va keng qamrovda o'rganishga keyingi yillarda kirishildi.

Tilshunoslikda funksional yo'nalishning rivojlanishi, pragmatik aspektga murojaat baho fenomenining nafaqat g'arb tilshunosligida, balki rus tilshunosligida ham markaziy o'rinlardan birini egallashiga turtki bo'ldi.

Inson nutqi kimga yoki nimaga qaratilganligi, qanday niyat bilan sodir etilganligi masalasi tilni mantiqiy nuqtai nazardan o'rganish va baho berish bilan chambarchas bog'liqdir. Ilmiy adabiyotlarda "baho" tushunchasi, bahoning til tabiati va tiplari, baho maqomining lingvistik kategoriyalari masalalarining hajmi va mazmunini o'rganish ancha faol yo'lga qo'yilmoqda.

Tadqiqotlarga ko'ra baho munosabating eng boy, sermahsul usuli bu leksik birliklar orqali uning ifodalanishidir. Masalan, *yuz-, bet-, aft-, bashara-* leksemalari ayni bir leksik ma'noni anglatadi, baho semasining ifodalanishiga ko'ra esa farqli.

Baho semasi jihatidan eng betaraf leksema – yuz-. Ikkinchi o'rinda bet-leksemasi turadi, lekin bu leksemada voqelikka salbiy munosabat aniq seziladi. Masalan, *Yuzingni yuv, Betingni yuv* jumlalarida fikr bir, lekin munosabat boshqa-boshqa: ikkinchi jumla odatda kattaning kichikka yoki umuman mensimay

muomala qilishda ishlatiladi. *Aft-, bashara-* leksemalarida salbiy baho semasi yana ham kuchli ifodalanadi: *Aftingni yuv, Basharangni yuv* kabi.

Muhokama. Umuman, baho semasi kuchaya borgan sari bunday leksemaning boshqa leksemalar bilan bog‘lanish imkoniyati, ishlatilish doirasi toraya boradi. Masalan, *aft-, bashara-* leksemalari asosan ayollar nutqida ishlatiladi, shunda ham ko‘pincha *quri-, ol-, ko‘tar-* kabi bir necha fe'l leksema bilan-gina bog‘lanib keladi: *Afting qursin, Basharang qursin, Aftingdan olsin* kabi. Xuddi shunday bog‘lanishlarda *yuz-, bet-* leksemalari deyarli ishlatilmaydi. Aksincha, oddiy, betaraf tasvirlarda asosan *yuz-, bet-* leksemalari ishlatilib (*Yuzini yuvib kirib ketdi kabi), aft-, bashara-* leksemalari bunday hollarda deyarli ishlatilmaydi.

Bu ularning uslubiy jixatdan ishlatilishida farqlanishida baho semasining o’rni katta ekanligini ko’rsatadi. Ko’rinib turibtiki ijobiy yoki salbiy baho “0” bahoga nisbatan qiyoslab belgilab olinyabti. Har bir baho uchun alohida shakl va so’z ishtirok etadi.

Janozaga qishloqning katta-kichik hammasi keldi. Faqat Nurimsartarosh kelolmadi. Yurt ko’zida uning yuzi shuvit edi.(S.Ahmad.”Azroil o’tgan yo’llarda”).

Yuz leksemasi aslida betaraf baho ifodalovchi leksema hisoblanadi. Keltirilgan parchada esa betaraflikdan salbiy ma`noli leksemaga aylanmoqda.

Baho semasi asli betaraf baholi leksemani o‘z ishlatilish doirasidan boshqa bir doiraga ko‘chirish tufayli ifodalansa, kontekstual (*lot. contextus - zich aloqa, bog‘lanish*). ifodalanish deyiladi Masalan:

Mana oradan bir yil o’tdi. U o’sha qizni eslaganida nihoyatda ko’hlik bir qizning yuzi, ko’zi, kelishgan gavdasi ko’z oldiga kelardida, zum o’tmay, bu go’zallik o’rnini tirjaygan kalla suyagi egallab olardi. (S.Ahmad.”Tog’ afsonasi”).

Masalan, *bosh-* leksemasi kishi tanasining a'zosiga nisbatan, *kalla-* leksemasi esa hayvon tanasining a'zosiga nisbatan ishlatiladi. Bulardan har biri o‘z ishlatilish doirasida baho semasi jihatidan betaraf*: Boshini quyi soldi. Kalla solib sho‘rva pishirdi* kabi. Ammo *kalla-* leksemasi hayvondan odamga ko‘chirib ishlatilsa, salbiy baholi bo‘lib qoladi. Odatda *bosh-* leksemasi bilan *aqllilik* anglatilsa, *kalla-* leksemasi shuning aksi uchun ishlatiladi: *Kalla deb oshqovoqni ko‘tarib yurgan ekansan-da, og‘ayni!* kabi. Bunday o‘rinda *kalla-* leksemasini *bosh-* leksemasi bilan almashtirib bo‘lmaydi.

Umuman, *bosh* bilan bog‘liq salbiy tushunchalar odatda *kalla-* leksemasi yordamida anglatiladi: *kallavaram-, kallaxum- (xumkalla-), kalla ur- (kalla qo‘y-)* kabi. Shu nuqtayi nazardan quyidagi matnda *kalla-* leksemasining ishlatilgani xato*: Bu oltin kallaning bahosi yuksak, Dushmanlar bunga xun to‘lashi kerak! (Yashin).*

Quyidagi matnda shoir leksemalarning baho semasidan juda ustalik bilan foydalangan (Birinchi misradagi *bosh-* leksemasi oxirgi misradagi *kalla-* leksemasini baho semasi jihatidan juda bo‘rtirib turibdi):

Bu Ja'farning boshini silar Muallimi: "Barakalla", - deb, U Ja'farga tushar dakkilar: "Hay, tezroq yur, qora kalla!" – deb (Shayxzoda).

Baho semasi nutqni yanada tasirchan , aniq , bo'yoqdor va subyektning voqealik ,obyekt, va shaxsga bo'lgan munosabatini yanada aniq va lo'nda ifodalashga katta hizmat qiladi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan tahlil va misollarga tayanib shuni xulosa qilish mumkinki, baho semasining o'zbek tilida ifodalashning rang-barang usul va vositalari mavjud. Bu esa tilimizning naqadar boyligini, imkoniyatlar kengligini, bir axborotning ifodalash bilan birga boshqa bir qo'shimcha axborotning ifodalshning imkoniyati mavjudligi bilan ajralib turadi. Baho munosbatining tilimizda keng ifodalanishi uning tasirchanligini yanada oshiradi va boyitadi.

Referances

1. Balli, Sh. French style. / Sh. Bally; per. from French K. A. Valley. – M. : URSS,
2. 2003. – 394 p.
3. Bednarek, M. (2006a) Evaluation in Media Discourse: Analysis of Newspaper (https://fayllar. org/1-my-favorite-newspaper. html)
4. Corpus. London, NY: Continuum
5. Hyland, K. (2004) „Engagement and Disciplinarity: the other side of
6. Evaluation". In Academic Discourse: New Insights into Evaluation. (ed. G. Del
7. LungoCamiciotti& E. TongnelliBonelli) Bern: Peter Lang A. G. pp. 13-30.
8. Macken-Horarik, M. & Martin. J. R. , (eds.) (2003) Negotiating Heteroglossia:
9. Social Perspectives on Evaluation. Text. Special Issue. Vol. 23, Berlin & New
10. York: Mouton de Gruyter.
11. Martin, J. R. & Rose, David (2003) Working with Discourse. Meaning beyond
12. the Clause. London/NY: Continuum
13. Qambarov G'. S Baho munosabati va uning o'zbek tilida ifodalanishi Toshkent. 2008. , 3-b. ,B. 26.
14. Qo'ng'urov R Subyektiv baho formalarining semantic va stilistik xususiyatlari. Toshkent. 165b
15. G'ulomov A, Xojiyev. A Modal yoki sub yektiv baho formalari haqida
16. Sh. Rahmatullayev "Hozirgi o'zbek adabiy tili". Darslik.
17. Хидекель С. С. , Кашель Г. Г. Природа и характер языковых оценок"Лексические и грамматические компоненты в сема"
18. Арутюнова Н. Д. Аксиология в механизмах жизни и языка " Проблемы структурной лингвистики "1982. М. , 1984. С. 5-23.
19. Арутюнова Н. Д. Об объекте общей оценки "Вопросы языкознания," 1985. №3. с. 13-14.
20. Хидекель С. С. , Кашель Г. Г. Природа и характер языковых оценок "Лексические и грамматические компоненты в семантике языкового знака". –Воронеж, 1983.

СЎЗНИНГ КЎЧМА МАЪНОСИ; МЕТОНИМИК МАЪНОЛИ СЎЗЛАРНИНГ ЛУҒАТЛАРДА ХАТЛАНИШ ДАРАЖАСИ

Тўйчиева Хуснида
ҚДПИ хорижий тил ва адабиёти йўналиши магистранти

Аннотация. Мақолада сўзнинг кўчма маъноси, метонимик маъноли сўзларнинг луғатларда хатланиш даражаси ҳақида сўз боради. Сўзларнинг ҳар бир маъно типи тил тизимида ўзига хос боғлиқликка эгадир. Ушбу маъно боғлиқлигини, ўзига хослигини аниқлаш, уларни жой-жойига қўйиш ва маъно хусусиятларини очиб бериш изоҳли луғат тузиш принципларининг асосийларидан ҳисобланади. Ушбу ўринда сўзлар таҳлили фақат синхрон тарзда олиб борилиши билан бирга, имкон даражасида тарихий-диахрон маълумотларнинг ҳам жалб қилиниши мақсадга мувофиқдир.

Калит сўзлар: номлаш, кўчим, кўчма маъно, лексик бирлик, кўп маънолилик, синонимия.

Тил системасида лексик сатҳ номинативлик ва ифодавийлик нуқтаи назаридан марказий ўринни эгаллайди[32]. Сўзларнинг номлаш функцияси бўлмаганда тилнинг жамиятдаги мулоқот хусусияти ҳам бўлмас эди. Тилнинг миллий-маданий хусусияти ҳам, аввало сўзда мужассамлашади[33]. Сўзнинг номлаш функцияси сўз ўзи ифода этаётган мазмуннинг табиий борлиқдаги предмет ва ҳодисаларга алоқадорлигининг ифодасидир. Дарвоқе, сўзнинг маъно макони (булоғи) тилдан ташқарида мавжуддир. Сўз маъноларининг сони ва сифати тил тизимида муҳрланган бўлсада, тилда гапираётган жамоанинг эҳтиёжидан келиб чиққан ҳолда намоён бўлади. Биламизки, бирор тил жамоаси янги бир нарсани кашф этса, унга албатта, ўз тилида мавжуд бўлган товушлар ёрдамида, сўз ясаш усулларидан фойдаланиб янги бир ном ўйлаб топади. Масалан:

Noob – someone who is new to an online community or game (интернетда гуруҳ ёки ўйинга янги қўшилган одам);

Botox – a toxic compound used in cosmetic surgery to conceal wrinkles (косметик жарроҳликда ажинларни йўқотиш учун ишлатиладиган зарали модда);

Бундай мисолларни яна давом эттириш мумкин, twitter, yahoo, online, spam каби. Ушбу йўл билан тилда янги сўз, янги маъно бўлади.

Баъзи ўринларда, тил жамоаси янги предметларни эскирган сўзлар орқали ҳам номлаши мумкин. Иккала усул билан ҳам ўз янги предмети ва макони бор янги маъно яратилади. Мантиқан хулоса қилмоқчи бўлсак, бу ерда тил тизимининг ҳеч қандай алоқаси йўққа ўхшайди. Дарвоқе, ҳар бир алоҳида олинган сўз ўзининг товуш шаклига эга бўлган ҳолда бир маънони

[32] Д.Рустамов. Лексемалар миллий маданий хосланган семемасининг лингвомаданий тадқиқи. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси, − Фарғона, 2018. − С.55.
[33] Д.Рустамов. Кўрсатилган асар, - С.56.

ифодалаганда, тилларда кўп маънолилик ва синонимлик ҳодисалари бўлмаганда эди бундай хулоса бизнингча тўғри бўлар эди. Аслида эса, баъзи бир сўзлар бир нечта маънони ифодалайдилар ёки турли товуш бирликлари бир хил предмет ёки ҳодисаларнинг сифатини номлашлари мумкин, пировард натижада лексик бирликларнинг қандайдир маъно уйғунлиги ривожини кўришимиз мумкин.

Дунё тилшунослигида аввалдан маълумки, тилларда янги товушлар бирлиги орқали янги сўзлар ясаш жуда кам учрайдиган ҳодисадир. Ушбу мақсадни амалга ошириш учун одатда луғат таркибидаги тил жамоаси томонидан аввалдан қўлланиб келаётган лексик бирликлардан фойдаланилади. Бундай ҳолатларда асосан, янги маънолар сўзларнинг ўзак морфемаларининг маъно чегарасини, даражасини ўзгартириш орқали амалга оширилади. Бу ўринда ўзга тиллардан ўзлаштириб олинган, олинаётган лексик бирликларнинг аҳамиятини ҳам алоҳида таъкидлаш лозим. Тиллар луғат таркибининг сезиларли қисмини ўзлашган сўзлар ташкил қилишини эслатишнинг ўзи кифоя. Асосий луғат таркиби билан ўзлашган сўзлар ўртасида ҳам сўзнинг тарихий семантик ривожий боғлиқлик борлигини яхши биламиз. Масалан, араб тилидаги РОБИТА сўзини олайлик:

РОБИТА – араб. – боғланиш. 1. Алоқа, муносабат, боғлиқлик, дўстлик, ришта. 2. Мурид билан унинг пири ўртасида пайдо бўладиган руҳий алоқа, боғланиш.

Ҳар тилни билув эмди бани одама жондур,
Тил воситаи робитаи оламиёндир.
(Аваз Ўтар. Девон. – Т.: Ғ.Ғулом, 1976. 180-бет.)

Аллоҳ ила солик ўртасидаги робитаи илоҳийнурдур. Ана шу нур соликни само билан боғлар. Робита икки қисмдан иборат: робитаи муҳаббат – ишқ ила шайхни хотирлаш; робитаи талаббус – муриднинг ўзини баъзан шайхи қиёфасида тасаввур этиши.

(Шайх Нажмиддин Кубро. Тасаввуф истилоҳлари шаҳри. Т.://Мовароуннаҳр, 2004, 235-236-бет)[34].

Ушбу масала алоҳида илмий иш мавзуси эканлигини инобатга олган ҳолда биз юқоридаги мулоҳазлар билан чегараланамиз.

Янги сўзлар, янги маънолар орқали тилнинг луғат таркиби бойиб боради. Тилнинг ўзига хос хусусиятлари, ривожланиш қонуниятлари мавжуд бўлсада, тилнинг табиий борлиқ билан ва ўз тизими ўртасидаги боғлиқликни, алоқадорликни инкор этиш мумкин эмас.

Тилларнинг луғат бойлиги бойиб боришида метафорик кўчимнинг қанчалик аҳамиятли эканлиги таъкидлаб ўтилди. Инглиз тилидаги изоҳли луғатларнинг қиёсий таҳлилларидан шу нарса аён бўлдики, луғатларда берилган кўп маъноли сўзларнинг маъно чегараларини аниқлашнинг аниқ мезонларининг мавжуд эмаслиги, сўзларнинг умумий маъноси билан махсус

[34] Мухторхон Эшон Умархўжа. Диний атамалар ва иборалар. Т.://Ғ.Ғулом нашриёти, 2016, 135-136-б.

маъноларни, тўғри маъно билан кўчма маъноларни тавсифлашда, фарқлашда эркинликнинг мавжудлиги, уларнинг барчасининг маънолари ўртасида қандайдир сезиларли даражада маъно ўтиши – боғлиқлик борлиги сабабли барчаси бир бош сўз остида берилган. Маънолар орасидаги семантик ўтиш, боғлиқлик аниқ бўлмаган ҳолатларда метафорик сўзлар бош сўз мақоласининг сўнгида бериш амалиёти мавжуд. Масалан, БАРСда:

DUCK – 1. утка. 2. утиное мясо, утятина. 3. разг. человек; парень, малый. 4. голубушка, голубка. 5. спорт. игрок, не набравший ни одного очка. 6. воен. грузовик-амфибия. 7. воен. жаргон. новобранец, навичок. 8. растратчик.

Бундай ҳолатлар кўпинча икки тилли луғатлар учун маъқул ҳисобланиб, луғатнинг ўзига хослиги ва ўқувчининг эҳтиёжидан келиб чиқилганлиги билан исботланади.

Дарвоқе, сўзликка ўта майдалаштирилган ҳолатда тартиб берилиши, кўп маъноли сўзларнинг кичик-кичик гуруҳларга бўлиниши луғатдан фойдаланиш жараёнида қийинчиликлар келтириб чиқариши мумкин. Мисол учун, инглиз тилидаги "Chambers 20th century dictionary" луғати энг замонавий, мукаммал тузилган луғатлардан бири эканлигига шубҳа йўқ, лекин баъзи сўзларнинг маънолари ўта майдалаштирилган ҳолда берилганлиги ва ушбу маънолар бир-биридан жуда оз даражада фарқланиши фойдаланувчиларга бироз қийинчилик туғдириш эҳтимоли бор. Масалан, TO DRAW сўзининг 54 та (379-бет), HAND сўзининг 36 та (568-бет), HEAD сўзининг 35 та (576-бет), TO BREAK сўзининг 35 та (152-бет) маънолари берилган.

Тадқиқотга тортилган луғатларда сўз маъноларининг жойлаштирилиши асосан қуйидаги лексикографик тамойилларга асосланилганлиги аниқланди:

1) луғатларда бош сўзнинг маъноси мақоланинг бошига жойлаштирилган ҳолда, маънолар жойлашиши уларнинг семантик боғлиқлиги асосида ҳозирги тил нуқтаи назаридан амалга оширилган;

2) биринчи ўринда сўзнинг асосий маъноси берилган;

3) нисбатан кўпроқ қўлланиладиган, ишлатиладиган маънолар улардан сўнг берилган;

4) бош сўзнинг кўчма маъноси одатдагидек асосий маънолардан кейин берилган;

5) бош сўз омонимик маънога эга бўлса, яъни шакл жиҳатдан бир хил бўлиб, маъно боғлиқлиги сезилмаса, бу сўз алоҳида тил бирлиги сифатида рим рақами билан белгиланиб махсус луғат бирлиги сифатида берилган.

Алоҳида таъкидлаш лозимки, сўз маъносининг хослашуви, маънонинг кенгайиши ёки торайиши метафорик кўчиш жараёни билан бир хил эмас. Уларнинг боғланиш йўллари тил тизимида ўзгача шакл-шамойилга эгадир.

Метафорик кўчим, одатда сўзнинг эмоционал бўёқдорлигини кучайтириш мақсадида ўзига хос маънога эга бўлган, ўзининг турғун лексик қуршовига эга бўлган бирликдир. Шу нуқтаи назардан метафорик сўзларнинг

кўп маъноли сўзлар таркибида, мақола сўнгида алоҳида берилиши назарий ва амалий лексикография принциплари асосида амалга оширилган.

Хулоса сифатида таъкидлаш лозимки, сўзларнинг ҳар бир маъно типи тил тизимида ўзига хос боғлиқликка эгадир. Ушбу маъно боғлиқлигини, ўзига хослигини аниқлаш, уларни жой-жойига қўйиш ва маъно хусусиятларини очиб бериш изоҳли луғат тузиш принципларининг асосийларидан ҳисобланади. Ушбу ўринда сўзлар таҳлили фақат синхрон тарзда олиб борилиши билан бирга, имкон даражасида тарихий-диахрон маълумотларнинг ҳам жалб қилиниши мақсадга мувофиқдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Рустамов Д. Лексемалар миллий маданий хосланган сememасининг лингвомаданий тадқиқи. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси, − Фарғона, 2018. − С.55.
2. Мухторхон Эшон Умархўжа. Диний атамалар ва иборалар. Т.://Ғ.Ғулом нашриёти, 2016, 135-136-б.

ФОРМИРОВАНИЕ ПРОЕКТНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Мамурова М.Н.
Ташкентский государственный
педагогический университет имени Низами
Республика Узбекистан
Madinamamurova98@gmail.com

Уразова М.Б.
Научный руководитель д.п.н. , проф.

Аннотация. В данной статье авторами анализируются повышение уровня компетентности студента и обновление методической работы в педагогическом образовании, через метод педагогического проектирования будет способствовать повышению качества проектной деятельности в высшем учебном учреждении.

Annotation. In this article, the authors analyze the increase in the level of student competence and the renewal of methodological work in teacher education, through the method of pedagogical design will improve quality of project activities in higher educational institution.

Annotatsiya. Ushbu maqolada mualliflar o'quvchilarning malakasi darajasini oshirish va o'qituvchi ta'limidagi metodik ishlarning yangilanishini pedagogik usul orqali tahlil qiladilar. dizayn yaxshilanadi loyiha faoliyati sifati oliy ta'lim muassasasi.

Ключевые слова: проектная компетентность, проектирование, педагогическое проектирование, компетентность, творческий подход, активные методы обучения.

Key words: project competence, design, pedagogical design, competence, creativity, active teaching methods.

Kalit so'zlar: loyiha kompetensiyasi, dizayn, pedagogik loyihalash, kompetentsiya, ijodkorlik, faol o'qitish usullari.

Развития системы высшего образования, связанный с реформой образовательной системы Республики Узбекистан в целом, выдвинул на первый план концепцию широкого развития личности, а именно «воспитания молодежи в качестве духовно богатых и физически развитых личностей, обладающих высокими знаниями и духовностью, повышения авторитета руководителей и преподавателей образовательных учреждений, создания условий, необходимых для осуществления ими эффективной деятельности. Неотъемлемой частью профессиональной подготовки современного педагога являются формирование и повышение личностной компетентности, что предполагает создание в образовательном процессе оптимальных условий для получения знаний и формирования необходимых

умений и навыков управления процессом собственного профессионально-личностного роста и повышения уровня личностной компетентности [2].

Компетентность – совокупность личностных качеств субъекта (ценностно-смысловых ориентаций, знаний, умений, навыков, способностей), обусловленных опытом его деятельности в определенной социально и личностно-значимой сфере [1].

Проектная компетентность – это интегративная характеристика субъекта, выражающаяся в способности и готовности человека к самостоятельной теоретической и практической деятельности по разработке и реализации проектов в различных сфера [5].

Современное образование требует от выпускников высшей школы наличия не только теоретических знаний, но и практических навыков, умений и навыков, которые необходимы для решения сложных задач в профессиональной сфере. Одним из эффективных способов формирования таких компетенций является использование проектной деятельности.

Цель данной статьи - рассмотреть педагогические условия, необходимые для формирования проектной компетентности у студентов педагогического образования.

Первым и основным условием является формирование позитивного отношения студентов к проектной деятельности. Для этого необходимо объяснить студентам, что проектная деятельность - это не только средство получения практических навыков, но и возможность самореализации и творческого проявления. Студенты должны понимать, что проектная деятельность помогает им не только получить практические навыки, но и развить их творческий потенциал.

Вторым условием является наличие компетентного наставника. Наставник должен быть способен создавать условия для развития творческих способностей студентов, поддерживать интерес студентов к проектной деятельности и помогать им развивать необходимые для этого навыки. Кроме того, наставник должен быть готов помочь студентам при возникновении трудностей в проектной деятельности.

Третьим условием является наличие необходимых ресурсов. Студенты должны иметь доступ к необходимой информации и техническим средствам для реализации проектных задач. Кроме того, необходимо предоставить студентам возможность работать в команде и обеспечить необходимую организационную поддержку для реализации проектов.

Четвертым условием является наличие системы оценки проектной деятельности. Система оценки должна учитывать не только результаты проектной деятельности, но и процесс ее реализации. Она должна позволять студентам получать обратную связь и использовать ее для улучшения своей работы [4].

Таким образом, для эффективного формирования проектной компетентности у студен рассмотрено более подробно каждое из указанных педагогических условий.

Формирование позитивного отношения студентов к проектной деятельности. Для того чтобы студенты проявляли интерес к проектной деятельности, необходимо показать им, какие практические навыки они смогут получить благодаря ей. Кроме того, следует подчеркнуть, что проектная деятельность помогает развивать творческий потенциал студентов. Для того чтобы повысить заинтересованность студентов в проектной деятельности, можно проводить различные мероприятия, например, соревнования по проектной деятельности или конференции, где студенты могут представить свои проекты.

Наличие компетентного наставника. Наставник должен иметь не только теоретические знания, но и практический опыт в реализации проектов. Он должен уметь объяснять сложные вопросы, помогать студентам в выборе темы проекта, организовывать работу студентов и решать возникающие проблемы. Кроме того, наставник должен быть поддерживающей фигурой, готовой выслушать студента, помочь ему при возникновении трудностей, поощрять его творческий подход.

Наличие необходимых ресурсов. Студентам необходим доступ к информации и техническим средствам для реализации проектных задач. Это может быть библиотека, Интернет, лаборатории и т.д. Кроме того, для реализации проектов студенты часто нуждаются в дополнительных ресурсах, например, финансовых. В таких случаях можно обратиться к спонсорам или организовать сбор средств.

Наличие системы оценки проектной деятельности. Система оценки должна учитывать не только результаты проектной деятельности, но и процесс ее реализации. Это позволит студентам получать обратную связь, а также оценивать свои сильные и слабые стороны в реализации проектов. Оценка проектов должна проводиться объективно и в соответствии с критериями, которые были заранее определены.

Так же можно рассмотреть некоторые методы, которые могут помочь реализовать вышеперечисленные педагогические условия и способствовать формированию проектной компетентности у студентов педагогического образования:

Применение активных методов обучения. Активные методы обучения, такие как проектная деятельность, позволяют студентам активно участвовать в процессе обучения, самостоятельно принимать решения и творчески мыслить. Это способствует формированию проектной компетентности студентов.

Организация совместной работы студентов. Совместная работа позволяет студентам учиться друг у друга, обмениваться опытом и идеями. Кроме того, совместная работа способствует развитию коммуникативных

навыков, что также является важной составляющей проектной компетентности.

Проведение кураторских часов. Кураторские часы позволяют студентам получать информацию о технических и методических аспектах реализации проектов, а также получать консультации по возникающим вопросам. Это помогает студентам развивать практические навыки и повышать уровень своей компетентности в проектной деятельности.

Организация обратной связи. Обратная связь позволяет студентам получать конструктивную критику и советы по улучшению своих проектов. Это также способствует развитию самооценки и самоконтроля, что является важным аспектом проектной компетентности.

Проведение семинаров и мастер-классов. Семинары и мастер-классы позволяют студентам познакомиться с новыми технологиями и методиками, а также обмениваться опытом с практикующими специалистами. Это помогает студентам расширять свой кругозор и улучшать свои профессиональные навыки[3]

Таким образом, формирование проектной компетентности у студентов педагогического образования является важной задачей современного высшего образования. Для ее решения необходимо создать соответствующие педагогические условия, такие как формирование позитивного отношения к проектной деятельности, использование активных методов обучения, организация совместной работы студентов, проведение кураторских часов, организация обратной связи, проведение семинаров и мастер-классов. Кроме того, важно обеспечить соответствующую подготовку педагогических кадров, которые будут способствовать формированию проектной компетентности у будущих педагогов.

Список использованной литературы:

1. Зимняя И.А. Ключевые Компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. М., 2004.,
2. Уразова М.Б. Педагогическая деонтология. Ташкент., 2021
3. http://www.uroki.net/kopilka/kopilka19.htm
4. Атемаскина Ю.В. Проектная деятельность педагога: сущность и технология //Детский сад от А до Я.-2008.- № 3
5. https://nauka-pedagogika.com/pedagogika-13-00-08

ЮҚОРИ МАЛАКАЛИ ТАЭКВОНДОЧИЛАРНИНГ МАШҒУЛОТЛАРИНИ РЕЖАЛАШТИРИШ

Эркинова Нозима
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Yakkakurash sport turlari fakulteti Taekvondo WTF,
karate VKF nazariyasi va uslubiyati kafedrasi ўқитувчи

O`zMU Taekvondo va sport faoliyati fakulteti dekani p.f.n., dotsent
Raximov V.SH. *taqrizi asosida*

Annotatsiya. Ushbu maqolada юқори малакали таэквондочиларнинг машғулотларини режалаштириш ва уларни tayyorlash jarayonini individuallashtirish haqida so'z yuritilgan. Taekvondochilarning umumiy jismoniy tayyorgarliklarini ancha tabaqalashtirilgan diagnostikasi uchun o'g'il bolalar va qiz bolalar alohida testdan o'tkazildi.

Калит сўзлар: мусобақаолди, машғулот, хулқ-атвори, хужум, ҳимоя, ҳаракат, мусобақа, тактик ҳаракатлари.

Annotation. This article talks about planning the training of highly qualified taekwondo players and individualizing the process of their training. Boys and girls were tested separately for more differentiated diagnosis of general physical training of taekwondo players.

Key words: pre-competition, training, behavior, attack, defense, action, competition, tactical actions.

Аннотация. В данной статье рассказывается о планировании подготовки высококвалифицированных тхэквондистов и индивидуализации процесса их подготовки. Мальчиков и девочек обследовали отдельно для более дифференцированной диагностики общей физической подготовленности тхэквондистов

Ключевые слова: предсоревновательная подготовка, подготовка, поведение, нападение, защита, действие, соревнование, тактические действия.

Ишнинг долзарблиги. Замонавий спортда, юксак натижа спортчининг жисмоний, техник-тактик ва психологик тайёргарлигини уйғунлиги ҳисобига, ундаги мавжуд истеъдодларни амалга оширилиши ҳисобига эришилади. Ушбу истеъдодлар, бир томондан, жисмоний ва психик сифатларини ривожланишининг юқори даражасини белгилайдиган, бошқа томондан эса, тренировка ва мусобақа фаолиятининг экстремал шароитларидаги ҳолатларининг барқарорлигини белгилайдиган қобилиятлар сифатида амалга оширилади. Спортчининг махсус қобилиятлари спорт фаолиятининг маълум бир стили орқали амалга оширилади. Фаолиятнинг усули ҳар бир спортчида, унинг индивидуал қобилиятларига мос равишда шаклланади ва индивидуал стил кўринишида бўлади.

Таэквондо бўйича махсус адабиётларни таҳлил қилиш, етакчи мутахассисларнинг тажрибаларини умумлаштириш, ҳозирги вақтда педагогик тамойилларнинг энг мухимларидан бири бўлмиш – индивидуал ёндашиш тамойили – таэквондочиларнинг мусобақаолди тайёргарлигида хали етарлича ҳисобга олинмаслиги тўғрисида далолат беради. Индивидуал мусобақаолди тайёргарлик воситаларини излаш "синаб кўриш ва хатога йўл қўйиш" усулида олиб борилмоқда. Бунда, ўзини оқламаган катта йўқотишлар мавжуд ва ҳар қандай хато, спортчиларни энг масъулиятли мусобақаларга тренировка қилганлик даражасини юқори бўлмаган ҳолда олиб келади, улар ўзларининг потенциал имкониятларидан тўлиқ фойдалана олишмайди, спорт чиқишлари эса ишончли сифатида тавсифланиши мумкин бўлмайди.

Индивидуал мусобақаолди тайёргарлик воситаларини танлашдаги хатоликлар, кўпинча спортчиларнинг индивидуал хусусиятларини тавсифлайдиган илмий асосланган маълумотлардан етралича фойдаланилмаслиги туфайли содир бўлади. Демак, юқори классли таэквондочиларни тайёрлашни индивидуаллаштиришнинг илмий мезонларини танлаш ўта зарур.

Тадқиқотнинг мақсади: мазкур тадқиқотларимизнинг мақсади – рапирада юқори малакали таэквондочиларни мусобақаолди тайёргарлигининг самарадорлигини ошириш воситаларини ишлаб чиқиш ҳисобланади.

Тадқиқотнинг вазифалари:

Малакали таэквондочиларнинг тренировка жараёнига ва тренировка қилганлиги динамикасига реакцияларининг индивидуал типовой вариантларини аниқлаш.

Ҳар хил индивидуал стилдаги таэквондочилар тренировка фаолиятининг аҳамиятини ва ҳолатларининг хусусиятларини аниқлаш.

Ҳар хил индивидуал стилдаги фаолиятга эга таэквондочиларнинг мусобақаолди тайёргарликларини оптималлаштириш методикасини ишлаб чиқиш ва тажрибада асослаш.

Тадқиқотларнинг усуллари. Тадқиқотларимизда қўйилган вазифаларни ечиш учун тадқиқотнинг қуйидаги усуллари қўлланилди:

- Махсус адабиётларни ва юқори малакали таэквондочиларни тайёрлашга ихтисослашган етакчи тренерларнинг тажрибаларини таҳлил қилиш;
- Педагогик кузатишлар;
- Индивидуал режаларни ва тренировкаларнинг кундалик дафтарларини таҳлил қилиш;
- Мусобақаолди тайёргарликнинг хажми ва жадаллигини ҳисобга олиш ва таҳлил қилиш;
- Математик статистика усуллари.

Махсус адабиётларни ва юқори малакали таэквондочиларни тайёрлашга ихтисослашган етакчи тренерларнинг

тажрибаларини таҳлил қилиш

Илғор тажрибани умумлаштириш мақсадида, мамлакатимиз ва хориж муаллифларининг мазкур тадқиқотлар муаммоларига бағишланган масалалар бўйича махсус адабиётлари ўрганилди, яъни педагогика, психология, спорт метрологияси, спорт назарияси ва методикаси, математика ва ҳисоблаш техникаси масалалари. Олинган маълумотлардан тадқиқотларнинг натижаларини муҳокама қилишда фойдаланилди.

Ўқув-тренировка машғулотларини тузиш ва режалаштириш масалалари, яккакурашчиларни тайёрлашни индивидуаллаштириш масалалари бўйича адабиётлар тадқиқ қилинди.

Педагогик кузатишлар

Таэквондочиларнинг тренировка фаолиятларини педагогик кузатишлар, ўз ичига қуйидаги бўлимларни олди:

1) қизиб олиш машқларининг хусусиятлари;

2) тайёргарликнинг ҳар хил босқичларида маъқул бўлган рақиблар;

3) махсус машқларни мустақил бажаришга муносабат (ҳаракатланишлар, бокс қопларида ишлаш);

4) тайёргарликнинг ҳар хил босқичларида тренер билан индивидуал дарсларнинг маъқул бўлган техник-тактик репертуари;

5) тайёргарликнинг ҳар хил босқичларида жанговар амалиётнинг воситаларига муносабат;

6) умумий жисмоний тайёргарликнинг ҳар хил воситаларига муносабат;

7 мусобақалардан олдинги охирги кунда хулқ-атворнинг ва фаолиятнинг хусусиятлари;

8) мусобақалар кунидаги хулқ-атворнинг ва фаолиятнинг хусусиятлари.

Индивидуал режаларни ва тренировкаларнинг кундалик дафтарларини таҳлил қилиш

Индивидуал режаларни ва тренировкаларнинг кундалик дафтарларини таҳлил қилиш мусобақаларга тайёргарликнинг ва уларда иштирок этишнинг қуйидаги тавсифларини олиш имкониятини берди:

1) тренировка кунлари миқдори (этапда, микроциклда);

2) тикланиш кунлари миқдори;

3) тренировка машғулотлари миқдори;

4) тренировка ишининг умумий вақти;

5) тренировка ишининг «тоза» вақти;

6)алоҳида тренировка машғулотининг мотор зичлиги ва микроциклдаги, этапдаги ўртача мотор зичлиги;

7) тайёргарликнинг алоҳида воситаларини: УЖТ ва СУ (ММ, ИР. БУ, БП) хажми (минутларда) ва парциал хажми (фоизларда).

ХУЛОСАЛАР

1. Юқори малакали таэквондочиларни тайёрлашни индивидуаллаштириш, спортчиларнинг зарурий сифатларини ривожлантириш, адекват ҳолатларни бошқариш ва самарали ва

мустаҳкам мусобақа фаолиятини таъминлайдиган техник-тактик усулларнинг индивидуал мос келадиган ҳолатларини такомиллаштириш мақсадида хусусан дозалаштириладиган таъсир усуллари асосида, спортчиларнинг потенциал имкониятларини амалга оширишдан иборат.

Фаолиятнинг индивидуал стилини такомиллаштириш, таэквондочиларнинг хулқ-атвори ва фаолиятининг алоҳида параметрлари ўртасидаги кўп табақали боғлиқликлари бўлган, кўп омилли тизим кўринишидаги мусобақаолди тайёргарлик жараёнида энг катта аҳамиятга эга.

2. Мусобақаолди тайёргарликнинг турли босқичларида тренировка воситаларини тақсимлаш, нафақат ушбу тайёргарликнинг вазифалари билан, балки спортчиларнинг индивидуал хусусиятлари ҳамда уларга хос бўлган беллашувни олиб бориш стили билан белгиланади.

Адабиётлар ва интернет сайтлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 9 мартдаги ПҚ-2821-сонли "Ўзбекистон спортчиларини 2020 йилда Токио шаҳрида (Япония) бўлиб ўтадиган XXXII ёзги Олимпия ва XVI Паралимпия ўйинларига тайёрлаш тўғрисида"ги қарори.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 3 июндаги ПҚ-3031-сонли «Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори.
3. G.B. Abdurasulova., Sh.N. Nuritdinova., S.S. Tajibayev., "Taekwondo nazariyasi va uslubiyati" Darslik. Toshkent "Turon-Iqbol" 2015 y. 563 б.
4. Abdurasulova G.B., Nuritdinova Sh.N., Tajibayev S.S., Raxmatov B.Sh., Taekvondo nazariyasi va uslubiyati". Darslik. -. Toshkent-2018. - 563 bet.
5. Лигай. Путь к совершенству. Ташкент, «Шарк» 1994 г. 159 с.
6. Ю.М.Бабак, э. Константинова Таэквондо: Методическое пособие Киев: 2010 г. 88 с.
7. wtuzbekistan@hotmail.com
8. http://m.worldtaekwondo.org/rules-wt/rules.html

MUNDARIJA

B: Falsafa. Filologiya. Pedagogika. Psixologiya. Metodika. San'atshunoslik. Sotsiologiya. Islomshunoslik fanlari

Hakimova M.I. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining innovatsion kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyalari....2
Jamilova N.A. Masallarning bolalar hayotidagi ahamiyati....6
Abdullayeva F.U. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda sahnalashtirish o'yin faoliyatining asosiy maqsadi....8
N.O.Musaev OTMda sifatga qaratilgan kadrlar tayyorlash mexanizmlari....11
Xujabekoba Z.A. Ona tili darslarida “kelishiklar” mavzusini o‘qitishda grafik organayzerlardan foydalanish....15
Sahodillayeva S.A. Inglizzabon tarixiy-adabiy asarlarda Bobur Mirzo talqini....18
Hayitova A. Navro'z bayramining etimologiyasi....24
Хушвақтова Г. Инглиз тили мураккаб гап тизимида илова конструкциялар....29
Ganiyeva G.M. Abdulla Avloniyning asarlarida pedagogik qarashlar....32
Назаров Р. Амир Темур салтанатида меҳмоннавозлик анъаналари элчи клавихо тавсифида....36
D.S. Turdaliyeva Speech realization of language units....43
Набиева О. Воспитательные значение произведений Алишера Наваи....45
Умаров Х.Л. Теккерей-критик современного общества....47
М.Т. Вахабова Сопоставительный анализ ключевой лексемы-репрезентанта (имени) концепта «мать» в русском, корейском и узбекском языках (на материале словарей)....52
Murodova N.I., Yakubova N.A. Ingliz va o’zbek tilarida his-tuyg’u konseptini ifodalovchi frazeologik birliklarning tarjima masalalari....58
Архангельская Е.К. О необходимости совершенствования правовой регламентации международного уровня раскрытия преступлений совершенных в отношении иностранцев....61
Toshpo‘latova Z. Malay tilida arab o‘zlashmalarining o‘ziga xos xususiyatlari tahlili....69
Эшниёзова М.Ш. Мобильные приложения, формирующие лексические и грамматические навыки на занятиях русского языка....74
Saparov M. The sociolinguistic aspects of language learning....81
Toshquvvatov X. Frazeologik birliklarni tarjima qilish usullari....84
Файзиев А. Признаки менталитета в русских и английских пословицах с количественными элементами....88
Xasanova M.Z. Bo’lajak tasviriy san’at o’qituvchsining kasbiy kompetentsiyani shakllantirish....91
Ishboboyeva G.R. O‘smirlarda ijodkorlik qobiliyatlari rivojlanishining ijtimoiy-psixologik shartlari....94
Normo‘minov Sh.T. O‘zbek badiiy matnlarda so‘zning lingvopoetik tahlili va ironiya....101
Жалолова С. Роль и задачи отечественных переводчиков в развитии переводческой деятельности в нашей стране....107
Normuminov L.Y. Oybekning “Navoiy” romanida temuriylar davri talqini....112
Normuminov L.Y. Oybekning portretdan foydalanish mahorati (“Navoiy” romani asosida)....116
Norqulov B.X. O‘zbekistonda chet tili o‘qitish metodikasining ilmiy nazariy holati....120
O‘rinova Sh.B. Chizma geometriya fanidan mustaqil ta'lim faoliyatini takomillashtirishda pedagogik tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish va natijalar tahlili....123
Akbarova M.S. G’ayriodatiy birikmalarning badiiy matnda lingvopoetik aktuallashuvi....129
Yigitaliyeva Sh.I. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ona tili darslarini o‘rgatishning lingvistik konseptual asoslari....133

Ergasheva M. Badiiy matnlardagi til o'yinlarining lingvopragmatik tatqiqi 137
Rakhimova G.X., Ziyayev A.I. Ingliz tili va o'zbek tilida baho munosabatining ifodalanishining usul va vositalari. 141
Тўйчиева Х. Сўзнинг кўчма маъноси; метонимик маъноли сўзларнинг луғатларда хатланиш даражаси.....146
Мамурова М.Н., Уразова М.Б. Формирование проектной компетентности у студентов педагогического образования 150
Эркинова Н. Юқори малакали таэквондочиларнинг машғулотларини режалаштириш 154